O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Toshkent Moliya instituti

A.Qurbonov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O‘RGANISH

o‘quv qo‘llanma

Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2009

A.Qurbonov. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD MOLIYA”, 2009, 170 bet.

O‘quv qo‘llanma Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning 2001 yil 4 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishiga asosan oliy ta’limning noyuridik o‘quv yurtlari bakalavriat yo‘nalishlarida ta’lim oluvchi talabalar uchun yozildi. O‘quv qo‘llanmani yozishda Respublikamiz Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy va boshqa qonunlar, hukumatimizning qarorlari, Prezidentimizning asarlari, farmon va farmoyishlaridan, shuningdek, taniqli huquqshunos olimlarning Konstitutsiyaga bag‘ishlangan asarlaridan foydalanildi.

O‘quv qo‘llanma Toshkent Moliya institutining ilmiy-uslubiy kengashi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2009 yil 10 fevraldagi 2-sonli bayonnoma).

Taqrizchilar: E.Egamberdiyev – yuridik fanlari doktori, professor.
Z.Davronov – falsafa fanlari doktori, professor.

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2009

KIRISH

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamiz dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren davlat – mustaqil O‘zbekiston Respublikasi bunyod etilganligini qonunan mustahkamladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi adolatli, insonparvar, demokratik davlatning qiyofasini, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimi tabiatini, milliy qadriyatlarimizga sodiqligini, fuqarolarning huquq va erkinliklari yuridik jihatdan himoyalanganligini aks ettirib turgan nufuzli hujjat sifatida yuksak ahamiyatga ega.

Prezidentimiz O‘zbekiston Konstitutsiyasining o‘ziga xosligi, sobiq tuzum davridagi Konstitutsiyadan farqi nimadan iboratligini quyidagicha ifodaladi:

“Avvalam bor, bu Konstitutsiya o‘zining tub mohiyati, falsafasi, g‘oyasiga ko‘ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo‘q. Jamiki dunyoviy ne’matlar orasida eng ulug‘i – inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosda “fuqaro-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik.[1]

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan (O‘zbekiston Respublikasining 2002 yilning 27 yanvarida o‘tkazilgan umumxalq referendumining natijalariga ko‘ra hamda uning asosida 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XXIII boblariga tuzatish va qo‘shimchalar kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan) va u “Muqaddima”dan boshlanadi.

“Bizning Qomus demokratik konstitutsiyalarga qo‘yiladigan yuksak talablarga javob beradi, inson hamda fuqaroning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarini kafolatlaydi”.[2]

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq fuqarolarning haq-huquqlari, salomatligi, tinch-osoyishta turmush kechirishi, farovonligi-inson omili bosh masala sifatida dolzarblik kasb etdi. Bu esa Konstitutsiyamizning deyarli hamma moddalarida o‘z aksini topdi. Masalan,

---

[1] Islom Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T., “O‘zbekiston”, 1996, 124-bet.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma’ruzasi. // Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T., 1996, 48-49-betlar.

“O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldida tengdirlar...” (18-modda), “Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas” (19-modda), “O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi...” (21-modda), “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir” (24-modda), “Har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega” (27-modda) “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega...” (29-modda), “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir kishi xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” (31-modda).[1] Bu purma’no qonunlar fikrimizning isbotidir.

Konstitutsiyamizda inson omili ulug‘lanishi bilan birga, har bir fuqaroning, jamiyat oldidagi burch va majburiyati ham belgilab qo‘yilgan. Buni biz “Mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O‘zbekiston Respublikasi huquq va manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emas...” (16-modda), “Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy mafaatlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart” (20-modda), “...Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas” (25-modda), “...Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” (31-modda) deyilganidan ham yaqqol ko‘ramiz. Bular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining milliy istiqlol mafkurasidagi taqiqlovchi qoidalar bo‘yicha asosiy qo‘llanma vazifasini o‘taydi.

O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy tuzumga daxl qilish, bu tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishga urinish, ana shu maqsadda faoliyat ko‘rsatish qonun bilan taqiqlanadi. Ikkinchidan, kamsitishga, adovatga yoki zo‘ravonlikka undovchi milliy, diniy yoki irqiy nafrat ruhidagi har qanday harakat, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalar, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati qonun yo‘li bilan man qilinadi. Buni biz Asosiy qonunning 57-moddasidagi “Konstitutsiyaviy tuzumni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, – T.: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi” 2008.

zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi”, – deyilganidan ko‘ramiz va bular fuqarolar manfaatini ko‘zlaganiga aminmiz.

Milliy istiqlol mafkurasi Konstitutsiyamizning 2-moddasidagi “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning mafaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”, – degan huquqiy qoidaga asoslanadi. Va xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, mehr-oqibat, odamiylik, o‘zga millat va elatlarga nisbatan hurmat, ilmu fanga intilish, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, oqko‘ngillik, or-nomus, iffat va hayo kabi qadriyatlari va ma’naviyatidan ezgu fazilatlaridan oziqlanadi.

Konstitutsiyaviy qoidaga ko‘ra, milliy istiqlol mafkurasi tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do‘stlik, mamlakat va dunyo barqarorligi, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi umum-insoniy g‘oyalarni ham o‘zida aks ettiradi.

Milliy istiqlol mafkurasi o‘z moqiyatiga ko‘ra O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi; barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning, butun xalqimizning umumiy mafaatlarini ifodalaydi. U davlatimiz fuqarolarini ulug‘ maqsad yo‘lida birlashtirishga ko‘maklashadi.[1]

Asosiy qonunning birinchi moddasidan oxirgi moddasigacha o‘z ifodasini topgan konstitutsiyaviy qoidalar milliy istiqlol mafkurasi uchun mustahkam huquqiy poydevor hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi”, degan konstitutsiyaviy qoida milliy istiqlol mafkurasi uchun huquqiy asoslardandir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ifoda etadigan, mustahkamlaydigan o‘ta muhim mafkuraviy aqidalardan biri – bu insonning ulug‘-

[1] Hojimurod Odilqoriev. Kostituttsiya va fuqarolik jamiyati. – T., “Sharq”, 2002, 300-bet.

lanishi va demokratiya sharoitida yashashga munosibligidir. O‘zbekiston xalqi milliy taraqqiyot yo‘lining bosh g‘oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish hisoblanadi. Bu strategik mafkuraviy yo‘riqning turli jabha va qirralari qonunlarda, huquqiy hujjatlarda o‘z tasdig‘ini topib, muayan mafkuraviy –huquqiy qadriyatlar tizimini tashkil etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda huquqiy davlatchilik mafkurasi, yurtning tinchligi, barqarorligi va uning xavfsizligini ta’minlash mafkurasi shakllanib, ijtimoiy ongimizning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Muhimi, bu g‘oyalar qonuniy e’tirofga ega.

Konstitutsiyamizning 12-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”ligi ma’lum qilinishi bilan mustaqil mamlakatimizning ijtimoiy hayoti va siyosiy tizimlari mafkuralar hamda fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi ta’kidlangan. Bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakkahokimligidan qat’iyan voz kechish, siyosiy partiyalar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi konstitutsiyaviy yo‘l bilan e’tirof etilgan.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq etmish yildan ortiq hukm surgan kommunistik mafkura, sinfiylik, yakkapartiyaviylik illatlari tagtugi bilan tugatildi.

Asosiy qonunimizda belgilanganidek, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi maqomiga ko‘tarilishi mumkin emas. Ya’ni biror – bir mafkura mutlaq haqiqatni faqat u bilishiga va uning nomidan so‘zlashga da’vo qilish huquqiga ega emas[1].

Ushbu konstitutsiyaviy qoida milliy istiqlol g‘oyasini yaratish vazifasini dolzarb vazifa qilib qo‘yadi. Milliy istiqlol mafkurasi halqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr – oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, muruvvat, ma’rifat tuyg‘ularini ongimizga singdirishga xizmat qilishini unutmasligimiz darkor. Unda jamiyatimizdagi barcha kuchlar, harakatlar jamoat birlashmalari, aholi turli tabaqalarining o‘y-fikrlari, orzu-umidlari o‘z ifodasini topmog‘i lozim. U davlatimiz fuqarolarini ulug‘ maqsad yo‘lida qalban birlashtirishga ko‘maklashishi kerak.[2]

Istiqlolimizning mustahkam poydevori, buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati deb e’tirof etilgan Konstitutsiyada belgilab berilgan qonun-qoidalarni sinchiklab o‘qib-o‘rganish mamlakatimizning har bir fuqarosi, birinchi navbatda, yoshlar uchun o‘ta muhim va zarurdir.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. T., “O‘zbekiston”, 2001, 54-bet.
[2] I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. T., 1996, 98-bet.

I bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O‘RGANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishning zaruriyatligi

O‘zbekiston Respublikasida chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar amalga oshirilmoqda, milliy ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlar borgan sari ko‘proq namoyon bo‘lmoqda, insonning huquqlari va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni ko‘zda tutgan huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayoni kechmoqda.

Insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan huquqiy demokratik jamiyat barpo etish va uni mustahkamlash xalqimiz uchun ezgu maqsaddir.

Huquqiy davlat o‘ziga xos bir qator xususiyatlari va afzalliklari bilan ajralib turadi. Huquqiy davlatda hamma narsa qonunlar, huquqiy normalar asosida hal etiladi. Huquqiy davlat qonun asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, huquqiy bilim va madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi huquqiy davlatning o‘ziga xos xususiyatidir. Aholining huquqiy bilim saviyasi, huquqiy ongi, madaniyati va ma’naviyati qancha yuksak bo‘lsa, demokratik huquqiy davlat shuncha kuchli bo‘ladi.

Huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan dadil borayotgan O‘zbekistonda fuqarolar huquqiy bilimi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish dolzarb masaladir. Islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan xalqning huquqiy onggi va huquqiy bilimiga bog‘liqligi o‘z-o‘zidan ayon.

Huquqiy bilimga ega bo‘lish, uni muttasil oshirib borish O‘zbekistonning har bir fuqarosi uchun o‘ta muhim va zarur. “Har bir fuqaro, har bir inson, – deydi mamlakatimiz Prezidenti, - o‘z haq- huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur.

Odamlarni huquqiy madaniyat, ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi shart. Toki, jamiyatning har qaysi a’zosi o‘z huquqi, o‘z burchi va mas’uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so‘zlarimiz, say’i-harakatlarimiz besamar ketaveradi”.[1]

[1] Islom Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz, 7-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1999, 245-bet.

Huquqiy bilimli va madaniyatli inson jamiyatda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi.

Huquqiy bilim va madaniyat har bir inson, har qaysi fuqaroga o‘z huquqlarini yaxshi bilish va uni himoya qilishga ko‘maklashadi. Har bir shaxs, har bir fuqaro, burchi va mas’uliyatini qanchalik puxta bilsa, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglasa, o‘shanda demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayoni tezlashadi. Huquqiy bilim va madaniyat xalq va millat etukligini muhim ko‘rsatkichidir. Xalqning kuch-qudrati uning tabiiy boyliklari, hududining katta-kichikligi, iqtisodiy va harbiy quvvatiga qarab emas, balki aholining intellektual salohiyati, ma’naviyati va ma’rifati, birinchi navbatda, huquqiy bilimdonligi va madaniyati darajasiga qarab belgilanadi va baholanadi.

Siyosiy onggi etuk, chuqur huquqiy bilimli va madaniyatli, mustahkam imon-e’tiqodli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab, yo‘ldan urib, har xil aqidalar ta’siriga olib, chalg‘itib bo‘lmaydi. Unday odam har bir narsani aql-idrok, mantiq tarozisiga solib gapiradi, o‘zining qat’i pozitsiyasiga, mustahkam, o‘zgarmas iymon-e’tiqodga ega bo‘ladi. Huquqiy savodxonlik kishini faqat shaxsiy, milliy manfaatlar doirasida o‘ralib qolishdan saqlaydi, milliy va umummilliy maqsad va muammolarga e’tibor berishga chorlaydi.

Fuqarolarni, o‘sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy bilimi va madaniyatini oshirmay turib, demokratik huquqiy davlat qurishdek ulkan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Prezidentimiz oldimizda turgan olijanob maqsadga qanday erishiladi, degan savolga quyidagicha javob berdi: Buning uchun, “…avvalo, aholiga chuqur huquqiy bilim berilishini yo‘lga qo‘yish, bu orqali huquqiy madaniyatning yuksalishiga erishish, boshqacha aytganda, tom ma’nodagi huquqiy ongni shakllantirish talab etiladi. Bu jamiyatni to‘g‘ri, demokratik yo‘ldan rivojlantirish uchun zarurdir. Chunki huquqiy tafakkur shakllanmasa, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqadi. Bunga 90-yillar boshida mamlakatimizda ro‘y bergan vaziyatni misol keltirishimiz mumkin. Shunday ekan, yuksak huquqiy tafakkur, huquq ustuvorligi nafaqat bugungi jamiyatimiz uchun, balki bizdan keyin keladigan avlodlar uchun ham zarurdir”.[1]

Jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida aholi huquqiy bilimi va madaniyatini yuksaltirish uchun asosiy e’tiborni nimalarga qaratish kerak, degan savolning tug‘ilishi o‘z-o‘zidan ayon. Buning uchun har bir fuqaro O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini – uning har bir bo‘limi, boblari va moddalarini sinchik-

[1] Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1998, 26-bet.

lab o‘rganishi, mazmun-mohiyatini chuqur anglab etishi lozim. Ana shu zaruriyat mamlakat xalq ta’limi tizimida, uning barcha turlari va bosqichlarida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini maxsus o‘quv kursi sifatida o‘rganishni taqozo etdi. Ijtimoiy taraqqiyotimiz talab va ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan bu ob’yektiv zaruriyatni nazarda tutib, Prezident Islom Karimov 2001 yil 4 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida farmoyish qabul qildi. Undan ko‘zlangan maqsad – hayotimizning Asosiy Qonunining jamiyatimizdagi o‘rni va ahamiyatini, mazmun-mohiyatini xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarning ongiga singdirish, ularni huquqiy onggi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash eng muhimi, aholini huquqiy savodxonligini oshirish, uning mazmun-mohiyatini targ‘ib va tashviqot qilishdan iboratdir. Konstitutsiyaviy huquqni chuqur o‘rganish jamiyat a’zolarining siyosiy faolligini ko‘tarishga, davlatni boshqarishda ularning ishtirokini ta’minlashga ko‘maklashadi. Siyosiy hayot va davlat ishlaridan voqiflik, mamlakat taqdiriga daxldorlik hissi har bir fuqaroning vatanparvarlik hamda fidoiylik fazilatlarini kamol toptiradi. Bundan ko‘rinadiki, Konstitutsiyani chuqur va mukammal o‘qib-o‘rganish, undagi inson manfaatlarini, haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan asosiy yo‘l-yo‘riqlar, qoidalarni bilib olish har birimiz uchun hayotiy zaruratdir. Dunyodagi rivojlangan davlatlardagi singari mamlakatimizning har bir fuqarosi ham o‘z manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmasliklari kerak. Boshqacha aytganda, ular o‘zlarining kundalik hayotlarida Konstitutsiya belgilab bergan qoida va huquqlarga tez-tez murojaat qilib turishga odatlanishlari, Asosiy Qonunimizga o‘zlari uchun tayanch va suyanchiq deb qarashlari lozim. Chunki qonun-qoidani yaxshi bilgan inson jinoyat sodir etmaydi, qilmishlariga beriladigan qonuniy jazoni unutmaydi. “Biz qonun ustivorligiga erishgandagina o‘zimiz uchun maqsad qilib qo‘ygan adolatli, erkin jamiyat, farovon hayot barpo etishimiz mumkin...

Men Konstitutsiyani bolalar bog‘chasidan boshlab o‘rganishni, maktablarda darslik tariqasida o‘qitishni, oliy o‘quv yurtlarida bir fan sifatida o‘rganishni bugun barcha mutasaddi rahbar va tashkilotlarimizga topshiriq tariqasida aytmoqchiman.

Toki unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimiz Konstitutsiyaning ma’no-mazmunini, u xalqimizning istiqlol yillarida erishgan ulkan tarixiy yutug‘i ekanini teran anglab etsin”. I.Karimov.

(Konstitutsiyaning 8-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqidan).

Konstitutsiya huquqiy savodxonlikning alifbosidir. Har bir fuqaro Konstitutsiya normalarini chuqur anglashi, o‘z tafakkurida ularga asoslangan ixlos-e’tiqodga ega bo‘lishi, maqsad va niyatlarining ularga mos bo‘lishiga erishishi zarur.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati

Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. “Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir”.[1]

O‘zbekiston Konstitutsiyasi o‘zining tub mazmun-mohiyati, falsafasi, mafkurasi, g‘oyalariga ko‘ra yangi huquqiy hujjatdir.

Konstitutsiya zamonaviy demokratik jamiyatning huquqiy tizimida alohida nufuzli mavqe egallovchi, normativ-huquqiy hujjatdir. O‘z yuridik tabiati va mohiyatiga ko‘ra Konstitutsiya boshqa huquqiy aktlardan quyidagi muhim jihatlari bilan ajralib turadi:

Birinchidan, Konstitutsiya maxsus sub’yekt tomonidan yoki uning nomidan chaqiriladi;

Ikkinchidan, konstitutsiyaviy qoidalar ta’sis etuvchi, yo‘naltiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega;

Uchinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining keng qamrovliligi bilan tavsiflanadi, ya’ni u nihoyatda muhim va keng ko‘lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta’sir ko‘rsatadi;

To‘rtinchidan, Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga, ya’ni boshqa qonunlardan ustuvorlikka, oliy yuridik kuchga, o‘ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o‘zgartirish tartibiga ega.[2]

Konstitutsiya shunday yuridik hujjatki, uning qoidalari hamisha hukmronlik, birinchilik, ta’sis kuchiga ega. Boshqa qonunlarning hammasi konstitutsiyaviy me’yorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi, ro‘yobga chiqaradi. Uning asosida barcha me’yoriy hujjatlar ishlab chiqiladi. Konstitutsiyamizning fazilati, o‘ziga xos jihati shundaki, u xalqimizning irodasini, ruhiyati, ijtimoiy ongi va madaniyatini o‘zida aks ettirgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllantirilgan va sayqal toptirilgan madaniy qadriyatlari, fazilatlari, tarixiy va milliy an’analari, shar-

---

[1] Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996, 93-bet.

[2] U.Tadjixonov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyaviy huquqi. – T.: “Sharq”, 2001, 85-86-betlar.

qona donoligi va tafakkuri xazinasi durdonalari o‘zining mujassam bo‘lib, huquqiy ifodasini topgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishida umuminsoniy qadriyatlardan, inson huquqlari haqidagi umumjahon deklaratsiyasining barcha asosiy qoidalari hamda turli mamlakatlar va davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalaridan ham keng foydalanildi. “...Bizning Konstitutsiya haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan hujjatdir... Konstitutsiya eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan, u dunyo miqyosida ham har qanday ilg‘or davlat Konstitutsiyasi bilan bemalol kuch sinashmoqda”.[1]

Prezident Islom Karimov tomonidan ta’kidlanganidek, Konstitutsiyamizga O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan insonlarning dunyoqarashini, ularga xos o‘zaro munosabatlarni, xususiyatlarni, mehr-oqibat, odamiylik, o‘zga millat va elatlarga nisbatan hurmat, ilmu fanga intilish, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlarni asos qilib olingan. Va u tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do‘stlik kabi ulug‘ g‘oyalarga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijobiy jihatlari, tamomila yangi tomonlari bilan avvalgi Konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. Konstitutsiyani o‘rganish jarayonida ana shu masalaga jiddiy e’tibor berish zarurligini alohida ta’kidlash zarur.

Konstitutsiyamiz xalqimiz, davlatimiz, jamiyatimiz, har qaysi inson uchun bizning gerbimiz, bizning madhiyamiz kabi ulug‘ va qadrlidir. Ana shu g‘oyani bilish Konstitutsiyani o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Konstitutsiyamizda davlatimiz, jamiyatimiz va fuqarolarimizning huquq va burchlari belgilanib, bir-biriga uyg‘unlashtirib, o‘zaro muvofiqlashtirib berilgan.

Asosiy Qonunimiz inson huquqi, inson erkinligini o‘zida muhrlagan. Shu bilan birga, u vijdon erkinligi va diniy erkinligimizni ta’minlagan. “Konstitutsiyamizning biz uchun muqaddasligi yana shundan iboratki, – deydi Yurtboshimiz, – har qanday taraqqiyot uchun garov bo‘lmish tinchlik, osoyishtalik, tinch-totuv hayotning asoslarini belgilab bergan”.

Konstitutsiyamizning butun mazmun-mohiyatiga ustuvorlik qiladigan o‘zak masala insonni oliy qadriyat, bebaho boylik deb bilib, uning haq-huquqlari, erki, qadr-qimmati, qadriyatlari, sha’ni va boshqa huquqlari, erkinliklarini birinchi o‘ringa qo‘yishidir.

---

[1] Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996, 94-bet.

Asosiy qonunimizda davlat ham jamiyat ham, avvalo inson manfaatlariga xizmat qilishi, uning haq-huquqlarini himoya etishi ustuvor tamoyil sifatida aniq belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalarini demokratlashtirish yo‘liga o‘tganini yuqorida aytdik. Jahon tajribasidan ko‘rdikki, insonning asosiy huquq hamda erkinliklarini qat’iy himoya qilmasdan va uni amalda ta’minlamasdan turib, jamiyatni demokratlashtirib bo‘lmaydi. Xalqimizning boy ma’naviy salohiyati, uning tasarrufidagi ulkan tabiiy boyliklar va texnik imkoniyatlar, tobora mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalar demokratik rivojlanish hamda inson huquqlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni bosqichma-bosqich yaratish imkonini bermoqda. Konstitutsiyamiz inson huquqlari borasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi”da o‘z ifodasini topgan qoidalarni yaxlit holda o‘zida mujassamlashtirgan. Buni biz Konstitutsiyamizning 18-moddasida ta’kidlanganini ko‘ramiz.

Inson huquqlari haqida gap ketganda Respublikamizning ichki va tashqi siyosati 1993 yili BMT ning ikkinchi umumjahon konferensiyasida tasdiqlangan “Inson huquqi va erkinliklarining universalligi” talablariga qat’iy rioya etib, ular himoyasi barcha davlatlarni qonuniy ravishda tashvishlantirib turuvchi muammo ekanligi haqiqatidan kelib chiqadi.

Inson huquqlari – inson shaxsi va uning turmushining tarkibiy qismi. Shu sababli inson huquqlari kontseptsiyasining shakllanish jarayoni jamiyatning taraqqiyot tarixi bilan chambarchas bog‘liq holda uzoq tadrijiy takomil yo‘lini bosib o‘tdi.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2001 yil 4 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishiga asosan 2001 yilning 1 sentyabridan boshlab Respublikamizning uzluksiz ta’lim tizimida bog‘chadan to oliy ta’limning yuqori bosqichi bo‘lgan magistraturagacha huquqiy bilimlarni o‘rganish O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidan boshlanadigan bo‘ldi. Bu esa o‘z navbatida barcha ta’lim turlari uchun o‘quvchilar, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishni maqsad qilib olgan Konstitutsiyamizni o‘rganish bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar va adabiyotlarni yaratishni taqozo qildi. Ana shu talabdan kelib chiqib, barcha noyuridik o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun Konstitutsiyamizni o‘rganish borasida qo‘llanma yaratishga kirishildi. Ana shundan kelib chiqib, ush-

bu qo‘llanmada Konstitutsiyani o‘rganish kursi, Konstitutsiyamizni ma’nosi, mazmuni va mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, Respublikamiz konstitutsion tuzumining asosiy tamoyillari, inson va fuqarolarning huquqlari, burchlari, erkinliklari hamda ularning kafolatlanishi, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar va ularning asoslari, O‘zbekistonning milliy-davlat hamda ma’muriy-hududiy tuzilishi, davlat hokimiyati idoralarining tizimi va ularning tuzilishi tartibi, vakolat hamda faoliyat shakllarini yoritishga intildik.

Qo‘llanmani yozishda Respublikamiz Konstitutsiyasi, konstitusiyaviy va boshqa qonunlar, hukumatimizning qarorlari, Prezidentimizning asarlari, farmon va farmoyishlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi. Shuningdek, taniqli huquqshunos olimlarning Konstitutsiyaga bag‘ishlangan qator asarlaridan ham foydalanildi.

Qo‘llanma talabalarimiz uchun Konstitutsiyamiz, uning asosida qabul qilingan muhim qonunlarimizni o‘rganishda asosiy manbalardan biri bo‘lib qoladi hamda mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishga, talabalarimizning huquqiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish” fani o‘quv kursining maqsad va vazifalari quyidagi chizmada berilgan:



1-chizma. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish” o‘quv kursining maqsadi.



1-chizma. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish” o‘quv kursining vazifalari.

Ushbu o‘quv kursining mohiyatini to‘la anglash “konstitutsiyaviy huquq” tushunchasini bilish kerak, zero, “O‘zbekiston Konstitutsiyasini o‘rganish” o‘quv kursi “Konstitutsiyaviy huquq” fanining asosiy qismini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy huquqni milliy huquq tizimining asosiy tarmog‘i sifatida o‘rganishda quyidagilar nazarda tutiladi. Birinchidan, konstitutsiya-viy huquq boshqa huquq tarmoqlari kabi davlat tomonidan o‘rnatiladi va qo‘riqlanadi. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy huquq boshqa huquq tarmoq-laridan o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra farq qiladi, ya’ni u davlatning eng asosiy normalarini ifoda etib, boshqa huquq sohalaridan farqli o‘la-roq, ustunlik va umumhuquqiy tamoyillar o‘rnatuvchi xarakterga ega.

Konstitutsiyaviy huquq, eng avvalo, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini muhofaza etuvchi, kafolatlovchi va shu maqsad-larda uni himoyalovchi davlat hokimiyatining muayyan tizimini ta’sis etuvchi huquqiy normalar majmuasidir.

Hozirgi zamon tsivilizatsiyasining muhim qoidalaridan biriga binoan, davlat inson uchun, uning erkinliklarini muhofaza qilish va yaxshi turmush sharoitini ta’minlash uchun mavjuddir. Ammo erkinlik va hokimiyat o‘rtasidagi muvozanatni qanday ta’minlash mumkin? Axir, erkinlik mustahkam davlat tizimi ichida qonunlar bilan tartibga solinmas ekan, u osongina anarxiyaga va boshboshdoqlikka aylanib ketishi mumkin, agar davlat tizimi erkinlikdan voz kechish asosiga qurilgan bo‘lsa, inson totalitar zulm iskanjasiga tushib qoladi. Ana shularni hisobga olgan holda hokimiyat va erkinlikning muvozanatini ta’minlash konstitutsiyaviy huquqning eng asosiy va nozik mohiyatini tashkil etadi.

Huquqning mazkur tarmog‘i ijtimoiy hayotning ana shunday muhim va murakkab sohasini tartibga solganligi sababli u huquq tizimida etakchi o‘rin tutadi. Aslida, butun milliy huquq tizimi, barcha huquq tarmoqlarining shakllanishi (tarixan bo‘lmasa-da, mantiqiy izchillik asosida) konstitutsiyaviy huquqdan boshlanadi. Uning huquq tizimini tashkil etishdagi roli ham shundadir. U yoki bu mamlakatning milliy huquqidagi birorta tarmoq konstitutsiyaviy tamoyillar yoki konsti-tusiyaviy qonunchilik normalariga tayanmasa yoki, aksincha, unga zid kelsa, aslo rivojlana olmaydi.

Huquqning boshqa tarmoqlari kabi konstitutsiyaviy huquq ham o‘z predmetiga ega. Uni bilib olish esa huquqiy tartibga solishning o‘ziga xosligini aniqlash, demak, huquqning bu tarmog‘i mundarijasi, vazifasi va maqsadlari haqida, uning boshqa tarmoqlaridan farqi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish uchun zarurdir. Konstitutsiyaviy huquq predme-tini belgilash katta aniqlikni talab etadi. Chunki bu tarmoqda gap to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri inson va fuqarolarning huquqlari, burchlari va erkinliklari kafolatlari haqida boradi.

Zero, gap inson huquqi, erki va burchi to‘g‘risida borar ekan, Konstitutsiya o‘zining normalarida uni odilona echib, eng muhimi, ana shu huquq va erkinliklarni ta’minlaydigan, qo‘riqlaydigan davlat hokimiyatini tashkil etadigan o‘ta murakkab masalani hal qiladi.

Xalq hokimiyatchiligiga asoslangan demokratik davlat organlarini tashkil etish qonun ustuvorligiga asoslangan ijroiya hokimiyatni, mustaqil sudni, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruvni o‘rnatishni taqozo etadi. Konstitutsiya o‘z normalarida inson va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solar ekan, u davlatning mohiyatini, shaklini ham belgilab beradi. U yoki bu davlatning Konstitutsiyasiga qarab, hokimiyatining maqsadi va mohiyatini aniqlash mumkin. Masalan, totalitar jamiyatda konstitutsiyaviy huquqning roli rasmiy, qotib qolgan amaliyot bilan cheklangan va ta’sirsiz bo‘ladi. Chunki butun real hokimiyat yagona partiya, sinf qo‘lida bo‘ladi va diktatorlik usullari bilan amalga oshiriladi. Ammo demokratik davlatda bu huquqning muttassil rivojlanishi siyosiy fikrlar xilma-xilligi ta’siri ostida amalga oshadi. Bu hol, ayniqsa, hozirgi paytda demokratiyaga o‘tish jarayonini boshidan kechirayotgan O‘zbekiston uchun xarakterlidir. Bu yerda konstitutsiyaviy huquqning o‘zi islohotlarning ob’yekti bo‘lishi bilan birga, fuqarolar tinchligi va osoyishtaligi uchun zarur sharoitlar yaratadi. Turli siyosiy, shu jumladan, ekstremistik va aqidaparast kuchlarning hokimiyat uchun kurashi yo‘liga qonuniy va adolatli to‘siq qo‘yadi. Avtoritar davlatlarda esa hokimiyat yagona shaxs qo‘lida bo‘lishi mumkin va h.k.

Konstitutsiya, birinchi navbatda, davlatning boshqaruv shakli va davlat hokimiyatini tashkil etish me’yorlarini o‘rnatadi. Bunda u avvalambor, uning asosiy prinsiplari, manbalari, ta’limotlari va g‘oyalari nimalardan iborat ekanligini aniq ko‘rsatadi. Bu o‘rinda xalq hokimiyatining taqsimlanishi, davlat boshqaruv shakli, ko‘p partiyaviylik, hur fikrlilik, vijdon erkinligi, mulk huquqi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shu prinsip va qoidalarga asosan Konstitutsiya davlat hokimiyatining tizimi va organlarini, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi. Bu o‘rinda Konstitutsiya davlat hokimiyatining taqsimlanishi nazariyasini amalga oshirib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini o‘zaro mutanosiblikda va muvozanatda tutish qoidasini ta’minlaydi.

Konstitutsiya normalaridagi yana eng muhim masalalardan biri inson va davlat o‘rtasidagi munosabat masalasidir. Bunda asosiy diqqat-e’tibor insonning erki, sog‘lig‘i, hayoti mulki kabi huquqlarining

ta’minlanganligi va kafolatlanishiga qaratiladi. To‘g‘ri, insonning ko‘p huquqlari Konstitutsiyada ko‘rsatilmaydi, ular huquqning boshqa sohala-rida, masalan, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi va shu kabilarda batafsil bayon qilinadi. Ammo Konstitutsiyada insonning tabiiy huquqlari, ya’ni yashash, mehnat qilish, kasb tanlash,mulkdor bo‘lish hamda barchaning qonun oldida tengligi kabi huquqlarining muqaddasligi va daxlsizligi aniq belgilab qo‘yiladi.

Konstitutsiyamizning insonparvarlik ko‘rinishlaridan yana biri, unda erkinlik va shaxsiy daxlsizlik insonning asosiy konstitutsiyaviy hu-quqlaridan biri bo‘lib, unga inson tug‘ilgandan amal qilinishi belgilab qo‘yilganligidir. Bundan tashqari, shaxsiy erkinlik daxlsizligi davlat va hokimiyat tizimlari tomonidan kafolatlanadigan shaxsiy erkinlik sifatida tushunilishi lozimligi haqidagi konstitutsiyaviy qoida Respublikamizning Jinoyat-protsessual qonunida ham o‘z aksini topgan. Masalan, JPKning 18-moddasi 2 qismida hech kim hibsga olinishi va qamoqda saqlanishi mumkin emasligi nazarda tutilib, bu faqat sud qarori va prokuror sanktsiyasiga ko‘ra amalga oshirilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ushbu moddaning 3-qismida esa sudya va prokurorlarga qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etilgan yoki qonun yohud sud hukmida nazarda tutil-gandan ortiq muddat hibsda ushlab turilgan yoki qamoqda saqlangan har qanday shaxsni darhol ozod qilish bo‘yicha qat’iy yo‘riqnoma berilgan.

Konstitutsiyada ko‘riladigan muhim masalalardan yana biri davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabat masalasidir. Albatta, davlat qonunlar orqali jamiyatda tartib o‘rnatadi. U o‘tish davrida asosiy islohotchilik vazifasini bajaradi. Bu davlat jamiyat ustidan hukmronlik qiladi, degan fikrni bildirmaydi. Davlat ham jamiyatning asosiy bir bo‘g‘ini sifatida amal qiladi. Jamiyat davlatdan ko‘ra kengdir. Jamiyat davlat, nodavlat va joylarda o‘zini o‘zi boshqarish organlarini mujassamlashtirgan holda bir butun tarzda namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tilganlardan ko‘rinadiki, davlat insonga xizmat qiladi va u odamlar oldida mas’uldir.

1.3. O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi

Har bir davlatning boshqaruv tizimi tarixan ma’lum bir huquqiy mabalarga binoan shakllantirilgan. Lekin bu huquqiy mabalar turli ko‘rinishlarda va turlicha iboralar bilan nomlanib kelingan. Hozirgi O‘zbekiston Respublikasi hududida ilgaridan konstitutsiyaviy hujjatlar, ya’ni siyosiy tuzum mohiyatini belgilovchi asosiy me’yoriy hujjatlar

mavjud bo‘lgan. Masalan, tarixiy manbalarga ko‘ra, VIII asrdan boshlab Movarounnahrda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy qonun (manba) tariqasida Qur’oni Karim amalda bo‘lgan. Shuningdek, XIII-XIX asrlarda Movarounnahrda shariat fikhlari bilan bir qatorda davlatning huquqiy ahvoliga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatib kelgan Chingizxon yosusi va Amir Temur “Tuzuk”lari sharqona madaniyatga monand konstitutsiyaviy hujjatlar edi.

O‘zbekiston tarixida 1992 yilgi Konstitutsiyaga qadar bir nechta Konstitutsiyalar qabul qilingan. Ma’lumki, O‘zbekiston SSR tashkil etilgunga qadar mamlakatimiz hududida RSFSR tarkibidagi Turkiston ASSR va Xorazm va Buxoro sovet respublikalari kabi mustamlaka davlatlar mavjud bo‘lgan. Bolsheviklar rahbarligidagi Sovetlar hukmronligiga asoslangan bu davlatlarda Konstitutsiyalarning mavjudligi go‘yoki mustaqillik belgisi sifatida ko‘rsatilar edi. Aslida bunday Konstitutsiyalar RSFSR, keyinchalik SSSR Konstitutsiyalaridan bir ko‘chirma edi, xolos. 1918 yil 15 oktyabrda bolsheviklarning hokimiyatini Turkiston ASSR hududida amalga oshirishni belgilab beruvchi TASSRning birinchi Konstitutsiyasi 1918 yil 10 iyunda qabul qilingan RSFSR Konstitutsiyasi asosida qabul qilindi. Unga binoan Turkiston ASSR RSFSRning bir qismi hisoblangan.

Turkiston ASSRning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1920 yil 24 sentyabrda Turkiston o‘lkasi Sovetlarining IX s’ezdida qabul qilindi va u Turkistonning mustamlaka davlat sifatidagi “huquqi” ni aniq belgilab berdi. Bu yangi Konstitutsiya 20 bob, 109 ta moddadan iborat bo‘lib, unda xon va uning qarindoshlariga tegishli bo‘lgan mulklar davlatniki deb belgilandi va Moskvaga olib ketildi. Lekin ishlab chiqarish qurollari va vositalaridan xususiy mulk sifatida foydalanishga ruxsat berildi hamda pul bilan erkin muomala qilish huquqi cheksiz deb belgilandi. Zavod va fabrikalarga egalik qilish va boshqa davlatlar bilan o‘z yurtlarida tuzilgan qo‘shma korxonalarning faoliyat yuritish huquqi eski holatda qoldirildi. Bolsheviklarning bunday siyosat yurgizishdan asosiy maqsadi mahalliy xalqni vaqtinchalik aldash yo‘li bilan fuqarolar urushini to‘xtatish edi. Chunki fuqarolar urushi Turkistonda o‘z hokimiyatlarini o‘rnatishda asosiy kuchlarini to‘plab olishga imkon bermay qo‘ygan edi.

O‘rta Osiyodagi yana bir bolsheviklar hokimiyati o‘rnatilgan Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ham 1920 yilda Konstitutsiya qabul qilindi va unga ko‘ra, bu hududda ishlab chiqarish vositalari Sovet hokimiyati o‘rnatilgunga qadar kimga tegishli bo‘lgan bo‘lsa, xususiy mulkligicha qoldirildi va yerga shaxsiy egalik qilish, uni sotish, har kim

o‘z boyliklaridan erkin foydalanish huquqlari e’lon qilindi. Bu bilan bolsheviklar avvalo, ushbu hududdagi milliy va tabiiy boyliklarni o‘zlashtirib olib, undan keyin davlatchilikka qarshi kurashishni maqsad qilib olgan edilar. Shuning uchun ular mahalliy xalqning ongiga kommunistik mafkurani “bosmachilik harakatiga qarshi kurash” tarzida kuch bilan singdirib, mustamlakachilik siyosatini olib bordilar.

1923 yil 20 oktyabrda IV Butun Xorazm Sovetlarining s’ezdida yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Bu Konstitutsiya ham oldingilaridan kam farq qilib, bolsheviklarning O‘rta Osiyodagi hokimiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Konstitutsiyaga binoan boylar, dallollar, ruhoniylar va shu kabilar saylash va saylanish huquqidan mahrum etilib “butun hokimiyat Sovetlarniki” deb e’lon qilindi.

O‘rta Osiyodagi yana bir davlat-Buxoro amirligida ham 1920 yil sentyabr oyida Sovet hokimiyati o‘rnatilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi. 1921 yil 23 sentyabrda II Butun Buxoro Sovetlarining s’ezdi o‘tkazilib, unda RSFSR Konstitutsiyasiga mos ravishda BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya bolsheviklar hukmron-ligidagi sovet hokimiyatini mustahkamladi.

1924 yil Lenin tomonidan ishlab chiqilgan reja asosida RSFSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi qarori bilan O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazildi. Natijada Turkiston ASSR, BXSR va XXSR ning o‘rnida O‘zbekiston va Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, Qirg‘iziston va Qoraqalpog‘iston avtonom viloyatlari tashkil etildi. Shundan so‘ng, 1924 yil 31 yanvarda qabul qilingan SSSR Konstitusiyasi asosida uning tarkibidagi Respublikalar o‘z Konstitutsiyalarini qabul qildilar.

1927 yil 30 martda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilinib, uning tarkibiga Tojikiston avtonom respublikasi kiritildi. Respublika tarkibiga avtonom respublikaning kiritilishi Markaz uchun ularning nazoratini yanada mahkam ushlab turishda qulaylik tug‘dirar edi. Masalan, Tojikiston ASSR o‘z hukumat tarkibini tuzishi va unga o‘zgartirish kiritishi, O‘zbekiston tomonidan qabul qilingan qonun va boshqa hujjatlar “yuqori” tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, kuchga kirishi Konstitutsiyada belgilab berilgan edi. Shuningdek, Konstitutsiyada xotin-qizlar tengligi, fuqarolarning teng huquqliligi, matbuot erkinligi, ommaviy yig‘ilishlar o‘tkazish, ko‘chalarda namoyish o‘tkazish huquqlari ko‘rsatilib, bu huquqlar faqat qog‘ozda edi, xolos. Amalda esa hech qanday kafolatlar belgilanmagan edi.

1936 yil 5 dekabrda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan 1937 yilgi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasida davlat boshqaruvini amalga oshirish shakllari joylarda Sovetlarni tashkil etish tartibi, ularning vakolat muddatlari, saylash va saylanish tartiblarining ayrim holatlari oldingi Konstitutsiyaga nisbatan qisman o‘zgartirildi, Oliy Sovet va boshqaruv organi Ministrlar Sovetining vakolatlari, tashkil etilish tartibi ko‘rsatib berildi va ma’muriy-hududiy tuzilishi, prokuratura, sud tuzilishi va Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish tartiblari belgilandi.

O‘zSSR Xalq Nozirlari Sovetini qonunchilik vakolati doirasi bekor qilinib, O‘zSSR ning Oliy Soveti yagona qonunchilik organi deb belgilandi.

1978 yil 19 mart kuni O‘zSSRning yangi Konstitutsiyasi loyihasi matbuotda e’lon qilindi. O‘zSSRning Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan 15 aprel kuni Oliy Sovet sessiyasida O‘zSSR Konstitutsiyasi loyihasi SSSRning 1977 yil 7 oktyabrida amalga kiritilgan Konstitutsiyasiga monand ravishda muhokama qilinib, ayrim moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi va 19 aprel kuni qabul qilindi. Bundan ko‘rinib turibdiki, sobiq sho‘ro tuzumi sharoitida Konstitutsiyalar tez-tez o‘zgartirilardi, ya’ni barqaror emas edi. Konstitutsiyada “O‘zbekiston SSSR tarkibiga federatsiya sifatida kiradi” deb belgilanib, amalda bu federatsiya boshqarishning bir butun ma’muriy-buyruqbozlik tizimini o‘zida gavdalantirar edi, kadrlar markazdan turib tayinlanardi, qaerda va nima qurishni markaz hal qilardi, qanday mahsulotlarni va qancha hajmda chetdan olib kelish hamda chetga chiqarishni markaz belgilab berardi. Konstitutsiya ana shunday idora usulini belgilar va mustahkamlar edi va u boshqarishning totalitar avtoritar tizimiga moslashtirilgan edi.”[1]

Kommunistik partiya hukmronlik qilgan davrda sovet xalqining huquqiy va madaniy hayotidagi rivojlanishni o‘rganishda, shunga diqqatni jalb etish lozimki, partiya va Sovet hokimiyatining milliy siyosatni amalga oshirishdagi kamchiliklari tufayli Sovet Ittifoqi tarkibiga zo‘rlik bilan kiritilgan respublikalar yanada “Markaz” ga qaram davlatga aylanib bordilar, shu bilan birga, kam sonli xalqlarning huquqiy holatida hech qanday o‘zgarishlar va siljishlar bo‘lmadi. Konstitutsiya va qonunlar tez-tez o‘zgartirildi. Bu esa, muammolarning yig‘ilib qolishiga, Ittifoq respublikalari o‘rtasidagi norozilik kayfiyatining kuchayib borishiga sharoit tug‘dirdi. Natijada siyosiy Ittifoqning inqirozi

[1] Sh.Z. O‘razaev. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi. – T.: “Adolat”, 1994, 10-bet.

tezlashdi va milliy munosabatlar sohasida murakkab vaziyatni keltirib chiqardi.

1.4. Konstitutsiya – davlatning Asosiy qonuni (Konstitutsiya tushunchasi maqsadlari belgilanishi)

Jamiyat va davlat qurilishining boshlang‘ich asosini, xalq ommasining erkini, irodasini o‘zida mujassamlashtirgan davlatning Asosiy qonuni huquqshunoslikda Konstitutsiya deb yuritiladi. Konstitutsiya muhim siyosiy-huquqiy hujjat bo‘lib, hokimiyat to‘g‘risidagi, shaxsning huquqiy holati haqidagi, davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishi kabi masalalar uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba hisoblanadi. Konstitutsiyaning normalari davlat organlari, mansabdor shaxslar, fuqarolar va hududimizda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar faoliyatiga umumiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy faktlar bilan belgilanadi. Konstitutsiya Asosiy qonun sifatida jamiyat-dagi siyosiy institutlarni, davlat hokimiyatining amalga oshirilishini ta’minlaydi, xalqning siyosiy hokimiyat sari tobora yaqinlashuviga sharoit yaratib beradi. Shuning uchun ham Konstitutsiya o‘zida xalq irodasini ifodalab, xalq hokimiyatchiligi institutlarini mustahkamlaydi.

Konstitutsiya atamasi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “Belgilayman”, “Ta’sis etaman” degan ma’noni bildiradi. Bu atama qadimgi Rim qonun hujjatlarida uchraydi. “Konstitutsiya” deganda o‘sha davrda imperator tomonidan belgilanadigan, ta’sis etiladigan turli hujjatlar anglashilsa-da, aslida u davlat qonunchiligi tizimining eng yuqorisida turuvchi asosiy qonun hisoblangan.

Konstitutsiyaning asosiy maqsadlari uning muqaddimasida belgilanadi.

Muqaddima – Konstitutsiyaning maqsadlari, prinsiplari va asosiy qoidalarini ko‘rsatuvchi kirish qismidir. Mazmuni va hajmiga ko‘ra, hozirgi konstitutsiyalarning muqaddimalari turlicha. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasining “Muqaddima”si quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Muqaddima

O‘zbekiston xalqi:

inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e’lon qilib,

hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatini anglagan holda,

o‘zbek davlati rivojining tarixiy tajribasiga tayanib,

demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib,

xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,

respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta’minlashga intilib,

insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlab,

fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadida,

o‘zining muxtor vakillari siymosida O‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.[1]

Tabiiyki, mustaqillikka erishgan har bir xalq o‘zining rivojlanish yo‘lini izlaydi, yangi jamiyat va davlat qurilishining o‘z modelini ishlab chiqishga harakat qiladi. O‘zbekiston o‘zining yangilanish va taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo‘nalishi ishlab chiqildi. Milliy urf-odatlarga va an’analarga muvofiq, adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurilmoqda. Mustaqil mamlakatimizning milliy mafaatlarini hisobga olgan holda tashqi siyosat yo‘nalishlari va teng huquqli xalqaro hamkorlik prinsiplari belgilab olindi. Suveren O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi esa, barcha sohalarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda va u barcha maqsadlarga etishishning mustahkam huquqiy kafolatidir. Konstitusiyamiz mustaqil siyosiy-huquqiy rivojlanish va konstitutsiyaviy tuzumning o‘zagidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek. “Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir. Shu ma’noda Asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chiqish va muhokama etishda butun xalq ishtirok etadi. Bir so‘z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz tom ma’noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir”.[2]

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2008, 3-bet (ko‘chirma).

[2] Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin 2-tom. – T.: “O‘zbekiston”, 1996, 93-bet.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tarixda sinalgan umuminsoniy huquqiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan. Haqiqatan ham,” mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizga tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishi kamol toptirishiga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir”.[1]

Inson huquqlariga og‘ishmay amal qilish va demokratiya kabi umumbashariy qadriyatlar O‘zbekiston milliy davlatchiligi manfatlariga, xalqning o‘ziga xosligiga, uning an’ana va urf-odatlariga to‘la mos keladi. Inson huquqlari jamiyatimizda Konstitutsiya va qonunlar bilan-gina emas, balki xalqimizning milliy onggi, uning ma’naviy-axloqiy dunyosi va tarixiy tajribasi, mehr-shafqati va sezgirligi bilan ham mustahkamlanadi.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi eng rivojlangan, taraqqiy etgan demok-ratik davlatlarning yuridik tajribasi va jahon konstitutsiyaviy amaliyotga tayangan holda yaratilgan. Konstitutsiyamiz Birlashgan Millatlari Tashkilotlari hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning umume’tirof etgan qoidalariga asoslangan, shuning-dek, uni yaratishda Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Ger-maniya, Frantsiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniya hamda Sharq mamlakatlaridan Hindiston Pokiston, Misr davlatlarining konstitutsiyaviy tajribasidan ijobiy foydalanilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini baholashda xalqaro xolis ekspertlar, jumladan Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropa, Xavfsizligi va Ham-korlik Kengashi, nufuzli davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning hu-quqshunos va siyosatshunos olimlari va vakillari faol qatnashdilar. Hech kim, hattoki muholiflarimiz ham Konstitutsiyamizning demokratik mo-hiyatini va afzalliklarini inkor eta olmadi.

“Bizning Qomus demokratik konstitutsiyalarga qo‘yiladigan yuk-sak talablarga javob beradi, inson hamda fuqaroning barcha huquqlari va

[1] I.A.Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taqqiyot yo‘li. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-tom. – T.: 1996, 77-bet.

asosiy erkinliklarini kafolatlaydi”[1]. Shu ma’noda u har qanday ilg‘or davlat Konstitutsiyasi bilan bemalol kuch sinashmoqda. Shuning uchun ham Konstitutsiyamiz eng ilg‘or huquqiy g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirganligi, uning eng demokratik an’analar asosida yaratilganligini butun jahon e’tirof etmoqda.

O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning ma’naviy, madaniy merosi, milliy tafakkuri, ko‘p asrlik o‘zbek davlatchiligi tajribasi hamda huquqiy an’analariga asoslangan va ularning boy ijobiy tajribasini o‘zida aks ettirgan.

Ma’naviy, axloqiy, ilmiy, diniy va huquqiy qadriyatlar xalqimizning ko‘p asrlik turmush tarzida, an’anaviy madaniyatida muhim o‘rin olgan. Vatandoshlarimizga xos bo‘lgan adolat, haqiqat, iymon, insof, olijanoblik, bag‘rikenglik, mardlik, tantilik, sahovatpeshalik kabi ulug‘vor xislatlar Konstitutsiyamizdan munosib o‘rin olgan.

Qomusimizning ma’naviy, tarixi asoslari sifatida jahon madaniyati rivojiga bebaho hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz – Al Buxoriy, At-Termiziy, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa daholarning qoldirgan ma’naviy-axloqiy merosi namoyon bo‘lmoqda. Ularning insonning ma’naviy kamolotga chorlovchi diniy-axloqiy va huquqiy hikmatlari Konstitutsiyamizga ruh bag‘ishlagan.

Xulosa qilib aytganda Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitusiyasi kelajagi buyuk davlatning ishonchli huquqiy kafolatlarini mustahkamlaydi. U inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik va taraqqiyot prinsiplari majmuini ifodalaydigan huquqiy va adolatli davlat qurish yo‘llarini aniq ifodalab bergan.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. Davlat suvereniteti

Respublikamiz suveren davlatdir. Yurtimizda suveren o‘zbek davlatchiligi asoslari izchillik bilan barpo etilmoqda. Maqsadimiz, bor kuch-g‘ayratimizni sarflab, ajdodlarimizning orzu-armonlari bo‘lmish kelajagi buyuk mustaqil O‘zbekiton davlatini barpo qilishdir.

1991 yilning 31 avgustida O‘zbekiton respublikasining davlat mustaqilligi e’lon qilindi. Mamlakatimiz tinch parlament yo‘li bilan o‘zining

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma’ruzasi Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. – T., 1996, 48-49- betlar.

haqiqiy milliy davlatchiligiga erishdi. “O‘zbekiton respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunda respublikada ko‘p millatli aholining xohish-irodasi mustahkamlanib, buni umumxalq referendumi ham tasdiqladi. Mustaqillikka erishish xalqimizning hayotidagi buyuk hodisa bo‘ldi va bu tarixiy voqea davlatimiz yilnomasiga zarhal harflar bilan yozib qo‘yildi. 1 sentyabr O‘zbekiton respublikasining Mustaqilligi kuni deb e’lon qilindi va u mana, 17 yildirki, muqaddas bayram sifatida nishonlanmoqda.

Suverenitet – har qanday davlatning eng muhim belgilaridan biri. Shu sababli davlatimizning mustaqilligi, suvereniteti Konstitutsiyamizning 1-moddasidayoq: “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi”, – deya qonuniy ravishda belgilab qo‘yildi.

Davlatning fuqarolar oldidagi mas’uliyati demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridir. Davlat insonlarning yashashi, ishlashi, faoliyat yuritishi uchun qonun doirasida kerakli shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur. Shu bois ham davlat xalq irodasini ifodalamog‘i, uning manfaatlari, xohish-istaklariga xizmat qilmog‘i kerak. Bu masala Konstitutsiyamizning 2-moddasida: “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”, – deya belgilangan. Davlatimiz o‘zining islohotchilik faoliyatida xalq manfaatini himoya qilmoqda. Davlatimiz tomonidan bozor munosabatlariga o‘tish davridagi murakkab iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy jarayonlarning boshqarishda boshbodoqlikka, beboshliklarga yo‘l qo‘yilmaslik, aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvatlash kabilar amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Respublikamiz mustaqil davlat sifatida o‘zining mustaqil siyosatini yuritishi lozim. Bu mustaqil siyosatning asosiy yo‘nalishlari quyidagicha:

birinchidan, milliy davlat ma’muriy-huquqiy tuzilishini aniqlash. Ushbu qoida Konstitutsiyamizning to‘rtinchi bo‘limida o‘z ifodasini topgan;

ikkinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini belgilash. Konstitutsiyamizning beshinchi bo‘limi to‘lig‘icha ushbu masalalarga bag‘ishlangan;

uchinchidan, o‘z ichki va tashqi siyosatini yuritish. Konstitutsiyamizning 3-modda 17-moddalarida tashqi siyosatning huquqiy asoslari belgilab qo‘yilgan.

Istiqlol sari qo‘yilgan eng muhim qadamlardan biri 1989 yilning 21 oktyabrida ona tilimizga davlat tili maqomi berilishidir. Konstitutsiyamizning 4-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” deya davlatimizning insonparvarlik belgilaridan birini yaqqol aks ettirilgan. Konstitusiyamiz qonun yo‘li bilan o‘zbek tilini o‘z himoyasiga olishi ifodalangan. Ayni kunlarda unutilayozgan ona tilimizni tiklash yo‘lida faol sa’y-harakatlar qilinmoqda. Barcha ishlar o‘zbek tilida yuritilib, asarlar ona tilimizda yaratilmoqda. Shu bilan birga, o‘zbek yozuvini lotin alifbosida ifodalash yo‘li bilan biz uchun jahon madaniyati va axborot makoniga kira olish uchun keng imkoniyatlar ochildi.

O‘zbek xalqining, uning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifodalovchi vosita bo‘lgan o‘zbek tilining har tomonlama, izchil rivojlanishini ta’minlash, ushbu tilning davlat tilidek salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish umumxalq vazifasidir.

“O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari – bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega”ligi Konstitutsiyamizning 5-moddasida o‘z huquqiy ifodasini topgan.

Davlatimizning ramzlari – bayrog‘i, gerbi va madhiyasi O‘zbekiston xalqining shon-sharafi, g‘ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o‘zida mujassam etgan. Mana shu ramzlarni e’zozlash – o‘zining qadr-qimmatini, o‘z mamlakatiga va shaxsan o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash demakdir.[1]

Mustaqil O‘zbekistonning Davlat bayrog‘i 1991 yil 18 noyabrda Oliy Kengash tomonidan tasdiqlangan. Bayroqdagi havorang bo‘yoq – zangori osmon va musaffo suvning, yer osmondagi hayot manbalarining ramzidir. Amir Temur bobomizning davlat bayrog‘i ham shu rangda bo‘lgan.

Oq rang – tinchlik va poklik timsoli. Bayrog‘imizdagi bu rang yosh, mustaqil avlodimiz oshib o‘tishi lozim bo‘lgan dovonlardagi yo‘lning yorqin va farovon bo‘lishi ifodasidir.

Bayroqdagi qizil rang tirik jon, qon tomirida jo‘shib turgan hayotiy kuchning, barhayotlikning ramzi. Yashil rang esa tabiatning, gullab-yashnayotgan hayot va hosildorlikning timsolidir. Xalqimizning ko‘p asrlik an’analariga mos ravishdagi yarim oy va yulduzlar musaffo osmon, tinchlik ramzidir. O‘n ikki raqami azaldan xalqlarimiz orasida mu-

[1] I.A.Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. // O‘zbekiston: milliy istiqloli, iqtisodi, siyosati, mafkura. 1-tom. – T.: 1996, 84- bet.

kamallik timsoli bo‘lib kelgan. Shu sababli bayrog‘imizga o‘n ikki yulduzning tasviri tushirilgan.

O‘zbekistonning Davlat gerbi Respublika Oliy Kengashi o‘n uchinchi sessiyasida – 1992 yilning 2 iyulida tasdiqlangan. Uning markazidagi qanotlarini yoyib turgan Xumo qushi baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Gerbning yuqori qismidagi sakkiz qirrali yulduz O‘zbekistonning sobitligi va barqarorligi timsolidir. Uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz ifodalangan.

Quyosh tasviri – Davlatimiz hamda xalqimizning yo‘li hamisha nurli bo‘lishi uchun bildirilgan ezgu niyat ramzidir. Boshoqlar esa risqro‘zimiz bo‘lgan g‘allaning, mamlakatimizning iftixori bo‘lgan asosiy boyligimizning ramzi. Bug‘doy boshoqlari va paxta chanoqlarini davlat bayrog‘iga o‘xshash tasma bilan o‘rab qo‘yilganligi mamlakatimizda yashovchi xalqlarning ittifoqligi timsolidir.

Gerbimiz rangli tasvirda. Xumo qushi kumush rangda, quyosh, paxta, “O‘zbekiston” yozuvi tilla rangda. Tog‘lar havo rang, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda, davlat bayrog‘i tasvirlangan tasma to‘rt xil rangdadir.

1992 yil 10 dekabrida respublika Oliy Kengashi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi tasdiqlandi. Davlat madhiyasining she’rini O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozgan. Musiqasini esa taniqli san’at arbobi Mutal Burxonov bastalagan.

2200 yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy va navqiron Toshkent shahri O‘zbekiston Respublikasining poytaxtidir. Poytaxtimiz kundankunga yanada chiroy ochib, ko‘rkamlashib bormoqda. Unda uch million nafardan ortiq aholi yashaydi. Zamonaviy, salobatli binolar, A.Navoiy nomida milliy bog‘, Amir Temur nomidagi hiyobon “Istiqlol”, “Turkiston” saroylari, qator masjid-madrasalar, o‘quv yurtlari, bozorlar, mehmonxonalar, metro, ko‘priklar va yana ko‘p ajoyib obidalar poytaxtimiz ko‘rkini yanada oshiradi. Bularning xammasi yurtimizda suveren o‘zbek davlatchiligi asoslari izchillik bilan bunyod etilayotanligini bildiradi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Mustaqillik, Konstitutsiya, davlat suvereniteti, konstitutsiyaviy tarix, Davlat madhiyasi, Davlat bayrog‘i, Davlat ramzi, xalq hokimiyatchiligi, qonun ustuvorligi, tashqi siyosat, fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklar.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon va kim tomonidan qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ilmiy-amaliy ahamiyati nimada?
4. O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tarixini gapirib bering.
5. Davlat ramzlari qachon qabul qilingan?
6. Davlat bayrog‘idagi va gerbidagi ranglarning ma’nosini aytib bering.

II bob. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 1992 YILGI KONSTITUTSIYASINING VUJUDGA KELISHI, UNING DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

2.1. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e’lon qilinishi

“Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko‘p jihatdan Konstitusiyamiz qanday bo‘lishiga bog‘liq”.[1]

1989 yilda O‘zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasiga rahbar bo‘lib kelgan Islom Abdug‘anievich Karimov O‘zbekiston xalqining istiqlol haqidagi ko‘p yillik orzularini amalga oshirdi. Mamlakatimizni mustaqillikka erishuvida, avvvalo, 1990 yil 24 mart kuni sobiq ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo‘lib Prezidentlik lavozimining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Respublikamizda Prezidentlik lavozimining joriy etilishi mustaqillik g‘oyalarining tezkorlik blan amalga oshishi uchun zamin yaratdi. O‘zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1990 yilning 20 iyunida Oliy Kengash yig‘ilishi chaqirilib, “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qilindi. Bu o‘zbek davlatchiligi tarixida o‘z taqdirini o‘zi belgilash haqidagi birinchi hujjat edi. Ushbu Deklaratsiyaga ko‘ra, o‘zbek xalqining davlat boshqaruvida har bir millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini va farovon hayot kechirishini oliy maqsad deb o‘z zimmasiga olgan holda xalqaro huquq qoidalariga asoslanib, o‘zining “Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi”ni e’lon qildi.

1991 yilning 31 avgust kunida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasi chaqirilib, “Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti” e’lon qilindi va bu Bayonotda O‘zbekistonning mustaqilligi, ozod, suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasini tashkil etilganini e’lon qilindi.[2]

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya” va “Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash Bayonoti”ga asoslangan holda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qildi. Bu qonunda O‘zbekiston

[1] I.A.Karimov. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. – T.: “O‘zbekiston” 1992 yil. 44-bet.
[2] Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Oliy Kengash Bayonoti “Xalq so‘zi”, 1991 yil, 2-iyun.

Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birlikga mustaqil demokratik davlat deyiladi. Shuningdek, ushbu qonunda O‘zbekiston Respublikasi xalqining suverenligi, davlat hokimiyati uning xohish-irodasiga muvofiq vakillik organlari tizimi orqali amalga oshirilishi, hududi va chegaralari daxlsiz va bo‘linmasligi, u O‘zbekiston xalqining roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin emasligi prinsiplari mustahkamlandi. Bundan tashqari, Davlat hokimiyat idoralarining tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tartibiga asoslanishi belgilandi. Respublika Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va muqobil xizmatni tashkil etish mustaqil davlatning asosiy belgisi sifatidagi huquqiligi ko‘rsatildi. Boshqa barcha qonun-qoidalar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishda inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asosan inson qadr-qimmati ulug‘lanishini xamisha nazarda tutishi, o‘z taraqqiyot yo‘lini, o‘z davlat ramzlari va davlat tilini o‘zi belgilaydi, deya e’lon qilindi. Respublikamiz xalqi bu xabarni zo‘r quvonch bilan kutib oldilar.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining vujudga kelishi, davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tayyorlanishiga, asosan, ikki omil sabab bo‘ldi. Bularning biri, jamiyatning bozor munosabatlari tomon tutgan yo‘li, yangi taraqqiyotdagi umumiy qonuniyatlar va yo‘nalishlarga muvofiq ravishda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kira borishidir. Ayni paytda, O‘zbekiston avval boshdanoq bozorga birdan-bir maqsad sifatida emas, balki jamiyatning jadal rivojlanishini ta’minlovchi vosita sifatida qaradi. Bozor munosabatlari qonunlariga tayangan holda respublika va xalqning butun imkoniyatlarini ishga solib, zamonaviy madaniyatli-ma’rifatli mamlakatlar safidan munosib o‘rin olish ko‘zda tutildi. Mulkning turli shakllariga munosabatni o‘zgartirmasdan, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni demokratlashtirmasdan, Konstitutsiya va qonunlarni qayta ko‘rib chiqmasdan turib bozor iqtisodiyotiga o‘tib bo‘lmasdi. Bu yo‘lda Konstitutsiya qonunchilikning asosi bo‘lib xizmat qilishi zarur edi. Taraqqiyotning yangi sharoitlarini, davr xususiyatlarini hisobga olgan Konstitutsiya negizidagina bozor iqtisodiyotidan kelib chiquvchi ijtimoiy munosabatlarga o‘tish mumkin bo‘lardi. Ya’ni Konstitutsiya demokratik huquqiy davlatni barpo qilish uchun huquqiy poydevor yaratardi...

Respublika Prezidenti I.A.Karimovning 1992 yilda nashr etilgan "O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li" kitobi ana shu yo‘lni ko‘rsatuvchi dastur bo‘ldi. O‘zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilinganligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish va qabul qilishni taqozo etgan ikkinchi omil bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish zarurligi haqidagi g‘oya XII chaqiriq Oliy Kengashining 1990 yil mart oyida bo‘lib o‘tgan birinchi sessiyasida tilga olingandi.

Oliy Kengashning 1990 yil iyun oyida bo‘lib o‘tgan ikkinchi sessiyasida I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasi tashkil etildi. Oliy Kengashning o‘ninchi sessiyasida bu komissiya qisman yangilandi. Konstitutsiya 1991 yil aprel oyida bevosita Konstitutsiya loyihasi ustida ish boshladi. 1991 yilning oktyabr-noyabr oylarigacha loyihaning 158 moddadan iborat dastlabki varianti tayyorlandi. Loyihaning ikkinchi ishchi varianti 137 moddadan iborat bo‘ldi. Matbuotda e'lon qilinishi oldidan u yana sayqallanib, 127 moddaga keltirilib, 1992 yilning 26 sentyabrida loyiha matbuotga e'lon qilindi va umumxalq e'tiboriga havola etildi.

1991 yilning avgustida yer kurrasi xaritasida yangi mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. 1992 yilning 8 dekabrida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiya yangi mustaqil demokratik suveren O‘zbekiston davlatining birinchi Konstitutsiyasi bo‘ldi. Konstitutsiyamizning o‘ziga xos xususiyati – mustaqil davlat mavjudligi faktidan kelib chiqib yaratilganligidir. Konstitutsiyamizdagi 128 ta moddaning hammasi ham mustaqillik g‘oyasi bilan sug‘orilgan.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi

"Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantiradi va mustahkamlaydi. Bu asosiy qonun har tomonlama va chuqur o‘ylangan umumxalq muhokamasidan keyin demokratik yo‘l bilan qabul qilinadi. Umumiy g‘oyasiz bizning ko‘p millatli mamlakatimizda mustahkam ma'naviy makonini yaratish mumkin emas. Konstitutsiya bizga inson huquqlari, ozodlik, barqarorlik va taraqqiyot majmuini ifodalaydigan demokratik, huquqiy va adolatli davlatni qanday qilib qurish yo‘llarini ochib berdi".[1]

[1] I.A.Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: "O‘zbekiston", 1996, 85- bet.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. Asosiy qonunimiz o‘z ichki tuzilishi bilan jahon konstitutsiyaviy amaliyotiga to‘liq mos keladi.

Konstitutsiyamizning asosiy mantiqiy tuzilishi inson-jamiyat-davlat tarzidadir. Uning birinchi bo‘limida mustaqil O‘zbekiston davlatining asosiy konstitutsiyaviy prinsiplari ko‘rsatilgan. Bular davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda tashqi siyosatimiz tamoyillaridir.

Birinchi bo‘lim konstitutsiyaviy tuzumning asosiy pritsiplari yig‘indisidan iborat bo‘lsa, ikkinchi bo‘lim inson huquqlari to‘g‘risidagi o‘zbek xartiyasidir, ya’ni inson huquqlarining yaxlit va keng tizimidir. Bu bo‘limning davlat huquqlari bo‘limidan oldin berilganligining sababi, huquqlarni insonga davlat in’om qilmaydi, balki fuqaro o‘ziga ozodlik tomonidan berilgan ajralmas tabiiy huquqlar majmuidan ongli ravishda va mas’uliyatni his qilgan holda foydalanadi degan mantiqdan kelib chiqqan.

“Jamiyat va shaxs” deb nomlangan uchinchi bo‘lim jahondagi boshqa birorta Konstitutsiyada yo‘q. Bu bo‘limning asosiy maqsadi fuqa-rolik jamiyatining an’analarini tiklash, ijtimoiy uyushmalar va munosa-batlarni huquqiy jihatdan tartibga solish va ularning rivojlanishini ta’-minlashdan iborat.

Konstitutsiyamizning to‘rtinchi bo‘limi ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishiga bag‘ishlangan. Respublikamiz viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalardan iborat ma’muriy-hududiy tuzilishga ega. Buning tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi ham kiradi. Bu suveren davlatning konstitutsiyaviy maqomiga va O‘zbekiston bilan o‘zaro munosabatlariga maxsus 17-bob bag‘ishlangan.

Beshinchi bo‘lim davlat hokimiyati idoralarini tashkil etish haqida. Unda hokimiyat vakolatlarini taqsimlash, ya’ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralarining konstitutsiyaviy maqomi muayyan tartibda mustahkamlangan. Davlatimizning markaziy idoralari: Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va Xo‘jalik sudlari, Prokuratura, mahalliy davlat hokimiyati idoralarining konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan. Bundan tashqari, ushbu bo‘limda saylov tizimining prinsiplari, moliya va kredit, xavfsizlik va mudofaa masalalari ham konstitutsiyaviy tartibga solish doirasiga kirgan.

Oltinchi bo‘lim Konstitutsiyani o‘zgartirish muammosiga bag‘ishlangan va huquqiy nuqtai nazardan Asosiy Qonunning barqarorligini

ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi, uning fuqarolar tinchligiga milliy va ijtimoiy totuvlikka; shaxs erkinligi va saylov erkinligiga; siyosiy barqarorlikka; farovonlik va iqtisodiy o'sishga; davlatning odamlar oldidagi o'z burchini bajarishga erishishga qaratilgan.

2.4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish tartibi

"O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi jami deputatlarining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi".[1]

Sharoit taqozosi bilan har qanday qonun yoki Konstitutsiya me'yor-lariga o'zgartirish kiritilishi mumkin. Chunki abadiyatga mo'ljallangan me'yorlar bo'lmaydi. Biroq davlat, xalq, fuqarolar huquqiy normalar-ning barqarorligidan manfaatdor, chunki barqaror huquqiy tartib-qoida mustahkam huquqiy sog'lom ongni shakllantiradi. Asosiy qonunlar tarkibiga kiruvchi Konstitutsiya normalarini o'zgartirish yoki yangilash oddiy qonunlarni o'zgartirishdan qisman farq qiladi va u jahon tajribasida qabul qilingan qoidadir.

Oddiy qonunlarning qabul qilinishi uchun Oliy Majlis deputatlarining ko'pchilik ovozi talab etiladi. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish uchun esa yuqorida aytib o'tganimizdek, Oliy Majlisning jami deputatlarining kamida uchdan ikki qismi-ko'pchiligi ovoz berishi shart.

Bundan tashqari: «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin» (128-modda).

Bu modda konstitutsiyaviy normalarning barqarorligini mustahkamlash, obro'sini ko'tarish maqsadida Konstitutsiyamizga kiritilgan. Konstitutsiyamizning 83-moddasida "Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya-

[1] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, oltinchi bo'lim, 127-modda. – T.: "O'zbekiston", 2008.

viy sudi, Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi sub’yektlaritomonidan qonun loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi”. Bundan shu narsa anglashiladiki:

1. Qonunchilik tashabbusi huquqi-subektlarning qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi (dastlabki matnlar)ni kiritish huquqidir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qonunchilik tashabbusi huquqi sub’yektlarining doirasini aniq belgilab qo‘ygan. Ana shu sub’yektlargagina qonun chiqaruvchi organ ko‘rib chiqishi uchun qonun loyihalarini kiritish huquqi berilgan.

Ushbu huquqqa ega bo‘lmagan davlat organlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari, alohida shaxslar faqat qonunchilik tashabbusi huquqiga ega shaxslar orqali chiqib, o‘z takliflarini kiritishlari mumkin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida quyidagilar qonunchilik tashabbusiga egadirlar:

– O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;

– o‘z davlat hokimiyatining oliy organi, ya’ni Qoraqalpog‘iston respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari;

– O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi;

– Sud organlari – Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo‘jalik sudi;

– O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori.

3. Sanab o‘tilgan sub’yektlarning barchasi to‘la qonunchilik tashabbusi huquqiga ega, ya’ni ularga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ish yuritishiga doir har qanday masala bo‘yicha qonun loyihalarini kiritish konstitutsiyaviy huquqi berilgan. Qonun loyihasini Oliy Majlisga kiritishdan oldin uni tayyorlash bo‘yicha juda katta ish qilinadi, ya’ni buning uchun qoida tariqasida turli muassasalar va mutaxassislar jalb qilinadi, qonun loyihalari ustida ishchi guruhlari ishlaydi.

4. Qonun loyihasini ko‘rib chiqishga tayyorlashda hujjatlar paketi to‘planadi:

– qonun loyihasining matni;

– uni qabul qilish zarurligining asosi;

– moliyaviy va iqtisodiy asoslab berish, ya’ni bo‘lajak qonunni amalga oshirishga harakatlar kerak bo‘lish-bo‘lmasligi;

– bo‘lajak qonunning qo‘llanishi mumkinligi uchun yangi me’yoriy-huquqiy xujjatlarni ishlab chiqarishning zarurligi va boshqalar.

Shunga o‘xshash xamma masalalarni ko‘rib chiqish uchun qonun loyihasi bo‘yicha Oliy Majlis mas’ul qo‘mita tayinlaydi. Mas’ul qo‘mitaning qaroridan keyin qonun loyihasi muhokama uchun Oliy Majlisning boshqa qo‘mitalari va komissiyalariga, tegishli vazirliklarga ilmiy ekspertizaga yuboriladi. Va ularning xulosalaridan keyingina matbuotda e’lon qilib, xalqning xohish-irodasi hisobga olingan holda qabul qilinadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Istiqlol, Prezidentlik lavozimi, Deklaratsiya, xalqaro huquq qoidalari, Oliy Kengash, sessiya, mustaqil demokratik davlat, mustaqillik g‘oyasi, xartiya.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasining vujudga kelishi, uning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni nimalardan iborat?
2. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi qachon va kim tomonidan e’lon qilindi?
3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining vujudga kelishi, davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni hamda ahamiyati haqida gapirib bering.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qanday tuzilgan (necha bo‘lim, bob va moddalardan iborat?)
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qay tartibda o‘zgartirish kiritiladi?

III bob. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 1992 YILGI KONSTITUTSIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI

3.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda jamiyat va shaxs

Jamiyat bilan shaxs, shuningdek, shaxs bilan jamiyat o‘zaro aloqadorlikda, ta’sir va aks ta’sirda bo‘lishi ob’yektiv qonuniyatdir.

Jamiyat tarraqiyoti kelajakka tomon qanchalik ilgarilab, rivojlanib, takomillashib borsa, unda shaxsning roli va ahamiyati shunchalik ortib va faollashib boraveradi. Chunki jamiyat tarraqiyoti shaxsning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshiradi, uning barcha sohalarda faol ishtirokini ta’minlaydi.

Odamning shaxs sifatidagi asosiy belgilari va xususiyatlari ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, rivojlanib boradi. Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi sababli u faqat jamiyatda rivojlanadi. Uning butun hayoti jamiyatda va undagi turli xildagi munosabatlar asosida kechadi.

Har bir shaxs jamiyatning ajralmas bo‘lagidir. Binobarin, uni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy munosabatlardan ajratib bo‘lmaydi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar ta’sirida, jamiyat yaratib bergan imkoniyatlar asosida shakllanib va rivojlanib, kamolotga erishib borar ekan, demak, uning xatti-harakatlari, qilmishi, fe’l-atvori, his-tuyg‘ulari, tasavvur va tushunchalarini uni qurshab turgan ijtimoiy muhitdan, jamiyatdan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan ayiricha holda tasavvur etib bo‘lmaydi.

Kishilarning madaniy-ma’naviy qiyofasi o‘z atrofidagilarga munosabati, shaxsiy-individul onggi, o‘zi yashab turgan jamiyatning xarakterining, mazmun-mohiyati, jamiyatning oddiy va ma’naviy boyligi va imkoniyatlariga, tevarak-atrofidagi tabiiy-iqtisodiy va ijtimoiy muhitga davr, zamonga, tabiiy jarayonlar va qonuniyatlarga uzviy bog‘liqdir.

Ijtimoiy munosabatlar murakkab xarakterga ega bo‘lib, ular iqtisodiy va siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy aloqalar, ahloqiy oilaviy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Jamiyatning moddiy-iqtisodiy negizlari deganda odamlarning, fuqarolarning, xalqlar, elatlar va millatlarning yashashlari, amaliy faoliyat ko‘rsatishlari, erkin kamol topishlari, qobiliyat, iqtidor va iste’dodlarining ro‘yobga chiqarishlari, ilm-fan, adabiyot va

san'at, madaniyat bilan shug'ullanishlari, bir-birlari bilan o'zaro muloqotlari, umuman aytganda, tirikchiliklari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, yoqilg'i, transport vositalari va boshqa xilma-xil narsalar, mahsulotlar, boyliklarni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida tarkib topadigan munosabatlar nazarda tutiladi.

Jahon tarixiy tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotning o'ziga asoslangan jamiyat va davlatning tag zamini mo'rt bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ma'naviy-ma'rifiy kamolot, o'sish-o'zgarish, rivojlanish bilan bog'langandagina jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti tezlashadi va yuksak samaralar beradi. Ijtimoiy hayotda tub burilish va o'zgarishlar ana shunday sharoitlarda sodir bo'ladi. Buning aksicha bo'lsa, ya'ni ma'naviyatga birinchi darajali e'tibor berilmasa, mamlakatda katta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy inqirozlar sodir bo'ladi. Jamiyat hayotidagi barcha inqirozlar-o'pirilishlarning tomiri ham kishilarning madaniy-ma'naviy kamoloti darajasi va holatiga borib taqaladi.

O'zbekiston Respublikasida davlatning iqtisodiyot sohasidagi asosiy maqsadi, asosiy yo'nalishlari Prezident Islom Karimovning asarlarida ilmiy-nazariy asoslab berilgan. Uning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida bu haqda quyidagilar bayon etilgan:

– "Milliy boylikning ko'payishini, respublikaning mustaqilligini, odamlarning munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish;

– ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni butun choralar bilan rivojlantirish, tadbirkorlikka erkinlik berish, tajribalar va iqtisodiy yangiliklarni rag'batlantirish, iqtisodiy omillar vositasini ishga solish, tayyorga ayyorlikni batamom tugatish;

– mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlash va barcha mulkchilik shakllari-shirkat, davlat, xususiy hamda boshqa mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirish. Shu asosda insonning mulkdan begonalashtirilganiga barham berish;

– iqtisodiyotni o'ta markazlashtirmaslik hamda yakkahokimlikka barham berish, korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirish. Davlatning xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechish. Buyruqbozlik bilan o'z hukmini o'tkazib, tazyiq qilish, hamma narsani to'ralarcha belgilab, cheklab qo'yish kabi o'zini oqlamagan eski usullarni qat'iyan tugatish. Iqtisodiy vositalar ustun mavqeni egallaydi".[1]

[1] Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: 1-jild, "O'zbekiston". 1996, 46-47- betlar.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining moddiy-iqtisodiy asosi uning mulkidir. Belgilab qo‘yilganidek, respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, barcha ma’naviy boyliklar O‘zbekiston Respublikasining mulki hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi Asoslari to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasiga muvofiq, davlat mulki ob’yektlari, shuningdek, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarning, shu jumladan, ittifoq qaramog‘ida bo‘lib kelgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mol-mulki, ularning asosiy ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va oborot yoki boshqa fondlari hamda o‘zga mol-mulki, ichki kommunikatsiya, transport, aloqa va energetika tizimlari, respublika kartografiyasi va geodeziyasi O‘zbekiston Respublikasining mulkidir.

Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida asosiy o‘rin jamiyat va shaxsga, jamiyatning iqtisodiy negizlari masalasiga qaratilgan. Chunki mustaqil davlatimizning maqsadi va vazifalari xalq irodasini, inson manfaatlarini ko‘zlab, uning moddiy va madaniy talablarini tobora va to‘liq qondirish, ayniqsa, shaxs huquqlari va erkinliklari, burchlarini amalga oshirish kafolatini yaratish va uni muhofaza etishdir.

Bosh Qomusimizning “Jamiyat va shaxs”ga bag‘ishlangan uchinchi bo‘limi, o‘n ikkinchi bobi “Jamiyatning iqtisodiy negizlari” bilan boshlanadi. Bu yerda mulk to‘g‘risida, uning har xil shakllari haqida to‘xtalib, barcha mulklar qatori xususiy mulkning daxlsiz, davlat himoyasida ekanligi ta’kidlangan. 53-moddada “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin,” – deya jamiyatning iqtisodiy negizlari qonun yo‘li bilan kafolatlanganligi aniq-ravshan belgilab qo‘yilganligi aniq-ravshan belgilab qo‘yilgan.

Ko‘rinib turganidek, jamiyatimizning iqtisodiy negizini bozor munosabatlarining rivojlantirishga qaratilgan xilma-xil mulk shakllari tashkil etadi.

Mustaqillik tufayli O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning samarali amal qilishi va xalq farovonligini o‘sishi uchun imkoniyat beruvchi har qanday mulkchilik bo‘lishiga imkoniyat yaratildi. Endilikda Vatanimiz o‘z mulkidan foydalanish, uni tasarruf etish, unga egalik huquqiga ega. Mulk egalarining huquqlarini davlat himoya qiladi. Sobiq ittifoq davrida oltin zaxiralari, konlar, boshqa qimmatbaho metallar va toshlar qazib chiqariladigan, qayta ishlanadigan va saqlanadigan joylarni ko‘rish huquqidan xalqimizgina emas, hattoki rahbarlarimiz ham butunlay mahrum qilingan edi. Hamma narsa xalqdan sir saqlanardi. O‘zbekiston Davlat mustaqilligi bularning hammasiga chek qo‘ydi.

Mustaqillik tufayli mulkchilikning xilma-xil shakllarining huquqiy tengligi qaror topti. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulk to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida O‘zbekiston Respublikasida mulkning quyidagi shakllarda bo‘lishi ta’kidlangan:

– fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulki;

– jamoa (shirkat) mulki, shu jumladan, oilaviy, mahalla, kooperativ mulklari, ijaraga olingan korxona mulki, aktsiyadorlar jamiyati, davlat korxonasi jamoasining, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar konsern (konsortsium)-larning mulki, turli xo‘jalik birlashmalari va uyushmalari mulki, yuridik shaxs hisoblangan boshqa jamoalar mulki;

– Respublika, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, ma’muriy hududiy tuzilmalar (kommunal) mulkidan iborat bo‘lgan davlat mulki;

– aralash mulk;

– qo‘shma korxonalar, ajnabiy fuqarolar, tashkilotlar va davlat, shuningdek, ajnabiy yuridik shaxslar mulki.

U turli mulk, ob’yektlarning mulk egasiga tegishligini belgilaydi.

Mulk ommaviy va xususiy ko‘rinishlarga ega.

Konstitutsiyada yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi, boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik deb e’tirof etiladi, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ular davlat muhofazasida ekanligi ta’kidlanadi.

Qonunda belgilab qo‘yilganidek, respublikamizda barcha mulk shakllari davlat tomonidan bab-baravar muhofaza etiladi va ularning rivojlanishiga teng shart-sharoitlar yaratiladi. Mamlakatimizda fuqarolarning har qanday iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish erkinligi ta’minlanadi, ularga biror bir shaxsning o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sho‘ro tuzumi davridagi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasida mamlakatdagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat deb hisoblanardi,

davlat manfaati birinchi o‘ringa qo‘yilardi, fuqaro, shaxs manfaati keyinga surilib, inson manfaatlaridan davlat manfaatlarining ustunligi qonunlashtirilib qo‘yilgandi. Bu narsa fuqarolarning davlat oldida qaram va mute bo‘lishiga siyosiy va iqtisodiy asos bo‘lib xizmat qilardi. Eski totalitar tuzum xususiy mulkka, uning egalariga qarshi tish-tirnog‘i bilan kurashdi. Hususiy mulkdan odamlarni butunlay mahrum qildi, begonalashtirdi. Endi esa ”O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xususiy mulk bilan bog‘liq masalaga muhim o‘rin ajratgan... Konstitutsiya xususiy mulkning huquqiy mavqeini nihoyat darajada kuchaytirgan. Shu bilan birga, gap xususiy mulkning boshqa mulk shakllariga nisbatan ustuvor bo‘lishi to‘g‘risida emas, balki uning boshqa mulk shakllariga nisbatan teng huquqli maqomga egaligi to‘g‘risida boradi. Sobiq totalitar davlati (asosli ravishda) xususiy mulkdan qo‘rqar edi. Hozirgi demokratik davlat barcha mulk shakllarini tan oladi va himoya qiladi”.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir hamda mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkdan mahrum etilishi mumkin.

Asosiy Qonunda mulk huquqiga alohida e’tibor berilgan. “Mulk huquqi ayrim shaxslar yoki jamoaga tegishli moddiy boyliklarni, shuningdek, mulkchilikka oid iqtisodiy munosabatlarni qo‘riqlash va tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar yig‘indisidir. Mulk huquqi mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish kabi sub’yektlar huquqlaridan iborat. Fuqarolik kodeksiga binoan mulk huquqining sub’yektlari fuqarolar va yuridik shaxslar hisoblanadi. Mulkdor qoidalarga rioya qilgan holda hamda boshqa shaxslar bilan muhofaza qilinadigan huquq va manfaatlarini buzmagan holda o‘z hohshiga ko‘ra o‘z mulkini boshqarish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog‘liq vakolatlarni amalga oshirishi mumkin”.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “Mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.”

---

[1] U.Tadjixonov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyaviy huquqi. – T.: “Sharq”, 2001, 306-bet.

[2] A.Saidov., U.Tadjixonov, H.Odilqoriev. Davlat va huquq asoslari. Darslik. – T.: “Sharq”, 2002, 113-bet.

Ko‘rinib turganidek, har bir mulkdor mazkur mol-mulkini mulk sifatida egallab olgandan so‘ng uni o‘z xohishicha tasarruf etishga, ya’ni sotishga, vasiyat qilib qoldirishga, hadya etishga, ijaraga berishga, undan garov sifatida foydalanishga haqlidir.

Qonunlarimizda belgilab qo‘yilganidek, mulkdor nafaqat huquqlarga, balki majburiyatlarga ham ega. Ya’ni u o‘ziga tegishli mol-mulkini saqlash, soliqlarni vaqtida, to‘lash mol-mulkining bexosdan nobud bo‘lishi yoki ziyon etkazishi bo‘yicha butun mas’uliyatni zimmasiga olish majburiyatiga ega.

Bosh Qomusning 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazkur moddasida birinchidan, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar birinchi marta umummilliy boylik deb e’lon qilinganligini, ikkinchidan, barcha tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish zarurligi, uchinchidan esa, qayd etilgan barcha tabiiy zaxiralar davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qo‘yilganligini alohida ta’kidlashga to‘g‘ri keladi.

Butun insoniyat jamiyatida bo‘lgani kabi mustaqil O‘zbekiston uchun ham yer-ona zamin jamiyat boyliklarining, noz-ne’matlarning manbai, bitmas-tuganmas hazinadir. “Markaziy Osiyo sharoitida yer Alloh taoloning bebaho in’omidir. U tom ma’noda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Bevosita dehqonchilik bilan bog‘langan oilalarnigina emas, balki ma’lum bir tarzda qishloq xo‘jaligi bilan aloqador barcha tarmoqlar va uning ne’matlardan bahramand bo‘layotgan respublikaning barcha aholisi farovon turmush kechirishi uchun moddiy negiz yaratadi. Bu hol O‘zbekistonda ayniqsa, yaqqol namoyon bo‘lmoqda”.[1]

Umummilliy boyligimiz bo‘lgan yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosini, boshqa tabiy zaxiralarni e’zozlash, isrof bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni ekologik jihatdan huquqiy muhofaza qilish dunyodagi barcha xalqlar singari o‘zbeklar va o‘zbekistonliklarning ham qon-qoniga singib ketgan. O‘zbek milliy odatlari bo‘yicha, ona zaminni sevmaslik odobdan emas, chunki Yer insonni kiydiradi, to‘ydiradi qancha sahovati, marhamati bo‘lsa, undan ayamaydi. U insonning bir yaxshiligiga ming yaxshilik bilan javob qaytaradi.

---

[1] Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O‘zbekiston”, 1997, 116-117-betlar.

Inson tabiat bilan, yer bilan tirik. Ana shu ma'noda Yurtboshimizning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarning chuqurlashtirish yo'lida"[1] asarida bayon etilgan mana bu so'zlarda juda katta falsafiy ma'nomazmun bor: "Ona zaminimiz-boyligimizning, mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir. Buyuk ajdodlarimizning ruhi nurafshon qilib turgan, bizga ilhom berayotgan va yegnimizni but, qornimizni to'q qilayotgan shu muqaddas zaminga muhabbat bamisoli bitmas-tuganmas chashmadek qaynab turibdi. Inson butun vujudi bilan shu yurtga ta'zim qiladi. Shodiyona damlarida, musibatli onlarda ham biz undan madad olamiz, u bizga yangidan kuch beradi, yangi umidlar bag'ishlaydi. Ulkan madaniy meros maskani bo'lgan zaminimizda ko'pdan-ko'p mustaqil tsivilizatsiyalar o'z qadriyatlarini avloddan avlodga o'tkazib, zaminlarning chambarchas aloqasini, ma'naviy-madaniy qadriyatlar davomiyligini vujudga keltiradi".[2]

3.2. Jamoat birlashmalari va ularning jamiyat hayotidagi o'rni

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida jamoat birlashmalarining tushunchasi berilgan. Unda aytilishicha, "O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodasini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir".

Asosiy Qonunning 56-moddasiga binoan, "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi".[3]

O'zbekiston fuqarolariga o'z faoliyatlarini amalga oshirish, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish uchun keng ko'lamda konstitutsiyaviy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 34-moddasi, birinchi qismiga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga,

[1] Islom Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995.
[2] Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, – T.: "O'zbekiston", 1996, 177-bet.
[3] O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharx. – T.: "O'zbekiston", 2001, 293-bet.

siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar...”

Jamoat birlashmalari tasodifiy ravishda emas, balki muayyan sabablar, hayotiy zaruriyat va ehtiyojlar asosida yuzaga keladi. “Jamoat birlashmalari fuqaroviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; kasbkor va havaskorlik manfaatlarini qondirish; ilmiy-texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish va sport ishlarini o‘tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish; xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi”.[1]

Jamoat birlashmalari qonun oldida tengdirlar. Ular davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining tuzilishida qatnashadi, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi, ommaviy axborot vositalarini tashkil qiladi.

Jamoat birlashmalari davlatdan mustaqil bo‘lgan, alohida faoliyat yuritadigan va ayni vaqtda davlat institutlariga ta’sir o‘tkaza oladigan, davlatning ijtimoiy hayotga, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvidan muhofaza qilishga yo‘naltirilgan tashkilotlardir. Jamoat birlashmalarining davlatga nisbatan mustaqilligi quyidagilarda ko‘rinadi: birinchidan, ular o‘z ichki va tarkibiy tuzilishi hamda faoliyatining yo‘nalishlarini mustaqil belgilaydilar; ikkinchidan, o‘z irodalarini o‘zlari ifoda etadilar; uchinchidan, ular o‘z ustav (nizom)lari vositasida tashkilot a’zolarining huquq va burchlarini mustaqil belgilaydilar; to‘rtinchidan, o‘z mulki va mablag‘lariga qarab tasarruf etadilar.[2]

Ob’yektiv zaruriyat asosida vujudga kelgan jamoat birlashmalari o‘zlarining tuzilishi, funktsiyalari, maqsad va vazifalariga ko‘ra bir-birlaridan farq qiladilar. Lekin ularning hammasiga xos bo‘lgan umumiy belgilar ham mavjud. Jamoat birlashmalarining maqsadlari “O‘zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida aniq belgilab berilgan. Unga ko‘ra jamoat birlashmalari:

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharh. – T.: “O‘zbekiston”, 2001, 294-bet.

[2] Qarang. U.Tadjixonov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyaviy huquqi. –T.: “Sharq”, 2001, 400-bet.

– fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilish;

– fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish;

– kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish;

– ilmiy texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish;

– aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish;

– madaniy-ma’rifiy, fizkultura-sog‘lomlashtirish va sport ishlarini o‘tkazish, tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish;

– vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi;

– xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash;

– ma’naviyat, axloqiylikni qayta tiklash;

– xalqlarning madaniy merosi va milliy boyligi bo‘lgan san’at asarlarini izlab topish;

– qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san’atni bilish hamda ko‘paytirish;

– ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste’dod va qobiliyatlarini namoyon etish maqsadida tuziladi.

Kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, faxriylar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma’rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, jamg‘armalar va fuqarolarning boshqa birlashmalarining har biri mustaqil tashkilot sifatida jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Bu tashkilotlarning har biri fuqarolarning muayyan guruhlarining manfaatlarini himoya qiladi.

Jamoat birlashmalari o‘z maqsad va vazifalariga ko‘ra mamlakatimizda ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan siyosatda bevosita qatnashadi. Ular davlatdan farqli ravishda butun jamiyat nomidan emas, balki uning u yoki bu qismi nomidan ish ko‘radi. Bu tashkilotlar davlat ishlarini boshqarishda, siyosiy, xo‘jalik, ta’lim-tarbiya, maorif, ijtimoiy-madaniy masalalarni hal etishda, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishda, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishda qatnashadi. Jamoat birlashmalari birinchi navbatda o‘z a’zolarining mafaatlarini himoya qiladi.

Jamoat birlashmalari tizimida kasaba uyushmalari eng ommaviy, eng ta’sirchan tashkilotlardan biridir. Ular ko‘ngilli jamoat tashkiloti bo‘lib, saflarida turli kasb bilan shug‘ullanuvchi, jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etuvchi kishilar birlashgan. Kasaba uyushma-

lari jamiyat hayotida katta mavqega ega.

Kasaba uyushmalari moddiy ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko‘rsatish va madaniy-ma’naviy sohalarda bajaradigan faoliyatlari tufayli fuqarolarning eng yirik tashkilotlaridan hisoblanadi. Bu tashkilot o‘z a’zolarining mehnat qilish huquqini himoya etadi, ularga tegishli mehnat sharoitlari yaratib berilishi va bajarilgan ishga munosib haq to‘lanishi ustidan g‘amxo‘rlik qiladilar. Korxona, muassasa va tashkilotlarda mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi.

Kasaba uyushmalari hozirgi paytda mamlakatimizda o‘z saflariga fuqarolarning har xil qatlamlarini birlashtirgan bo‘lib, o‘z a’zolarining umumiy maqsad bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa manfaatlarini amalga oshirish uchun izchil harakat qilmoqda, shuningdek, mehnat jamoalarida intizomni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, tashabbuskorlikni avj oldirish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirishga etakchilik qilayotir. “Kasaba uyushmalari o‘z faoliyatlarida davlat boshqaruv idoralaridan, xo‘jalik idoralaridan, siyosiy va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqildirlar, ular oldida hisobdor emaslar va ular tomonidan nazorat qilinmaydilar. Mazkur uyushmalarning huquqlarini cheklaydigan yoki shu huquqlarning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiladigan tarzdagi har qanday aralashuv man etiladi.

Kasaba uyushmalari o‘z nizomida belgilangan maqsadlarga va vazifalarga muvofiq faoliyat yuritadilar. Ular o‘z nizomlarini mustaqil ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar, uyushma ichki tuzilishini belgilaydilar, rahbar organlarini saylaydilar, o‘z faoliyatlarini tashkil etadilar”.[1]

Siyosiy partiyalar jamiyatning muayyan ijtimoiy tabaqalarining faol namoyandalarini birlashtiruvchi, siyosiy hayotda bevosita ishtirok etish orqali o‘z manfaatlarini ifodalovchi siyosiy tashkilotdir. Ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakilliklari ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 1999 yil 26 dekabrdagi “Siyosiy partiyalar haqida”gi qonunida aniq belgilab qo‘yilgandek, siyosiy partiyalar – bu umumiy mafaatlar, maqsadlar va ideallar asosida birlashgan va davlat hokimiyatining qonuniy yo‘l bilan egallashga yoki uni amalga oshirilishiga hal qiladigan tarzda ta’sir qilishga intiluvchi jamiyatning faol va tashkillashgan qismidir.

Siyosiy partiyalar aholining axboroti uchun tayyorlanadigan dastur hujjatlari va nizomiga ega bo‘ladi.

---

[1] U.Tadjixonov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyaviy huquqi. – T.: “Sharq”, 2001, 406-bet.

Siyosiy partiya tashkil etish huquqi Konstitutsiyaning 34-moddasida mustahkamlangan. Asosiy Qonunning "Siyosiy birlashmalar" deb atalgan sakkizinchi bobi 57-moddasi siyosiy partiyalarning Konstitusiyaga qarshi xatti-harakatlari taqiqlanadi, deb ta'kidlangan bo'lsa, 58-moddaning ikkinchi bandida esa davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi, deb belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaga binoan, "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlar-ning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar..." (60-modda).

Siyosiy partiyalar respublika Oliy Majlisi, xalq, deputatlari Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatishi, saylovoldi tashviqot ishlari olib borishi, Respublika Oliy Majlisida va tegishli xalq deputatlari Kengashlarida o'z tarafdorlari bo'lgan deputatlar fraktsiyalari, guruhlarni tuzish huquqiga egadirlar.[1]

Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonun-chilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik aso-sida saylanishlari ta'kidlanadi (77-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 60-moddasiga binoan, siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlash manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lganidan so'ng ko'ppartiyaviylik holati vujudga keldi. Ko'ppartiyaviylik-hozirgi zamon jamiyatining ajralmas belgisi, uning demokratiyalashuvi darajasining muhim poydevori, ko'rsatkichidir.

Ko'ppartiyaviylikning muhim belgisi jamiyatda bir necha siyosiy partiyalarning mavjudligidir.

Ko'ppartiyaviylikni hayotning o'zi taqozo etadi. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishi (2005 yil 27 yanvar) da so'zlagan nutqida bu haqda jumladan shunday degan edi: "Bu tizim nima uchun zarur, degan savolga men shunday javob bergan bo'lardim. Ko'ppartiyaviylik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlariga ega bo'lgan har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning maqsad va intilishlarini to'liq aks ettirish uchun kerak. Chunki hayot bor ekan, har qaysi toifa o'zining manfaatlarini qandaydir

[1] Qarang: O'sha asar, 413-bet.

yo‘llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritishadi, kerak bo‘lsa, qonuniy yo‘llar bilan o‘z maqsadiga erishishga intiladi.

Shu ma’noda, har bir partiya o‘ziga bo‘lgan ishonchni, kuch-quvvatni xalq ichidan oladi. Shuning uchun ham har qanday partiya-xalqning ma’lum qatlami, manfaatlarini ifodalovchi siyosiy kuch, desak ayni haqiqat bo‘ladi”.[1]

Hozir O‘zbekistonda bir necha siyosiy partiyalar jamiyat ishida faol ishtirok etmoqda. O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, “Adolat” O‘zbekistonda Liberal-demokratik partiyasi shular jumlasidandir.

Har bir siyosiy partiya o‘z dasturi va nizomlariga ega. Masalan, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining dasturiy maqsadlarini olib ko‘radigan bo‘lsak, uning oliy maqsadi elimizning mehnat ahli, har bir oilaning moddiy va ma’naviy barkamol bo‘lishiga keng imkoniyatlar yaratish, ularning konstitutsiyaviy huquqlari, fuqarolar erkinliklarini kafo-latlash, dini, mazhabi, millatidan qat’i nazar, hamyurtlarimizning qadr-qimmatini, tinch hayotini himoya qilish, tub iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy islohotlarni amalga oshirish orqali ravnaq topgan, qudratli demok-ratik davlat, adolatli insonparvar jamiyatni bunyod etishdan iboratdir.

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan siyosiy partiyalarning dasturiy maqsadlari bir-biridan ma’lum jihatdan o‘zaro farq qiladi. Binobarin, ikkita xalq, ikkita davlat ham bir-biridan farq qilishi zarur. Shundagina ular jamiyatdagi xilma-xil qarash va mafaatlarni to‘laqonli aks ettirgan bo‘ladi.

Shu bilan birga, siyosiy partiyalar xalqni millatni qadim-qadimdan birlashtirib kelayotgan mushtarak g‘oyalar ham borligini doimo esda tutishlari lozim. Shu bois, ular o‘z manfaatlarini himoya qilishda bir-biriga raqib yoki muxolifat bo‘lishi mumkin, lekin yagona Vatan, yagona xalq manfaatlari haqida gap ketganda hammasi bir musht bo‘lib birlashishi darkor. Bugungi kunda bizning yurtimizda milliy istiqlol g‘oyasi ana shunday birlashtiruvchi kuch bo‘lib hisoblanadi.

“Albatta, har bir inson o‘z fikri va irodasini erkin ifoda etishga haqli. Shunday ekan, har bir saylovchi o‘ziga ma’qul bo‘lgan partiyani o‘zi tanlashi kerak. Boshqacha aytganda, har qaysi partiyaning o‘z elektrodi – uni qo‘llab-quvvatlaydigan ijtimoiy qatlami bo‘lishi lozim.

[1] Islom Karimov. O‘zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: “O‘zbekiston”. 2005, 9-10-betlar.

Agar shunday bo‘lmasa, bu partiya haqiqiy siyosiy kuch bo‘la olmaydi”.[1]

Jamiyatning siyosiy tizimi va siyosiy hayotida jamoat birlashmalari tarkibiga kiruvchi yoshlar tashkilotlari ham muhim o‘rin tutadi. Yoshlar tashkilotlari tasodifiy ravishda yuzaga kelgan emas. O‘sib kelayotgan yosh avlodning, birinchi navbatda, aholining katta qismini tashkil etuvchi yoshlarning xilma-xil ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy talab va ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan zaruriyat, ularni jamiyatda cheksiz ravishda sodir bo‘lib turgan siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishlarini ta’minlash ehtiyoji yoshlar tashkilotlarining tuzilishini taqozo etadi.

“Yoshlar tashkilotlari birinchi navbatda o‘z a’zolarining maqsad-manfaatlarini himoya qiladi. Belgilab qo‘yilganidek, yoshlarning fuqaroviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarini himoya qilishga va ro‘yobga chiqarishga, shuningdek, respublika yoshlarining ijodiy faoliyatini, faolligini rivojlantirishga qaratilgan maqsadlarga ega bo‘lgan va belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan fuqarolarning ixtiyoriy uyushmasi O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning jamoat birlashmasi deb tan olinadi. U yoshlarga milliy, irqiy, lisoniy, diniy mansubligi, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar, g‘amxo‘rlik qiladi”.[2]

Hozirgi paytda O‘zbekistonning siyosiy hayotida yoshlar tashkilotlarining ahamiyati oshib bormoqda. U mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishda etakchi siyosiy kuchlardan biri sifatida davlat hokimiyatini va boshqaruv organlarini shakllantirishda faollik ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekiston istiqbolini ta’minlash, uni buyuk davlatga aylantirish yoshlarning mehnati va sa’y-harakatlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bu haqda Islom Karimovning “O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida shunday deyilgan: “Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam tashlab kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadlarga erishish o‘zlariga bog‘liq ekanligini, ya’ni bu narsa ularning sobit qadam, g‘ayrat-shijoatiga, to‘la-to‘kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog‘liq ekanligini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir”.[3]

Jamiyat hayotida xotin-qizlar, faxriylar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalarning ham amal qilishi, faoliyat ko‘rsatishi ob’yektiv zaruriyatdir. Ularning

---

[1] O‘sha asar, 10-11-betlar.
[2] Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharx. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. 296-bet.
[3] I.A. Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, – T.: “O‘zbekiston”, 1996, 49-bet.

asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti hamda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayoti va ta'lim-tarbiyaviy ishlarda xotin-qizlarni, yoshlar, faxriylar, ijodiy uyushmalar va ommaviy harakatlar hodimlarni safarbar qilish, shu asosda ijtimoiy faolliklarni oshirib borishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Jamoat birlashmalari" bobi 57-moddasida "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatini targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarning tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi", deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi muvofiq harbiylashtirilgan birlashmalar, milliy va diniy ruhdagi partiyalar hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati quyidagi hollarda sud qaroriga binoan tugatiladi:

a) Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa; b) respublikaning suvereniteti, yaxlitligiga va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi bo'lsa; v) urushni, ijtimoiy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qilsa; g) xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qilsa va boshqa shunga o'xshash hollarda.

Konstitutsiyamizning 57-moddasi ikkinchi bandida belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzishni taqiqlash uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rib kelmoqda. Chunki bunday jamiyat va uyushmalar davlat va jamiyatga qarshi maqsadlarni ko'zlab, faoliyat yurgizishi mumkin. Mamlakatimizdagi amaldagi qonunchilikka binoan maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzganlikda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan ularni jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha bo'lgan jazo choralari ko'zda tutilgan. 62-moddada belgilab qo'yilishicha, "Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi". O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlatning diniy tashkilotlar va birlashmalarga munosabati ham ochiq-oydin belgilab berilgan. "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi" (61-modda). Davlat bilan din o'rtasidagi munosabat-

larning belgilashda mustaqillik arafasida, ya'ni 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning ahamiyati juda katta. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"-gi mazkur qonun 1998 yil 1 mayda hayot taqozosiga ko'ra, yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunda davlatning dinga nisbatan yuritadigan siyosatining huquqiy-konstitutsiyaviy asoslari belgilangan. Uning dinning davlatdan ajratilganligi haqidagi 5-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-xarakatlarga yo'l qo'ymaydi. Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi... ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar".

"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlari to'g'risida"gi qonunda, "Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyati hamda dahriylik targ'ibotiga oid faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi", deb belgilab qo'yilgan.

Qonunda O'zbekiston Respublikasida diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek, respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo'limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishga yo'l qo'yilmaydi, deyilgan.

Yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda yana quyidagilar taqiqlangan:

Birinchidan, diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shart.

Ikkinchidan, dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvligini buzishda, bo'hton, vaziyatni barqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Uchinchidan, terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko‘maklashadigan, shuningdek, boshqa g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi.

To‘rtinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, mansabdor shaxslarga tazyiq o‘tkazishga qaratilgan har qanday urinish, shuningdek, yashirin diniy faoliyat qonun bilan taqiqlanadi.

3.3. Oila, uning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati

Oila jamiyatning birlamchi, asosiy bo‘g‘inidir. Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib etishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir. “Oila – bu jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘-lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”.

Oilaning jamiyatdagi nufuzi, e’tibori nihoyatda katta. Jamiyat oiladan tashkil topadi. Oila qancha mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shuncha barqaror bo‘ladi.

Jamiyatning ma’naviy qiyofasi ham oilaning qandayligiga, uning ma’rifatiga, oilada tarbiyalanib, voyaga etkazilgan har tomonlama etuk va barkamol avlodga bog‘liqligi tarixda o‘z isbotini topgan haqiqatdir. Chunki, aynan oila zamirida, sog‘lom oila muhitida xalqimiz va millatimizning buguni va kelajagi bunyod etiladi.

Kelajak nasllarning qanday insonlar bo‘lib kamolotga etishi oilaga, oila muhitiga, oilaviy ta’lim-tarbiyaga, oila sardorlari bo‘lgan yer bilan xotinning o‘zaro ahil va totuvligiga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini alohida ta’kidlashga to‘g‘ri keladi. Prezidentimiz tomonidan aytilganidek, “Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka

erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Zero oila farovonligi-milliy farovonlik asosidir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng qimmatli an’analar:

halollik, rostgo‘ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan.[1]

Oilani jamiyatdan, jamiyatni esa oiladan ayricha holda tasavvur etib bo‘lmaydi, ularning har biri boshqasiga ta’sir ko‘rsatadi. Ana shu ta’sir va aks ta’sir jarayonida ikkalasi ham rivojlanib, mustahkamlanib boradi. Bu – cheksiz, uzluksiz jarayondir.

Oilaning mustahkamligi, barqarorligi va kamoloti jamiyatga, jamiyatning imkoniyatlariga, oila uchun yaratib bergan shart-sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, madaniy-ma’naviy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq. Basharti, jamiyat, davlat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan nochor, siyosiy, madaniy-ma’rifiy, ma’naviy zaif bo‘lsa, bu narsa albatta oilaviy munosabatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

Oilaning jamiyat oldidagi nufuzi, e’tibori va ahamiyati, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi kabi masalalarga O‘zbekiston Konstitutsiyasining XIV bobidagi, to‘rtta modda ajratilgan bo‘lib, ularda oilaning jamiyatda tutgan o‘rni va davlat tomonidan muhofazalanishi, fuqarolarning nikohlanishi, ota-onalarning farzandlar va ota-onasiz qolgan bolalarning huquq va majburiyati qonunan quyidagi tarzda belgilangan:

“63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi.

64-modda. Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat etim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.

65-modda. Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

66-modda. Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar»

[1] Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – T.: “O‘zbekiston” 1998, 400-401-betlar.

Oilani mustahkamlashga oid qonun hujjatlari hamda ularning vazifalari nimalardan iboratligi 1998 yil aprel oyida qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi"da mukammal ifodasini topgan. Bu tarixiy hujjat demokratiya va yuksak insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib o‘z mohiyati va ahamiyati bilan mamlakatimizdagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga, onalik va bolalik huquqlarini himoya qilishga, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan.

"Oila kodeksi"dan ko‘zlangan asosiy maqsad "Oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a'zolari o‘z huquqlarini to‘sqinliksiz amalga oshirishini hamda huquqlarining himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir".[1]

"Oila kodeksi"ning 2-moddasida oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi mazmun-mohiyati nimalardan iboratligi o‘zining mukammal ifodasini topgan: "Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlari tuzilgan ittifoqi, yer va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirish va kamoloti haqida g‘am*-xo‘rlik qilish, voyaga etmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi".

Oilaning maqomi xususida ushbu Kodeksda o‘z ifodasini topgan g‘oyalarning hammasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirilgandir. Buni Oila kodeksining barcha bo‘limlari va moddalari misolida ko‘rsa bo‘ladi. "Nikoh tuzish chog‘ida, – deyiladi ushbu kodeksning 3-moddasida, – jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei hamda boshqa holatlariga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi".

Mustaqillik sharofati bilan oilaning jamiyat taraqqiyotidagi roli va ahamiyati benihoya katta ekanligi qonuniy asoslab berildi. Oilaga bu qadar e'tibor berilishining bir necha sabablari bor.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: "Adolat", 1998, 4-bet.

Birinchidan, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, oila muqaddas urf-odatlarimiz va an'analarimizni, milliy qadriyatlarimizni saqlaydigan va rivojlantiradigan maskandir.

Uchinchidan, oila kelajak nasllar qanday insonlar bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. "Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi", – deydi Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida.

Mustaqillik yillarida nainki oilada, oila tarbiyasida, shu bilan bir qatorda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, ma'rifiy hayotida ham ayollarning roli kuchayib borayotganligi diqqatga sazovordir.

"...Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, ming yillar davomida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Ayniqsa, ayollarga sharqona ehtirom va e'zoz biz uchun ibratli merosdir. Bejiz emaski, Sharqda ayolni farishtaga qiyos qilishadi. Chunki farishtalar Alloh taolo yaratgan eng pok, eng begunoh zotlardir... Ayollarga bo'lgan cheksiz hurmat-ehtiromimizni yana bir sababi shundaki, ayol-avvalo har bir insonning beshigini tebratadigan, oq suti bilan uning yuragiga odamiylik fazilatlarini singdiradigan, uni hayot bo'ronlaridan asrab-avaylaydigan fidoyi insondir".[1]

Tariximizning qaysi bir davriga nazar solmaylik, ayol va ona hamisha ezgulik timsoli, murabbiy va komil inson tarbiyachisi bo'lib kelganini ko'ramiz. Bilimli va ma'rifatli, oqila ayollardan ulug' zotlar, olim-fuzalolar dunyoga kelganligiga tarix guvohdir. "Tarixdan ma'lumki, deyarli barcha buyuk bobolarimizning onalari o'qimishli bo'lishgan. Ibn Sinoning onalari Sitorabonu ham, Mirzo Ulug'bekning onalari Gavharshodbegim ham, Navoiy bobomizning volidalari ham, Bobur Mirzoning onalari Qutlug' Nigorxonim ham etuk bilim egalari edilar".[2]

Farzand ko'rishdan ko'ra ularni el-yurt havas qilsa arziydigan ma'naviy etuk va jismonan baquvvat insonlar qilib etishtirish anchagina og'irroqdir. Ana shu murakkab va mas'uliyatli, ayni paytda sharafli vazifa ijrosi oiladagilarga, bobo va buvilarga, ota bilan ona zimmasiga yuklatiladi. Bolalarni bilimli qilish, mehnat va kasb-hunar o'rgatish ularni

---

[1] Islom Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: "O'zbekiston", 1999, 255-256-betlar.
[2] Abduqahhor Ibrohimov, Xayriddin Sultonov, Narzulla Jo'raev. Vatan tuyg'usi. – T.: "O'zbekiston", 1996, 89-bet.

baxtli qilish demakdir. Yoshligidanoq mehnatda chiniqqan, halollikka o‘rgangan, zamonaviy bilim va texnika asoslarini o‘zlashtirib olgan farzandlar hamma vaqt o‘zlariga to‘g‘ri yo‘l topa oladi, hayotda qoqilmaydilar.

O‘zbekistonda davlat mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab sog‘lom avlod tarbiyasi ustuvor vazifa deb belgilandi. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimiz Islom Karimov imzo chekkan farmonlardan biri “Sog‘lom avlod uchun” deb atalgan orden ekanligi, “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro jamg‘armasi tuzilgani buning amaliy isbotidir.

1998 yil mamlakatimizda Oila yili, 1999 yil – Ayollar yili deb atalgan bo‘lsa, 2000 yil esa ezgu maqsadlar, yaxshi niyatlar bilan “Cog‘lom avlod yili” deb nomlandi.

Sog‘lom avlod – millat va xalqning, davlatning kuch-qudrati, ravnaqi va taraqqiyotining bosh omilidir. Chunki, har tomonlama sog‘-lom avlodga ega bo‘lgan xalqni hech qachon engib bo‘lmaydi. Farzand-lari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi. Sog‘lom farzand oila quvonchi, el-yurt tayanchidir. Farzandlarini Alpomishday bardam-baquvvat, g‘ururi-oriyati o‘ta kuchli, irodasi temirdek mustahkam bo‘lishini orzu-niyat qilmaydigan ota-ona topilmasa kerak.

Sog‘lom avlodni tarbiyalab, voyaga etkazish masalasi shuning uchun ham Prezident Islom Karimovning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

Yurtboshimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining etti yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida sog‘lom avlod deganda nimani tasavvur qilamiz, sog‘lom avlod g‘oyasi orqali biz oldimizga qanday maqsadlarni qo‘yamiz, degan savollarga quyidagicha javob berdi: “Sog‘lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog‘lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman. Buyuk davlatni faqat sog‘lom millat, sog‘lom avlodgina qura oladi.

Hech shubha yo‘q: sog‘lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizga o‘tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush tarziga nazar solsak, ular nasl-nasab, etti pushtning tozaligiga, avlodning sog‘lig‘iga juda katta e’tibor berganligini ko‘ramiz”.

Sog‘lom avlodni, sog‘lom naslni tarbiyalab, voyaga etkazish haqida fikr yuritganda bir-biri bilan uzviy bog‘lanishda bo‘lgan ikki muhim masalaga alohida e’tibor berishga to‘g‘ri keladi.

Birinchidan, har bir oila, har bir ota-ona eng avvalo, umrining davomchisi bo‘ladigan farzandlarining sihat-salomatligini e’tibordan chetda qoldirmasligi, unga birinchi darajali ahamiyat berishi zarur. Shu o‘rinda Prezidentimizning ushbu so‘zlarini eslatib o‘tishni joiz deb

hisoblaymiz: “Baraka topkur, ertaga boshing yostiqqa tegsa yoki farzanding dardmand bo‘lsa, molu dunyong, boyliging kimga kerak? Odamning salomatligi, farzand sog‘lig‘i oldida har qancha boylik ikki pulga qimmat emasmi?

Aziz birodarlar, o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, bu yorug‘ dunyoda insondan nima qoladi? Yiqqan-terganing bir kun tugaydi. Sendan yodgorlik bo‘lib, chirog‘ingni yoqadigan farzand qoladi. Agar farzand sog‘lom, oqil, iymon-e’tiqodli bo‘lsa, ota-onasiga faqat rahmat keltiradi, odamlarga naf keltiradi, el-yurt nazaridan hech qachon qolmaydi” (yuqorida aytilgan nutqdan).

Oila, onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Oila kodeksining 4-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “O‘zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir.

O‘zbekiston Respublikasida onalik va otalik-izzat ikromga hamda hurmatga sazovordir. Ona va bola mafaatlarini muhofaza qilish, ayollarning mehnati va sog‘lig‘ini saqlashga doir maxsus tadbirlar ko‘rish, mehnatni onalik bilan qo‘shib olib borish uchun ayollarga sharoit yaratish, onalik va bolalikni huquqiy himoya qilish, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan ta’minlanadi”.

Oilaning mustahkam bo‘lishi, farzandlar tarbiyasining yaxshi yo‘lga qo‘yilishi ko‘p jihatdan yer va xotin o‘rtasidagi nikohining mustahkamligiga bevosita bog‘liq. Nikoh qanchalik puxta o‘ylanib, sof muhabbat asosida tuzilgan bo‘lsa, oila shunchalik mustahkam bo‘ladi. Nikoh oila asosidir. Nikoh masalasining to‘g‘ri hal qilinishi ham jamiyat, ham davlat uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham “Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o‘tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

Uzrli sabablar bo‘lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o‘tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Alohida hollar (homiladorlik, bola tug‘ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar) da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin...

Nikoh tuzish ixtiyoriydir.

Nikoh tuzish uchun bo‘lajak yer-xotin roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi”.[1]

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: “Adolat”, 1998, 10-11-bet.

Ikkinchidan, oilada sog‘lom bolaning tug‘ilishi, avvalambor, onaning sog‘lig‘iga bog‘liq. Sog‘lig‘i nochor, xo‘rlangan iztirob chekkan onadan sog‘lom farzand tug‘ilmasligi ma’lum. Ota haqida ham shu fikrni aytsa bo‘ladi, zero, nosog‘lom otadan sog‘lom farzand dunyoga kemaydi. Yurtboshimiz aytganlaridek, “sog‘lom bolaning dunyoga kelishi otaning ham qoni toza, tani, ruhi sog‘lom bo‘lishiga bog‘liq. Boshqacha aytganda, oilada sog‘lom go‘dak kulgusi yangrashi uchun ona ham, ota ham sog‘lom va ahil bo‘lishi kerak.

Bir so‘z bilan aytganda, sog‘lom farzand faqat sog‘lom oilada tug‘iladi. Oilaning sog‘lomligini undagi muhit, ota-onaning totuvligi, bir-birini tushunishi, qo‘llab-quvvatlashi o‘zaro izzat-hurmati belgilaydi”.[1]

O‘zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog‘lom avlodni tarbiyalashni amalga oshirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni zararli ta’sirlardan, buzg‘unchi g‘oyalardan asrash maqsadida davlat miqyosida mahsus dastur ishlab chiqildi. Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Sog‘lom avlod Davlat dasturi” bunga misol bo‘ladi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, oila qurish faqat ikki inson o‘rtasidagi shaxsiy munosabat emas, balki jamiyatning asosini, aytish mumkinki, eng muhim bo‘g‘inini belgilaydigan dolzarb vazifalardan biridir. Hamonki shunday ekan, har bir yigit va qiz oila qurib, Alloh taolo nasib etadigan farzandlarini sog‘lom qilib o‘stirishi ham shaxsiy, ham ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunib etishlari, zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘y-basti kelishgan, botir va polvon o‘g‘lonlaru, qilichdek yigitlarni, eng go‘zal, latofatli va nafosatli, oqila, suluv va dilbar qizlarni tarbiyalab, voyaga etkazish davlatimiz siyosatining uzviy qismidir. Oila sog‘lom, totuv, fayzu barokatli bo‘lsa, farzandlar oilada zamonga mos, Vatanimizga, xalqimizga munosib ravishda ta’lim-tarbiya olib ulg‘ayishgan bo‘lishsa, o‘shanda jamiyat sog‘lom, mamlakat qudratli, yurt tinch-osoyishta bo‘ladi. “...XXI asrda qaysi davlat qudratli, qaysi xalq kuchli bo‘ladi? Bu savolga, aholisi intellektual nuqtai nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo‘lib unib-o‘sayotgan davlat deb javob qaytarish mumkin. Yangi asrda dunyo taraqqiyotini, insoniyatning qay yo‘ldan borishini komil insonlar belgilashiga shubha yo‘q. Chunki XXI asr intellektual avlod asri bo‘ladi”, – deydi Islom Karimov.

Oilaning mustahkam bo‘lishi, sog‘lom avlodning dunyoga kelishi uchun jamiyat va davlatning qayg‘urishi, shunga moddiy-ma’naviy

[1] Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2000, 97-bet.

zamin yaratib berishining hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi o‘z-o‘zidan tushunarli albatta. Lekin bu borada yana bir muhim masala bor. U ham bo‘lsa, oilaning taqdiri, farzandlarning kelajakda qanday insonlar bo‘lib shakllanishi, jamiyatda o‘ziga munosib o‘rin tutishi ota bilan onaga ham ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligidadir. Qaysiki ota-ona farzandi taqdiriga befarq qarab, kelajakni o‘ylab harakat qilmasa, keyin pushaymon bo‘lib qoladi. Keyingi afsus-nadomatlarning foydasi tegmaydi. Buni bo‘lg‘usi ota-onalar, ya’ni yigit va qizlar eslaridan chiqarmasliklari zarur.

Davlatning rivojlanishida, obro‘-e’tiborga ega bo‘lishida har bir oilaning o‘rni juda katta. Ana shu sababdan ham oila davlat himoyasidadir.

Oila kodeksida nikoh yoshi erkaklar uchun o‘n sakkiz, ayollar uchun o‘n etti yosh etib belgilangan. Tegishli tuman, shahar hokimligi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Oila kodeksining 17-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, shuningdek, tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo‘yicha maslahat berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikohlanuvchi shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va u nikohlanuvchi shaxsga faqat ko‘rikdan o‘tgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin.

Basharti, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS infektsiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo‘lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib, sudga murojat qilishga haqlidir”.

Bundan tashqari, “Soxta nikoh, ya’ni yer-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko‘zlamay tuzgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi” (49-modda).

“Nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi” (50-modda).

Darhaqiqat, “nikoh yoshiga etmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga etmay, nikohga kirgan shaxsning manfaatlarini talab qilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin, –deb ko‘rsatiladi Oila kodeksining 51-moddasida. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga etmay, nikohga kirgan shaxs, uning ota-onasi yoki homiysi, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir”.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida yer va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari ham o‘zining qonuniy ifodasini topgan. “Yer va

xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak yer-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi” (23-modda).

Oila kodeksining 24-28-moddalarida yer va xotinning umumiy mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi, yer va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish, yer va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda ulushlarni aniqlashning mazmun-mohiyati, yo‘llari, tartib-qoidalari belgilangan.

“Jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilaning mustahkam va baqaror bo‘lishi, ravnaqi va kamoli ko‘p jihatdan yer va xotinning odob-ahloqiga, o‘zaro mehr-muhabbat va sadoqatiga, shirinso‘zlik, samimiylik, bir-birlariga ishonch va fidoiylik, inoqlik va sharm-hayosiga bog‘liq. Oila va bolalarning baxti va shodonligi ham ana shunda.

Ona-ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehru muruvvati, sadoqati va vafodorligidir.

Inson tabiati, fe’l-atvori go‘dakligidan shakllanar ekan, milliy dunyoqarash ham bola vujudiga ona suti bilan kiradi.[1]

Darhaqiqat, insonni inson qiladigan ham, mayib-majruh, baxti qaro qiladigan ham oiladir, oiladagi ta’lim-tarbiyadir.

Oilani ham, jamiyatimizni ham birlashtirib, unga fayzu barakat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar aslida yer bilan xotin, bobo va buvilardir.

3.4. Ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi

Demokratik jamiyat taraqqiyotini ommaviy axborot vositalaridan ayricha holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Demokratik jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini, inonparvarlik mazmun-mohiyatini, rivojlanish qonuniyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, siyosiy asoslarini omma ongiga etkazish va targ‘ib-tashviqot etishda matbuot, radio va televideniyaning, barcha axborot vositalarining tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Mamlakatimiz xalqlari, millatlari va har qaysi fuqaroning islohotlarni amalga oshirish va hayotga joriy etishdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, bilim saviyasi, madaniyatini-ma’naviyatini o‘stirish,

[1] Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1998,401-bet.

onggi, tafakkuri, dunyoqarashi, intellektual salohiyatini yuksaltirish borasida ommaviy axborot vositalari nechog‘lik ahamiyat kasb etayotganligini har birimiz o‘zimizning ijtimoiy va shaxsiy hayotimiz misolida aniq-ravshan ko‘rib-bilib, chuqur his etib turibmiz.

Hozirgi paytda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamoatchilik fikrining holatiga etarli darajada bog‘liq bo‘lib turibdi. Jamoatchilik fikri shakllanishida ommaviy axborot vositalariga keng o‘rin beriladi. “Ommaviy axborot vositalari mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga turlicha qarashlarda erkin va holis vositachi bo‘lishi va muhimi, inson hamda jamiyat manfaatlarining faol va izchil himoyachisi bo‘lishi uchun professional jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini tayyorlash jarayonini qayta ko‘rib chiqish, axborot olish, tahlil qilish, ishlash va etkazishning zamonaviy usullarini va vositalarini o‘zlashtirishda ularga yordam berish zarur”.[1]

Ommaviy axborot vositalari orqali insonlar siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotda hamda dunyo hamjihatligi, davlatlararo munosabatlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlardan voqif bo‘ladi, uni idrok etadi, ularga o‘z munosabatini bildiradi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotimizda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli oshib bormoqda. Bugungi taraqqiyotimizni, hayot tarzimizni, barqaror inson tarbiyasini, shaxsning g‘oyaviy-siyosiy, madaniy-ma’naviy va aqliy axloqiy kamolotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etolmaymiz. Davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston Respublikasi uchun ommaviy axborot vositalarining faoliyatini va ularning samarali ishlashiga yordam beradigan mexanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish, huquqiy asosini yaratish muammosi dolzarbdir.

Asosiy Qonunimizning o‘n beshinchi bobi “Ommaviy axborot vositalari” deb atalishida juda katta ma’no-mazmun bor. Bu bob mazmunan chuqur bo‘lgan bittagina moddadan iborat. Ya’ni “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Tsenzuraga yo‘l qo‘yilmaydi” deb belgilangan (67-modda).

“Mazkur qoidaning Asosiy Qonun darajasida mustahkamlanganligi, birinchidan, fuqarolarning o‘z fikrlarini erkin tarzda matbuotda, radio, televidenie orqali yozma yoki og‘zaki chiqishlarda ifodalash huquqini kafolatlasa, ikkinchidan, ommaviy axborot vositalariga beril-

[1] Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O‘zbekiston», 1997, 177-178-betlar.

gan benazir ahamiyat, yuksak e'tibordir. Ushbu konstitutsiyaviy bitikda uchta muhim prinsip: ommaviy axborot vositalarining erkinligi, ular faoliyatida qonun ustuvorligi hamda tsenzura qilishga yo'l qo'ymaslik o'z ifodasini topgan. Ayni vaqtda axborotning haqqoniyligi uchun mas'uliyat yuklanib, yuridik javobgarlik belgilanishi nazarda tutilgan. Bundan ko'zlangan maqsad ommaviy axborot vositalari tomonidan ehtirosga berilish oqibatida nojo'ya axborot tarqatilishining oldini olish, ularga chek qo'yishdir".[1]

Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari erkin bo'lib, qonunga muvofiq ishlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi yangidan qabul qilgan qonunida ommaviy axborot vositalari xodimlarining mustaqilligi, erkinligi, respublika Konstitutsiyasi va ushbu qonun asosida faoliyat yuritishlari mustahkamlab qo'yilgan.

Ommaviy axborot vositalarining erkinligiga erishish asosida:

– ommaviy axborot vositalarida jamoatchilik fikri xilma-xilligi, inson e'tiqodlari va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

– axborotni tsenzuradan, mafkuralashuvdan to'liq xalos bo'lishini nazarda tutgan holda aholi va jamiyatning xolis, ishonchli va xilma-xil axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish;

– aholini ommaviy axborot vositalari yordamida demokratlashtirishni chuqurlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarga, keng yoyilgan ma'naviyat va ma'rifat g'oyalariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash jarayonlarini keng jalb qilish imkoniyati vujudga keladi. Bu huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda juda muhim bo'lib, konstitutsiyaviy tuzumning mustahkam bo'lishini ta'minlovchi vositalardandir.[2]

O'zbekiston Respublikasining qonunlar majmui ommaviy axborot vositalarining huquqlari va erkinliklari kafolatlari bilan bir qatorda ular tomonidan tarqatilgan axborot uchun javobgarlikni ham belgilaydi. Konstitutsiyaning 67-moddasida davlatimiz tarixida birinchi marta qayd qilinganidek, "...ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar". Ommaviy axborot va muxbirlarning kasbini muhofazasi to'g'risidagi qonunlarda ham so'z erkinligini suiiste'mol qilishga va

---

[1] U.Tadjixonov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasining Kostitutsiyaviy huquqi. – T.: "Sharq", 2001, 425-bet.

[2] Qarang: F.K.Qayumov, M.M.Mirhamidov, A.T.To'laganov, O.T.Husanov, U.J.Hotamov. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi. – T.: "O'zbekiston", 2005, 90-91-betlar.

tekshirilmagan axborotning tarqatishga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida alohida ta’kidlangan.

Qonunlarda belgilab qo‘yilganidek, noxolis yoki bila turib, yolg‘on xabar tarqatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xolislik o‘rniga noxolis yo‘l tutish, uydirma va bo‘xtonlarni tarqatish, haqiqatni soxtalashtirish, ig‘vo, fisq-fasod bilan shug‘ullanish ommaviy axborot vositalarining obro‘siga putur etkazadi, jurnalistlar sha’niga to‘g‘ri kelmaydi. Keng jamoatchilik ishonchli va e’tiqodidan mahrum bo‘lish, el-yurt nazaridan qolish har bir inson, har qaysi jurnalist uchun juda katta yo‘qotish, juda katta fojia va baxtsizlikdir.

Jurnalist hamisha va har doim, har qanday vaziyatda ham yuz bergan voqea va hodisalarni aniq dalillar va manbalarga tayanib, hissiyotlarga berilmasdan, g‘arazgo‘ylik qilmasdan qanday bo‘lsa o‘shandayligicha sharhlab, izohlab, ommaga etkazishi kerak. Shu joyda Prezidentimizning quyidagi qimmatli fikrlarini keltirib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: “Biz jurnalistning o‘z fikrini bayon etish, dalillarni qanday tushunsa, shundayligicha talqin qilish huquqiga hurmat bilan qaraymiz, lekin barcha uchun birdek qat’iy bir qoida mavjudki, jurnalist har qanday vaziyatda ham aniq dalillarga tayanishi lozim. Yana bir bor aytaman: sizlar biron-bir voqeani turlicha talqin qilishingiz mumkin, biroq jurnalistning doimiy va o‘zgarmas qoidasiga rioya etishingiz shart, sizlar faqat dalillarga, dalillarga va yana bir bor dalillarga asoslanishingiz kerak”.[1]

Darhaqiqat, ommaviy axborot vositalari – gazetalar, jurnallar, radio-televideniyaning jamiyat a’zolariga ta’sir kuchi nihoyatda katta. Ommaviy axborot vositalari bizning mamlakatimizda haqli ravishda “to‘rtinchi hokimiyat” deb ataladi. Ommaviy axborot vositalarini “to‘rtinchi hokimiyat” deb atalishi to‘g‘ri ma’noda emas, balki ko‘chma ma’nodadir. “To‘rtinchi hokimiyat”, xuddi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati kabi, jamiyatning turli sohalari faoliyatini tahlil etadi, nazorat qiladi, ularni boshqarish va tashkiliy tomonlarini o‘rganadi. Bu boradagi kamchiliklar va xatolarga ommani, hokimiyat tarmoqlarining diqqatini jalb etib, jamiyat taraqqiyotini tezlatishga, dolzarb masalalarni o‘z vaqtida va samarali hal etilishiga ko‘maklashadi, mamlakat rahbariyatiga ichki va boshqa siyosat, iqtisod va madaniyat-ma’naviyat sohasida to‘g‘ri qarorlar qabul qilish uchun zamin tayyorlab, xalq ommasi fikri va harakatlariga ijobiy yo‘nalish beradi. Shu yo‘l bilan aholi ommaviy axborot vositalari orqali davlatni boshqarishda

[1] Islom Karimov. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.:, “O‘zbekiston”, 2005, 90-91-betlar.

qatnashadi va undan qo‘shimcha vosita sifatida foydalanadi. Ayni vaqtda hokimiyat ham o‘z siyosatini tushuntirish, keng ommaga etkazishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanadi.[1]

Asosiy tayanch tushunchalar

Tamoyillar, mulk shakllari, jamiyat birlashmalari, ob’yektiv qonuniyat, ijtimoiy munosabatlar, milliy boylik, davlat mulki ob’yektlari, ichki kommunikatsiya, mulkdor, aralash mulk, mulk huquqi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, dasturiy maqsadlar, yoshlar tashkilotlari, diniy tashkilotlar, vijdon erkinligi, Oila kodeksi, onalik va bolalik, davlat muhofazasi, ommaviy axborot vositalari, professional jurnalist, tsenzura.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosiy tamoyillari nimalarni o‘z ichiga oladi?
2. Jamiyat taraqqiyotida shaxsning qanday roli bor?
3. Ijtimoiy munosabatlar o‘z ichiga nimalarni oladi?
4. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining moddiy-iqtisodiy asosi nima?
5. Asosiy Qonunda mulk huquqi haqida nimalar deyilganini aytib bering.
6. Tabiiy zaxiralarga nimalar kiradi?
7. Jamoat birlashmalarining jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida gapirib bering.
8. Kasaba uyushmalarining faoliyati nimalardan iborat?
9. Mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar haqida gapirib bering.
10. O‘zbekistonda yoshlarning qanday tashkilotlari bor?
11. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunda nimalar va nima uchun taqiqlangan?
12. Oila, uning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyatini ayting.
13. Xalqimizning eng qimmat an’analari nimalar?
14. O‘zbekistonda necha yoshdan nikoh tuzish mumkin va nikohlanuvchilar, ariza berganlaridan keyin qancha muddat o‘tib, nikohlanishlari mumkin? Ularga qanday hollarda, kim tomonidan imtiyoz beriladi?

[1]Qarang: Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – T.: “Sharq”, 1998, 215-bet.

15. Ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni haqida gapirib bering.

IV bob. O‘ZBEKISTONDA INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

4.1. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat

“Shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilar ekan, bu bilan u Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mustahkamlab qo‘yilgan hu-quq va erkinliklarga ega bo‘ladi. Shuningdek, u ma’lum burchlarni ham bajarishga majburdir. Tabiiyki, O‘zbekiston davlati ham fuqarolarning manfaatlari va erkinliklarini Respublika hududida va uning tashqarisida himoya qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi”[1].

Inson dunyoda eng murakkab, oliy mavjudot, tabiatning oliy mahsuli, hayot gulidir. Insonning buyuk zotligi va bebaholigi aql-idrok va tafakkurga ega bo‘lganligidadir. Aql-idrok sohibi bo‘lganligi uchun u dunyodagi hamma sir-asrorni biladi, ilmu zakovati, dahosi, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi.

Shuning uchun ham insonning hayoti, erkinligi,sha’ni, qadr-qimmati, haq-huquqlari masalasi barcha davrlarning, jumladan, hozirgi zamonning ham eng dolzarb muammolaridan biridir. Insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jamiyatdagi qadr-qimmati hamisha buyuk mutafakkirlar, faylasuf olimlar, siyosatshunos va qonunshunoslar, davlat arboblari diqqat-e’tiborida bo‘lgan.

Navoiy hazratlari o‘zining “Vaqfiya” asarida, “Butun osmon va osmondagi jami narsalar, butun yer yuzi va yer yuzidagi jami narsalar, hamma dengizlar va unda mavjud bo‘lgan hamma narsalar, hamma mamlakatlar va ularda bor jami ne’matlar-bari, eng yaxshi narsalar inson uchun, uning baxt-saodati uchun yaratilgan, bularning jami insonga xizmat qilmog‘i kerak”, – deb yozgan edi.

Inson va uning huquqi, erkinligi bugungi kunda muhim masala bo‘lib turibdi. Inson huquqlari muammosi-hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u jamiyatning eng oliy qadriyati, himmati, sifatida eng muhim konstitutsiyaviy institutdir.

Inson huquqlari – demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisi sifatida har bir davlatning demokratik taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezon hisoblanadi. Shuning uchun ham, inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquq tizimida muhim o‘rin tutadi.

[1] Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996, 95-bet.

Demokratik huquqiy davlat insonni, uning erkinligi va haq-huquqlarini barcha ijtimoiy voqeliklar markaziga qo‘yadi, unga munosib hayot sharoitlari yaratib beradi. Fuqarolik jamiyatida insonning hayoti, erki, sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari yuksak darajada e’zozlanadi.

Insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini astoydil himoya qilmasdan va amalda ta’minlamasdan turib jamiyatni demokratlashtirish mumkin emasligini jahon tajribasi ko‘rsatib turibdi. “...Inson huquqini qonunda va amalda ta’minlay olmagan, buning uchun etarli kafolatlar yaratib berolmagan jamiyat demokratik jamiyat emas”.[1]

Inson iqtisodiy munosabatlarning, siyosiy hamda ma’naviy hayotning bevosita ishtirokchisiga aylantirilmas, ijtimoiy jarayonlarga uzviy jalb etilmas ekan, davlatning ravnaqi haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Buning uchun inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi yaratilgan bo‘lishi kerak. Inson va fuqarolar huquqlari va erkinliklari haqidagi qonunlar majmui qatoriga inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar ham kiradi.

Inson huquqlari masalasiga doir nufuzli xalqaro hujjatlarga 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, 1966 yilda qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Evropa Konventsiyasi va boshqalar misol bo‘ladi.

Hozirgi kunda inson huquqlari bo‘yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjatlar mavjud bo‘lib, ularda inson huquqlariga oid jahon andozalari belgilab qo‘yilgan, ularning milliy qonunlardan ustuvorligi tamoyili aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan.

Ta’kidlash lozimki, xalqimiz totalitar siyosiy tuzum hukmronlik qilgan uzoq yillar davomida inson huquqlari va erkinligiga doir xalqaro miqyosda qabul qilingan muhim hujjatlardan xabarsiz qolib keldi.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan e’tiboran inson huquqlari va erkinligi masalasiga birinchi darajali e’tibor berila boshlandi. O‘zbekistonning insonlar fuqarolarning huquqlari va asosiy erkinliklarini ta’minlash borasidagi faoliyatining mustahkam huquqiy asosi uning Asosiy Qonuni-Konstitutsiyasida o‘zining ifodasini topdi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining birinchi sahifalaridayoq inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari bayon etilgan. Asosiy qonunning 13-moddasida inson oliy qadriyat sifatida e’zozlangan, inson huquqlari negizida inson shaxsiyatlari turishi

[1] Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996, 110-bet.

ta'kidlangan. "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" (13-modda).

Xalqimiz siyosiy tafakkuri, aql-zakovatining ko'zgusi bo'lmish Konstitutsiyamizdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1948 yilda qabul qilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va boshqa hujjatlarda mavjud bo'lgan inson hayoti va shaxsiy erkinliklarining daxlsizligiga oid umumiy qoidalar joy olgan. Konstitutsiyamiz, eng avvalo, umuminsoniy qadriyatlarga, umumjahon tsivilizatsiyasiga, eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Bosh Qomusimizning mazmun-mohiyati, hayotiy negizida inson huquqlari va erkinligiga oid xalqaro miqyosda e'tirof etilgan asosiy qoidalar chuqur singdirilganligini alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi. "Ma'lumki, – deydi bu haqda mamlakatimiz Prezidenti-demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor. Insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlatning asosiy organlari saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Bu tamoyillar deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarning konstitusiyalarida o'z ifodasini topgan. Ular ayni shu jihatlari bilan o'zlarini demokratik mamlakat deb baholashadi".[1]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining eng muhim jihati va o'ziga mos xususiyati, unda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari ustunligi, oliy qadriyat ekanligi qonuniy ravishda mustahkamlangani va kafolatlanganligidadir.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida, "Bugun Konstitutsiya to'g'risida, uning ma'no-mazmuni va ustuvor tamoyillari haqida gapirar ekanmiz, Asosiy Qonunimizda birinchi nav-batda shaxs manfaatining davlat manfaatidan ustun etib belgilanganligi, inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari

[1] Islom Karimov. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 1996, 8-bet.

eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo‘yilganini yana bir marta ta’kidlab o‘tish o‘rinli, deb bilaman”[1], – deydi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari masalasiga O‘zbekistonda jiddiy e’tibor bilan qarb kelinmoqda. Respublika Konstitusiyasining ikkinchi bo‘limi mana shu muhim masalaga bag‘ishlangan. Unda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari ettita (V-XI) bob va 35-modda (18-52) da bayon qilingan.

Inson huquqlari masalasi jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatni barpo etish yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston Respublikasi uchun ham etakchi maqomga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining “inson huquqlarini mensimaslik va oyoqosti qilish” mumkin emas, “barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib tug‘iladilar”, “har bir inson, biron-bir ayirmachiliksiz... mazkur deklatsiyada e’lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo‘lishi kerak”, degan qoidasiga muvofiq Asosiy Qonunda inson huquqlari masalasiga birinchi darajali ahamiyat berildi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan. “O‘zbekiston Respublikasida, – deyiladi 18-moddada – barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adololat prinsiplariga mos bo‘lishi shart”.

Inson huquqlari har bir insonga u tug‘ilishi bilan Alloh tomonidan in’om etiladi. Uning hech qanday davlat yoki jamiyat tomonidan tadbiq etilmaganligini hech kim inkor eta olmaydi. Shu boisdan ham ular tabiiy huquqlar bo‘lib,insondan ajralmas huquqlardir. “Biroq, insonlar Alloh oldida teng bo‘lsalar-da, real kundalik hayotda esa o‘zlarini turlicha namoyon etadilar, ya’ni dunyoda qancha inson bo‘lsa ular shunchalik xilma-xildir... Shunday qilib, odamlar bir xil imkoniyatlarga ega emaslar, ega bo‘lishlarining iloji yo‘q, shu bois ular hayotda bir xil, tom ma’noda teng bo‘la olmaydilar. Biroq hozirgi zamon davlati fuqarolarning qonun va sud oldida tengligini uzil-kesil tan oladi va buni ta’minlashni o‘zining muhim majburiyati deb biladi. Shaxsning qonun va sud oldida formal tengligining ta’minlanishi prinsipi-insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berganligi bejiz emas. Insonlarning qonun oldida tengligi

[1] Islom Karimov. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. “Xalq so‘zi”, 2005, 8-dekabr.

prinsipi-ularni teng huquq va majburiyatlar sohibi ekanligini anglatadi. Huquqiy tenglik – bu albatta formal tenglikdir, ya'ni rasmiy jihatdan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlikdir".[1]

Bosh Qonunning 18-moddasi 2-bandida "Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart" deb mustahkamlab qo'yilgan.

Imtiyozlar sirtdan qaraganda teng huquqlilikni buzishday bo'lib ko'rinsa-da, aslida teng huquqlilikni real ta'minlashga qaratilgandir. Konstitutsiyaning 88-moddasida "...O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati va a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Ular tegishincha Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazo choralariga tortilishi mumkin emas", deb mustahkamlab qo'yilgan. Bunday imtiyozlar 45-moddaga asosan voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarga ham berilgan.

Konstitutsiyaning 19-moddasida belgilab qo'yilganidek, "O'zbekis-ton Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas". 20-moddada esa "Fuqarolar o'z huquq va erkin-liklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari huquqlari va erkinliklariga putur etkazmasliklari shart", deb belgilab qo'yilgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, "jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson huquqlari, fuqaro va davlatning o'zaro aloqasi, o'zaro mas'uliyati kontseptsiyasi, falsafiy dunyoqarashlar va huquqiy tartibga solishning muayyan ta'siri ostida shakllanib keldi. Inson huquq-lari tabiatining ikki taraflama xususiyati tabiiy-huquqiy va ijobiy naza-riyalar paydo bo'lishiga olib keldi".[2]

Inson huquqlari barcha odamlarning tengligiga asoslanadi va umumiy xarakterga ega. Inson huquq va erkinliklari butun mamlakat hududida yagona bo'lishi kerak.

---

[1] H.Boboev, M.Ahmadshoeva. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi: inson va uning huquqlari eng oliy qadriyat. Toshkent Davlat yuridik instituti, -T.: «O'zbekiston», 92-bet.

[2] O'zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharh. – T.: "O'zbekiston", 2001. 92-bet.

Inson va fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklariga putur etkazmasligi shart.

Inson va fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari quyidagi hollarda cheklanishi mumkin:

– davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid qilganda;
– konstitutsiyaviy huquq asoslariga xavf solganda;
– aholini sog‘lig‘i va ahloqiga zarar etkazganda;
– boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga putur etkazganda;
– shuningdek, favqulodda holat yoki harbiy holat sharoitida.

4.2. Fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari

Fuqarolik shaxsning aniq bir davlatga siyosiy va huquqiy mansubligini bildiradi. Aniq bir davlat fuqaroligini qabul qiluvchi shaxs mazkur davlat qonunlari va farmonlarini bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. O‘z navbatida, davlat ham o‘z fuqarolari uchun inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi. “Fuqarolik – bu shaxs bilan davlat o‘rtasidagi barqaror va doimiy siyosiy-huquqiy aloqa bo‘lib, bunda ularning o‘zaro huquq, burch va majburiyatlari o‘z ifodasini topadi. Bunday aloqalar inson va fuqarolarning qadr-qimmati, asosiy huquqlari va erkinliklarini tan olish hamda hurmatlashga asoslanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, fuqaro bilan davlatning o‘zaro majburiyatga egaligi prinsipi respublika konstitutsiyaviy qonunchiligida birinchi marotaba mustahkamlab qo‘yildi. Bu siyosiy tizim demokratligi va xalqchilligining o‘ta muhim ko‘rsatkichidir”.[1]

Asosiy Qonunning 21-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi.

O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo‘lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi”.

Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida har bir kishi fuqaro bo‘lish huquqiga ega. Hech kim fuqarolik huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharx. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. 99-100-betlar.

Qonunlarda belgilab qo‘yilganidek, O‘zbekistonda tug‘ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e’tiqodidan qati nazar, respublikaning teng huquqli fuqarosi bo‘lishga munosibdir. Avlod-ajdodlari yoki o‘zlari o‘tmishdagi fojiali voqealar sababli xorijga ketib qolishga majbur bo‘lgan o‘zbeklar ham respublika fuqarolari bo‘lishlari mumkin.

O‘zbekistonda fuqarolik huquqi fuqarolik huquqiga taalluqli manbalar bilan tartibga solinadi va himoya etiladi. Fuqarolik huquqining manbalari deganda, fuqarolik huquqi munosabatlarini tartibga soladigan me’yoriy hujjatlar tushuniladi.

Fuqarolik huquqi manbalariga respublikada oliy davlat vakillik organi, qonun chiqaruvchi hokimiyat-Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi kiradi. Bu manbalar ma’lum shaklda qonunlar va me’yoriy huquqiy hujjatlar asosida ifodalanishi ham mumkin. Ko‘rinib turibdiki, fuqarolik huquqi” manbalari tushunchasi “fuqarolik qonunlari” tushunchasidan kengroqdir. Zero fuqarolik huquqiga oid munosabatlar nafaqat qonunlar, balki qonun osti hujjatlari (masalan, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, idoraviy hujjatlar va boshqalar) bilan ham tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolik qonunchiligi uchun ham yuridik manba hisoblanadi. Asosiy Qonunda huquqning, jumladan, fuqarolik huquqining ham asosiy tamoyillari mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 18, 27, 36, 42, 53, 54-moddalari bevosita fuqarolik huquqi munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. Masalan, Konstitusiyaning 18-moddasida teng huquqlilik to‘g‘risida so‘z borsa, 27-moddada esa inson sha’ni, qadr-qimmatining qadrlanishi to‘g‘risida gap boradi.

Asosiy qonunda belgilab qo‘yilganidek, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatiladi. “Buning ma’nosi: birinchidan, davlatning yagonaligi, mustahkamligi va yaxlitligidir; ikkinchidan, barcha fuqarolar, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolari, birdek siyosiy-huquqiy maqomga ega, qonun oldida teng va davlat-huquqiy munosabatlarining to‘laqonli sub’yekti hisoblanadilar; uchinchidan, jumhuriyatning butun hududida O‘zbekiston fuqarolariga ularning konstitutsiyaviy va boshqa huquq va qonuniy manfaatlarining davlat-huquqiy muhofazasi tayinlanadi. O‘zbekiston fuqarolariga berilgan imtiyoz va afzalliklar qonunchilik hujjatlari bilan belgilanib, ular

ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart”.[1]

Ma’lumki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi suveren davlat sifatida O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi. Shu sababli Qoraqalpog‘iston fuqarolariga O‘zbekiston suvereniteti daxl qilib, ularga davlat homiyligini ta’minlaydi. O‘zbekistonning qonunlari Qoraqalpog‘iston hududida majburiydir. Shu bilan birga bu qonunlar Qoraqalpog‘iston fuqarolarining huquqiy mavqeini O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining mavqeiga tenglashtiradi[2], deyilgan.

Konstitutsiyaning 21-moddasi to‘rtinchi bandida fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanishi ta’kidlangan.

Fuqarolikka ega bo‘lish va fuqarolikni yo‘qotish asoslari har bir davlatning Konstitutsiyasi va fuqarolik to‘g‘risidagi qonunlari asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyundagi “Fuqarolik to‘g‘risida”gi qonunida fuqarolikka qabul qilish asoslari, unga ega bo‘lish va fuqarolikni yo‘qotish tartibi belgilangan. Ana shu Qonunga asosan fuqarolikni qabul qilish teng asoslarga ko‘ra quyidagi hollarda amalga oshiriladi: tug‘ilishiga ko‘ra fuqarolik berilishini so‘rab ariza berilishi bilan, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro shartnomalarda ko‘zda tutilgan boshqa usullar bilan. Shu qonunning 12-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston fuqaroligiga mansubligini isbotlovchi dalillari bo‘lmagan shaxslar fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar hisoblanadilar.

Ma’lumki, fuqarolikka qabul qilish har bir davlat oldida bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Iqtisod, siyosat, ijtimoiy ta’minot, ekologiya, mamlakat xavfsizligi, uy-joy va oziq-ovqat ta’minoti, tibbiy xizmatga oid muammolar bunga misol bo‘ladi.

Fuqarolik to‘g‘risidagi respublikamiz qonunida belgilab qo‘yilishicha, O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish sharti quyidagilardan iborat:

Birinchidan, chet el fuqaroligidan voz kechish, ikkinchidan, so‘nggi besh yil davomida O‘zbekiston hududida doimiy yashaganlik, uchinchidan, qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi, to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tan olish va uning talablarini bajarish.

Ana shu shartlar bajarilganligi davlat vakolatli organlari tomonidan o‘rganib chiqilgach, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilish to‘g‘risida”gi qaroriga

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharh. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. 100-101-betlar.
[2] O‘sha asar, 102-bet.

asosan shaxsning iltimosi qondirilishi mumkin.

Buning aksicha, agar shaxs O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishni yoqlab chiqayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy prinsiplariga zid bo‘lgan partiyalar va o‘zga tashkilotlarga a’zo bo‘lsa, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq jazolanadigan xatti-harakatlar uchun ozodlikdan mahrum etilgan va jazoni o‘tayotgan bo‘lsa, uni O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risidagi iltimosnomasi rad etiladi”.[1]

Ikki davlat fuqaroligiga mansublik achinarli holdir. Bu bevatanlik bilan barobardir. Mamlakatimizda muayyan kishilar yoki ayrim millat yohud etnik guruhlarning ikki davlat fuqarosi bo‘lishigina siyosiy, na huquqiy asos bor, – deydi Islom Karimov.

Bosh Qonunimizning eng muhim jihatlaridan yana biri shundan iboratki, unda “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi” (22-modda) deyilgan.

Davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomaning 23-moddasida ta’kidlanishicha, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar, deb aniq-ravshan belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining ettinchi, sakkizinchi, to‘qqizinchi hamda o‘ninchi va o‘n birinchi boblaridagi bir nechta moddalarda shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, inson huquqlari erkinliklarining kafolatlari, fuqarolarning burchlari kabi o‘ta dolzarb, mazmun-mohiyatan o‘zaro yaqin, bir-birini to‘ldiradigan masalalarga ham katta e’tibor berilganini alohida ta’kidlash zarur.

4.3. Inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari masalalariga katta e’tibor berilgan. Shaxsiy huquq va erkinliklar inson va fuqarolarning asosiy

[1] Qarang: R.K. Qayumov, M.M. Mirhamidov, A.T. To‘laganov, O.T. Husanov, U.J. Hotamov. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish kursi. – T.: “O‘zbekiston”, 2005, 78-79-betlar.

huquqlari va erkinliklari tizimida alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham Asosiy Qonunning 24-31-moddalarida inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ma’no va mohiyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari mustahkamlab qo‘yilgan. Inson va fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasida qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan shaxsiy huquq va erkinliklari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga asoslangan va bu deklaratsiyada fuqarolarning huquqlari batafsil bayon etilgan.

Konstitutsiyada qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan shaxsiy huquq va erkinliklar keng va chuqur ma’nolidir. 24-moddada belgilab qo‘yilganidek, “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir”. Har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqidir. Insonning yashash huquqiga daxl etish, tajovuz qilishga hech kim haqli emas. Inson umriga zomin bo‘lish, hayotiga suiqasd qilish og‘ir jinoyat hisoblanadi. Bu haqda Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 3-moddasida “Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir”, deb belgilab qo‘yilgan. Insonning yashash huquqi qonun bilan muhofaza etiladi.

Shu bilan birga, agar shaxsning jinoyatchi ekanligini qonun asoslab bermasa, uni hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas (25-modda). “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas” (26-modda).

Jinoyatchilikda gumon qilinayotgan shaxsning aybi isbotlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Bu umuminsoniy, umumbashariy qoidadir. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida aytib o‘tilgan. Ana shu qonuniy hujjatning 4-moddasi 2-bandida “hech kim sudning hukmi bo‘lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi”, – deyilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi uchinchi bandida yana bir muhim qoida bor. Unda “...Hech kimda uning rozili-gisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas” deya inson huquqlari qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan.

Inson va fuqarolar yuqorida aytib o‘tilgan shaxsiy huquq va erkinliklar bilan bir qatorda qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoya qilinish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ham egadir. Bu qoida Konstitutsiyaning 27-moddasida o‘z ifodasini topgan. Mazkur moddaning butun mazmun-mohiyati, ruhi, asosiy yo‘nalishi inson va fuqarolarning shaxsiy hayoti va uy-joy daxlsizligini qo‘riqlash va himoya qilishga qaratilgan: hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas”. Bunga qonun yo‘l bermaydi. Fuqarolar respublikamiz hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega ekanligi, qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnoligi Konstitutsiyaniing 28-moddasida qat’iy belgilab qo‘yilganidek, inson huquq va erkinliklari-dan asosiysi, erkin ko‘chib yurish, ya’ni yashash joyini o‘zi tanlash huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakatimiz hudu-dida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi, undan chiqib ketishi va qaytib kelishi, shuningdek, xohlagan mamlakatga chiqib ketish va o‘z mamla-katiga qaytib kelish huquqiga ega. O‘zbekiston fuqarosining chet elga doimiy yashashga, shaxsiy va jamiyat ishlari bilan, sayyoh sifatida, ishga, davolanishga va xizmat safariga chiqishi uning erkin huquqi hisoblanadi.

Konstitutsiyada qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari orasida fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 29-moddasiga binoan “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratil-gan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga talluqli bo‘lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin”.

Bu huquq va erkinliklar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 19-moddasiga asoslanadi. Mazkur moddada aytilishicha, “Har bir inson maslak erkinligiga va bularni erkin ifodalash huquqiga egadir; ushbu huquq hech bir halalsiz o‘z maslaklariga rioya etish erkini va axborot va g‘oyalarni har qanday vositalar bilan hamda davlat chegaralaridan mustaqil tarzda qidirish, olish va tarqatish erkini qamrab oladi”.

Kimda-kim o‘zi istagan axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanib konstitutsiyaviy tuzumga qarshi kurashmoqchi bo‘lsa, bunga qonun mutlaqo yo‘l qo‘ymaydi. Olingan barcha ma’lumotlardan insoniyat tinchligi va xavfsizligiga, demokratiyaga putur etkazish va jamiyatning mafaatlariga qarshi maqsadlarda foydalanish O‘zbekiston qonunlarida taqiqlanadi. Shuningdek, urushni targ‘ib qilish, milliy, irqiy yoki diniy adovat qo‘zg‘atish, O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq dav’vat qilish va boshqa shunga o‘xshash harakatlar qat’iyan man etilgan. “Davlat manfaatlariga daxldor yoki boshqa sirlarni saqlash niyatida so‘z erkinligi va ularni bayon qilish huquqi chegaralangan bo‘lib, bunday chegaralashning sharti davlat sirlarini oshkor qilish siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka, davlatning mudofaa qudratiga, davlat va jamiyatning bosh-qa o‘ta muhim manfaatlariga zarar etkazishi mumkinligi bilan asoslanadi”.[1]

Davlat tomonidan qo‘riqlanadigan va maxsus ro‘yxatlar bilan chegaralab qo‘yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy-harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o‘zga xil ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasining davlat sirlari hisoblanadi.

Davlat sirlarini oshkor qilish mumkin emas.

Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo‘qotish ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 163-moddasiga binoan jinoyat hisoblanadi. “Davlat sirlari bilan ishlovchi shaxslar davlat sirlari bilan ishlashga doir yo‘riqnomalarda ko‘rsatilgan barcha qoidalarga qat’iy rioya qilishlari shart. Davlat sirlari bilan ishlashga doir yo‘riqnomalarda ko‘rsatilgan qoidalarni buzish ba’zi hollarda davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Bunda ular bilan yot shaxslarning tanishib chiqishi va O‘zbekiston Respublikasining manfaatlariga zarar etkazilishiga aniq imkoniyatlar yaratiladi”.[2] Bu jinoyatlar uchun javobgarlikka faqat shu ma’lumotlar ishonib topshirilgan shaxslar tortiladi. Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yo‘qotilishiga sababchi bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 163-moddasida belgilangan muddat bo‘yicha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadilar.

Bosh qonunimizning 30-moddasida bayon etilgan “O‘zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharx – T.: “O‘zbekiston”, 2001.
[2] M.H. Rustamboev. Jinoyat huquqi. maxsus qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2003, 209-bet.

bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim”, degan muhim konstitutsiyaviy qoida xalqimizning tub manfaatlarini ifodalaydi. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq fuqarolar o‘zlarining manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqiga ega. Ularni bu huquqdan foydalanishdan hech kim, biron-bir mansabdor shaxs ham mahrum qila olmaydi. Basharti, fuqarolarning bu huquqi buzilgudek bo‘lsa, unday hollarda ular sudga murojat qilishga haqlidirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Shaxsiy huquq va erkinliklar” bobining 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, deb belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning ushbu moddasida uchta muhim masalaga, ya’ni hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslik huquqiga egaligi va nihoyat, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligiga alohida e’tibor berilgan.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning shaxsiy hu-quq va erkinliklari bilan bir qatorda ularning siyosiy huquqlari ham bel-gilab berilgan. Bosh Qonunning VIII bobi fuqarolarning siyosiy huquq-lariga bag‘ishlangan. Respublika Konstitutsiyasinng “Siyosiy huquqlar” deb nomlangan bu bobida inson siyosiy huquqlarining kafolatlari asos-lab berilgan. Inson siyosiy huquqlarining bunday kafolatlari O‘zbekis-tonda qurilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

Siyosiy huquqlar inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari tizimida o‘ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Siyosiy huquqlar har bir shaxsning jamiyatning siyosiy hayoti va munosabatlarida qanday ishtirok qilinishini belgilab beradi. “Har bir inson, u qanday siyosiy tuzumda faoliyat ko‘rsatishidan qat’i nazar, siyosiy huquqlardan u yoki bu darajada foydalanadi. Siyosiy faolligi kuchli kishining siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlardagi ishtiroki ancha keng bo‘ladi, u o‘zinnig siyosiy huquqlari va erkinliklari mohiyatini chuqur anglab etadi va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Bu imkoniyat, har bir insonga o‘zining siyosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda katta yordam beradi... Insonning siyosiy huquqlari umumiy mohiyatga ega bo‘lgan tartib-qoidalar yig‘indisidir. Buning ma’nosi

shuki, siyosiy huquqlar jahondagi barcha millatlar va xalqlarga, turli irqqa mansub kishilarga daxldordir”.[1]

Insonning siyosiy huquqlari umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan tartib-qoidalar majmuidir, degan g‘oya BMT tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”ning 15-moddasida “Har bir insonning fuqarolik huquqi bor”, degan yuqoridagi talablarga to‘la mos keladi.

Shu narsani alohida ta’kidlash kerakki, siyosiy huquqlar shaxsiy huquqlar singari insonning tug‘ilishi bilan paydo bo‘lmay, shaxsning fuqaroligi natijasida foydalanishi mumkin bo‘ladigan huquqlardir. Agar shaxs fuqaro bo‘lmasa, ya’ni ma’lum bir davlatga huquqiy mansub bo‘lmasa, siyosiy huquqlardan foydalana olmaydi.[2]

Siyosiy huquqlar insonlarning, fuqarolarning siyosatda, aniqrog‘i, davlat organlarini tuzishda, deputatlar, mansabdor shaxslarni saylashda, ularning faoliyatini nazorat qilishda ishtirokini ta’minlaydigan huquqlardir. Siyosiy huquqlarning turlari xilma-xil. Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining “jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda...” ishtirok etish huquqining shakllari ko‘rsatilgan. Bular o‘zini-o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish, davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish (32- modda) va boshqalardir.

O‘zbekiston Respublikasiing fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi qonun asosida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 117-moddasida O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari saylash va saylanish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Bu shaxsning siyosiy huquqlari qonun asosida kafolatlanganini ko‘rsatadi.

Qonunlarda mustahkamlab qo‘yilganidek, fuqarolar jamiyat hayotiga doir masalalarni hal qilishda o‘z fikr-mulohazalarini, takliflarini siyosiy hokimiyatlarga bildirishlari, ular oldiga aniq talablar qo‘yishlari va bu talablarni amalga oshirishda yig‘ilishlarda, ommaviy axborot vositalaridan foydalanishlari mumkin. Konstitutsiyaning 33-moddasida O‘zbekiston fuqarolari jamiyatning siyosiy hayotiga qonunlar doirasida ijtimoiy faollik ko‘rsatib, ta’sir etishlari mumkinligi ko‘rsatiladi. Bu ishning fuqarolar mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. “Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega”, – deyiladi o‘sha moddada.

---

[1] Inson huquqlari. – T.: “O‘zbekiton”, 1997, 111-112-betlar.
[2] O.Husanov, O, Karimova, X.Azizov, H.To‘ychieva, Z.Karimova. Inson huquqlari. – T.: “Sharq”, 1997, 76-bet.

Fuqarolarning siyosiy ongini o‘stirish va siyosiy faolligini oshirishda kasaba uyushmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy qonunning 34-moddasida ko‘rsatilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxsarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”.

O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi davlat organlariga, muassasalariga, xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Buni Konstitutsiyamizning “Siyosiy huquqlar” bobi 35-moddasida qonun bilan mustahkamlab qo‘yilganligi diqqatga loyiqdir. Ushbu moddada “Har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi shart”ligi belgilangan.

Qonunda ko‘rsatilishicha, fuqarolarning vakolatli davlat organlariga, muassasalar yoki xalq vakillariga taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojat qilishlari yozma yoki og‘zaki shaklda bo‘lishi mumkin. Ariza va shikoyatlar vakolatli organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqilishi zarur. Shikoyatlar adolatli ravishda ko‘rib chiqilsa, buning oqibatida fuqarolarning buzilgan huquqlari qayta tiklanadi, haq joyida qaror topadi, odamlarning jamiyat va davlatga bo‘lgan ishonchi yanada mustahkamlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning shaxsiy va siyosiy huquqlari bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari ham mustahkamlab qo‘yildi. Insonning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari uning yashashini ta’minlaydi, turmush tarzini yaxshilaydi, sog‘lig‘ini tiklaydi,bilimini oshiradi, madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondiradi.

Insonning iqtisodiy huquq va erkinliklari ijtimoiy sohadagi huquq va erkinliklari bilan mazmunan va mohiyatan o‘zaro birlik va aloqadorlikdadir. Ularning har ikkalasi ham insonning yashashi, faoliyat ko‘rsatishi, erkin kamol topishi, qadr-qimmati uchun o‘ta muhim va zarurdir. “Iqtisodiy huquq o‘z mohiyatiga ko‘ra,muayyan ijtimoiy boylikka

nisbatan huquqqa ega bo‘lishdir. Bunday ijtimoiy boyliklar turli xilda bo‘lib, ular fuqarolarning siyosiy, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishini ko‘zda tutadi. Insonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qondirishda uning huquqlari va erkinliklari muhim o‘rin tutadi va bunday huquq va erkinliklardan maqsadga muvofiq tarzda foydalanish shaxsning kamol topishi va rivojlanishiga yordam beradi”.[1]

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 36-42-moddalarida mustahkamlab qo‘yilgan. Bu huquqlar quyidagilardan iborat: “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi” (36-modda); “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir...” (37-modda); “Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi” (38-modda); “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega...” (39-modda); “Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega” (40-modda). Shular bilan birga O‘zbekiston fuqarolari Konstitutsiyaga ko‘ra “...bilim...” (41-modda), “...ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi”ga (42-modda) ham egadirlar.

4.4. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, fuqarolarning burchlari

Inson huquqlari va erkinliklarini qonunda va amalda ta’minlamasdan, buning uchun etarli kafolatlar yaratmasdan turib demokratik jamiyat qurib bo‘lmaydi. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi, kafolatlaydi. “Kafolatlash – davlatning o‘z fuqarolariga huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun tegishli sharoitlar yaratish va ularni kerakli vositalar bilan ta’minlashidir. Kafolatlash davlatning o‘z fuqarolariga bo‘lgan munosabatini bildiradi. Inson huquqlari va burchlarini ta’-minlashning iqtisodiy, siyosiy va yuridik kafolat turlari bor”.[2]

---

[1] Inson huquqlari. – T.: “Sharq”, 1997, 124-bet.

[2] A.Saidov, U. Tadjixonov. Davlat va huquq nazariyasi. 2-jild. Huquq nazariyasi. – T.: “Adolat”, 2001-427-428-betlar.

Inson huquqlari va burchlarini ta'minlashning zarur sharoitlaridan biri iqtisodiy kafolatlar bo'lib, ularga vujudga kelgan ishlab chiqarish munosabatlari, iqtisodiy tizim, barcha mulk turlarining teng huquqliligi, ularning davlat tomonidan bir xilda muhofaza qilinishi kiradi. "...siyosiy kafolatlarga-jamiyat siyosiy tizimi, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi, hokimiyatni xalqning o'zi amalga oshirishi, jamoat uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlarning jamiyat siyosatini amalga oshirishda, davlat hokimiyatini shakllantirishda faol ishtirok etishlari kiradi.

Uchinchidan, yuridik kafolatlarga – Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilganligi, davlat tomonidan butun davlat tashkilotlariga, mansabdor shaxslarning zimmasiga ushbu huquq va majburiyatlarni ta'minlash vazifasi yuklatil-ganligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mavjudligi kiradi".[1]

O'zbekiston davlati fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi, chunki davlatning vazifasi fuqarolarni barcha vositalar bilan huquqiy kafolatlashdan iborat ekanligi Konstitutsiyaning 43-46-moddalarida o'zining huquqiy ifodasini topgan. Uning 43-moddasida "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi", deyilgan. Inson va fuqarolarning Konstitutsiyada va qonunlarda mustahkamlangan huquqlaridan biri – uning yashash huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qi-lish eng og'ir jinoyat ekanligi Konstitutsiya va boshqa qonunlarda qayd etilganini ko'rib chiqdik. Dunyoda atigi bir marta yashaydigan insonning hayotiga, sog'lig'iga, qadr-qimmati, or-nomusiga, ozodligiga qarshi harakat qilishga hech kimning haqqi yo'q. Agar kimda-kim shunday harakat qilsa, qasddan odam o'ldirsa tegishli jazosini olishini davlat kafolatlaydi.

Insonga tuhmat, qilish uning sha'ni va obro'siga putur etkazish, shaxsiy hayotiga aralashish, qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirish, tintuv o'tkazish yoki uni ko'zdan kechirish, telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilish jinoyat hisoblanadi. Bu harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi tegishli moddalarida jinoiy jazo belgilangan. Bunday noto'g'ri qilmishlarga sa-babchi bo'lganlar jazoga tortilishi qonun bilan kafolatlanadi. Fuqarolar-ning Konstitutsiyada qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan barcha siyosiy huquqlarining amalda ta'minlanishini ham davlat kafolatlaydi. Qonunlarda belgilab qo'yilganidek, hech kimga u yoki bu siyosiy

[1] O'sha asar, 428-bet.

partiya a'zosi bo'lishga to'sqinlik qilish yoki boshqa jamoa birlashmalariga kirishga majburlash huquqi berilgan emas. Bunday harakat g'ayriqonuniy hisoblanadi va aybdorlar qonun asosida jazoga tortiladi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlovchi, hayotda to'la amalga oshirilishini ta'minlovchi juda ko'plab qonunlar, qarorlar, farmoyishlar to'xtovsiz ravishda chiqib turibdi. "Inson va fuqarolarning mulkdor bo'lishi, mukka egalik qilishi, undan foydalanish va tasarruf etishi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va mulkchilik to'g'risidagi qonunida bayon etilgan va "Mulkchilik huquqining kafolati va himoya qilinishi" bo'limida tasdiqlangan. Ushbu qonun belgilangan mulkchilik munosabatlarining barqarorligini kafolatlaydi. Shunga muvofiq ravishda mulkdorning mol-mulkini majburan tortib olishga yo'l qo'yilmaydi. Mulkdor o'zga shaxs tomonidan qonunga hilof ravishda egallab olingan mol-mulkini talab qilishga, mulkka egalik huquqlaridan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa-da, bartaraf etishni talab qilishi mumkin".[1]

Inson va fuqarolarning shaxsiy siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari va erkinliklari singari madaniy va ma'naviy huquqlari ham qonun asosida himoya qilinadi va uni buzishga qaratilgan har qanday faoliyat taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning madaniy-ma'naviy huquqlari ham kafolatlangan. Buni 41-42-moddalar misolida ko'rish mumkin.

Qayd etib o'tilganlar bilan bir qatorda O'zbekistonda har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining qonunga hilof hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi ham kafolatlanadi (44-modda). Konstitutsiyamizning 45-moddasida ta'kidlan-ganidek, "Voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksa-larning huquqlari davlat himoyasidadir". Shuningdek, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" (46-modda). "Oila... jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" (63-modda)dir.

Ma'lumki, inson va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan asosiy huquq va erkinliklari bilan birga bir qancha burchlari ham mavjud. "Inson va fuqaroning huquqiy maqomi faqat huquqlar va erkinliklardangina iborat emas. Unga majburiyatlar majmui ham kiradi. Shubhasiz, inson huquqlari mo''tabar va muqaddasdir. Biroq turli-tuman huquqiy munosabatlar

[1] O.Husanov, O, Karimova, X.Azizov, H.TO'ychieva, Z.Karimova. Inson huquqlari. Maxsus kurs. – T.: "Sharq", 1997, 104-bet.

ishtirokchisi bo‘lmish inson (fuqaro) faqat huquq va imtiyozlardan foydalanib qolmasdan, jamiyat, davlat hamda boshqa fuqarolar oldida muayyan majburiyatlar ham o‘taydi. Huquqlar haqida gapirilsa-yu, majburiyatlar esga olinmasa, mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi”.[1]

Har qaysi inson, har bir fuqaro o‘zining haq-huquqlarini, erkinliklari va imtiyozlarini bilsa va ulardan unumli va oqilona foydalansa-yu, ammo jamiyat va davlati, jamoasi, xalqi va millati oldidagi eng muhim burchi, mas’uliyati va majburiyati nimalardan iboratligini bilmasa va chuqur his etmasa, bu adolatdan emas, albatta. Har bir inson va fuqaro jinsi, millati, mansabidan qat’i nazar, unga ta’lim-tarbiya bergan, voyaga etkazgan o‘z xalqi, millati va Vatani oldida bir umr qarzdor va burchlidir. O‘z huquqi, erkinligini talab qiladigan har bir fuqaro ana shu huquq va erkinliklarni ta’minlab bergan jamiyat va davlat oldidagi o‘zining fuqarolik burchini unutmasligi lozim. Prezident Islom Karimov inson va fuqarolarning huquq va majburiyatlarining birligi, o‘zaro ajralmasligini ko‘rsatib, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Agar sezgan bo‘lsangiz, bizlar ko‘proq talab qilamiz. Huquq erkinlik haqida ko‘p gapiramiz. Bu aslida to‘g‘ri va adolatli. Chunki inson huquqini qonunda amalda ta’minlay olmagan, buning uchun etarli kafolatlar yaratib bera olmagan jamiyat adolatli jamiyat emas.

Ammo bu ishning bizlar ko‘pincha unutib qo‘yadigan ikkinchi jihati ham bor. Adolatli jamiyat qurish uchun, eng avvalo, shu tabarruk zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs, o‘zini ayni shu yurt farzandi deb biluvchi inson o‘z davlati, o‘z xalqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga etkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak. Bu gap menga ham, sizga ham-barchamizga birdek tegishlidir.

Sodda qilib aytganda, har qanday fuqaro, har bir rahbar, har birimiz: “Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?” deb emas, balki: “Men o‘zim Vatanimga, el-yurtimga nima berdim” deb o‘ylashimiz kerak.

Agar shu ulug‘ fazilat barchamizning ongimizdan, qalbimizdan joy topsa, muqaddas e’tiqodga aylansa, ana shundagina oldimizda turgan buyuk maqsadlarga erishmog‘imiz mumkin”.[2]

Shuning uchun ham fuqarolarning burchlari haqidagi dolzarb masala O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zining chuqur ifodasini topgan. Asosiy Qonunning 47-52-moddalari fuqarolarning burch-

---

[1] U.Tadjixonov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyaviy huquqi. – T.: “Sharq”, 2001, 380-bet.

[2] Islom Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin, 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 1996, 200-201-betlar.

lariga bag‘ishlangan. Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan va fuqarolar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan burchlar nimalardan iborat, degan savol tug‘ilishi turgan gap. Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

Barcha fuqarolarning eng muhim majburiyatlaridan biri Konstitusiyada belgilab qo‘yilgan burchlarini bajarishdan iboratdir (47-modda). Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish (48-modda) ham shular jum-lasidandir. “Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish-nafaqat ularning qoidalarini buzmaslik, balki fuqarolar o‘z faoliyati, hayot tarzi bilan konstitutsiyaviy prinsip va asoslarni, qonunchilik normalarini real voqelikka aylantirishga ko‘maklashishlari demakdir”.[1]

Konstitutsiyada O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrash fuqarolarning burchi ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida ta’kidlab o‘tilgan. Asrlar, ming yillar mobaynida yaratilib, asrab-avaylab, sayqal topib, takomillashib, avlodlardan avlodlarga o‘tib, bizgacha etib kelgan tarixiy, madaniy-ma’naviy meros, Ismoil Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Abu-Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur singari buyuk zotlarning diniy-ahloqiy, tabiiy-ilmiy, falsafiy ta’limotlari o‘zbek xalqining, butun insoniyatning bebaho ma’naviy boyligidir.

O‘zbek xalqi o‘tmish madaniy-ma’naviy boyliklarini ko‘z qorachig‘idek avaylab kelmoqda. Ya’ni “Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir” (49-modda).

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy burchlaridan birini tashkil etadi. Fuqarolar zimmasidagi bu majburiyat Konstitutsiyaning 50-moddasida belgilangan.

Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish zarurligi haqidagi konstitutsiyaviy qoida zamirida juda katta ma’no, juda katta zaruriyat va juda katta hayotiy ehtiyoj bor. Chunki, insoniyat jamiyati tabiat bilan, tabiiy boyliklar bilan, uni qurshab olgan atrof tabiiy muhit bilan tirik. Insoniyat hayotini va borlig‘ini, jamiyat taraqqiyotini tabiiy muhitdan, tabiiy-iqtisodiy boyliklardan ayricha holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Insoniyat dunyosi bilan tabiiy olam uzviy, ob’yektiv aloqadorlikdadir. Atrof tabiiy muhit bilan nihoyatda ehtiyotkorona, oqilona, odilona munosabatda bo‘linmasa, uning boyliklaridan istiqbolni

[1] U.Tadjixonov, H.odilqoriev, A.Saidov. O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyaviy huquqi. – T.: “Sharq”, 2001, 383-bet.

o‘ylab, olis kelajakni ko‘zlab, kelgusi avlodlar taqdiri va manfaatlarini ham nazarda tutib, tejab-tergab, isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘ymay foydalanilmasa, buning oqibati juda xunuk bo‘ladi, bundan ayrim xalqlar va mamlakatlargina emas, balki sayyoramizdagi barcha insoniyat cheksiz azob tortadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida, “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, deyilishi bejiz emas, albatta.

Atrof tabiiy muhitga har doim va hamisha ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, unga zarar etkazmaslik, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish har bir inson va fuqaroning asosiy burchi va vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 51-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar”.

Mamlakatimizda fuqarolarning soliq to‘lash majburiyatini qonunlashtirilishi bejiz emas. Qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash borasidagi konstitutsiyaviy majburiyat jamiyatda yashayotgan va davlat faoliyatining natijalaridan foydalanayotgan insonga fuqaroga qo‘yilgan eng oddiy talabdir.

“Davlat soliqlar yordamida mudofaa qobiliyatini, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlaydi, iqtisod, maorif, fan, sog‘liqni saqlashni rivojlantiradi, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan, kompleks ijtimoiy dasturlarni, butun jamiyat manfaatlari yo‘lidagi boshqa faoliyatni amalga oshiradi”.[1]

O‘zbekiston fuqarolari soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashlari shart. Bu majburiyat 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan va xorijiy fuqarolardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida”gi, 1993 yil 7 mayda qabul qilingan “Mahalliy soliq va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonunlarda hamda O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, boshqa qonuniy hujjatlar va aktlar orqali tartibga solingan.

1998 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 5-moddasiga muvofiq, respublika hududida umumdavlat soliqlari, mahalliy soliq va yig‘imlar amal qiladi.

Soliq kodeksining 7-modasida belgilab qo‘yilishicha, mahalliy soliqlarga “mulk solig‘i, yer solig‘i, reklama uchun soliq, transport vositalarini olib-sotganlik uchun soliq, savdo yig‘imi uchun yig‘im,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharh. – T.: “O‘zbekiston”, 2001, 267-bet.

jumladan, alohida tovar turlari bilan savdo qilish uchun litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotransportni qo‘yish uchun yig‘im, obodonlashtirish ishlari uchun yig‘im kiradi.[1]

Soliq to‘lashdan bosh tortganlik, soliq qonunlarini buzganlik uchun soliq to‘lovchi shaxslar tegishli ma’muriy va jinoiy javobgarlikka tortilishlari Soliq kodeksida belgilab qo‘yilgan. Soliq to‘lovchining javobgarlikka tortilishi uni soliqlar va yig‘imlar to‘lash majburiyatidan ozod qilmaydi.[2]

O‘zbekiston fuqarolarining eng asosiy konstitutsiyaviy burchlaridan biri – O‘zbekiston Respublikasining himoya qilishdir. Asosiy Qonun-ning 52-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish – O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar”.

O‘zbekiston Respublikasini – jonajon Vatanimizni himoya qilish, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash haqidagi konstitutsiyaviy qonun-qoida zamirida juda katta ilmiy, falsafiy, siyosiy-huquqiy ma’no-mohiyat bor. Buni hech unutmasligimiz kerak.

Vatan bu – ajdodlar maskani, el-yurt, xalq, millat voyaga etgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari shakllanib, chuqur ildiz otib, kamol topadigan zamindir.

Vatan onadek tanhodir, yagonadir. Chunki, u biz uchun ko‘z ochib ko‘rgan dunyomiz. Biz voyaga etgan ma’vodir. Tog‘u toshidan yer-suvigacha, sabza-giyohidan dov-daraxtigacha umrimizga jon qadar payvand.

Vatan deganda hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ta’lim-tarbiya olib voyaga etgan, necha-necha ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning meh-nati, aql-idroki, tafakkuri sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi.

O‘zbekiston Respublikasida har bir fuqaroning belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni bajarishga majburligi bo‘yicha bir qator qonunlar qabul qilingan. Ularga “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umu-miy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “Muqobil xizmat to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qa-bul qilingan “Harbiy qasamyod to‘g‘risida”gi qonun va qarorlarni misol sifatida eslatib o‘tilsa bo‘ladi. Mazkur qarorlarda respublikaning hudu-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharh – T.: “O‘zbekiston”, 2001. 268-bet.
[2] O‘sha asar, 269-bet.

diy yaxlitligini, mustaqilligini himoya qilish fuqarolarning konstitutsiyaviy burchi ekanligi belgilab qo‘yilgan. “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasida ko‘rsatib o‘tilganidek, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq mamlakatni mudofaa qilish davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasini tashqaridan bo‘ladigan qurolli tajovuzlardan himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchidir.

Vatan himoyasi armiya safida xizmat qilish-harbiy xizmatni o‘tash har bir yigit uchun o‘ta mas’uliyatli, ayni paytda nihoyatda sharafli vazifadir. Askar Vatanini himoya qilar ekan, birinchi navbatda o‘z ota-onasi, kindik qoni to‘kilgan tuprog‘i, yoru birodarlari, qadrdonlarini ko‘z oldiga keltiradi. Vatanni asl farzandlargina himoya qila oladi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Fuqarolik, oliy mavjudot, insonning haq-huquqlari, fuqarolarning manfaatlari, xalqaro hujjatlar, demokratik huquq va erkinliklar, qonun ustuvorligi, ustuvor tamoyillar, ijtimoiy adolat, fuqarolik huquqlari,, shaxsiy huquq, Davlat siri.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Inson huquqi, manfaatlari va erkinligi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Inson huquqlari nimalarga asoslanadi?
3. Inson va fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari qanday hollarda cheklanadi?
4. Fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari nimalardan iborat?
5. Yagona fuqarolik nima?
6. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish shartlarini gapirib bering.
7. Inson va fuqarolarning siyosiy huquqlarini gapirib bering.
8. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, fuqarolarning burchlari haqida nimalarni bilasiz?

V bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY-DAVLAT VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI

5.1. Milliy davlat va ma’muriy-hududiy tuzilish asoslari

“O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shahar-chalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi-dan iborat” (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida belgilab qo‘yilganidek, mamlakatimiz suveren demokratik respublika va musta-qil davlatdir. Hozirgi paytda mustaqil mamlakatimiz xalqi “markaz”ga xom ashyo etkazib berishga “ixtisoslashgan” chekka o‘lkada emas, mustaqil ravishda o‘z huquqini amalga oshira oladigan milliy davlatda yashamoqda.

O‘zbekiston milliy davlat sifatida:

– daxlsiz yer kengliklariga ega bo‘ldi;

– davlat tili sifatida o‘zbek tili qabul qilindi;

– Prezidentlik instituti ta’sis etildi;

– ma’muriy-hududiy qismlar tariximizga suyangan holda viloyat, tuman deb atalib, ularda hokimlik lavozimlari o‘rnatildi;

– xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olindi;

– o‘z Konstitutsiyasiga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston milliy davlatining shakllanishi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, istiqlol va taraqqiyot yo‘lidagi “O‘zbek modeli”ni ishlab chi-qish imkonini berdi. U esa mustaqil Respublikamizning uzoq muddatga mo‘ljallangan ichki va tashqi strategiyasini yaratishga asos bo‘ldi.

Har bir davlat mustaqilligining asosiy belgilaridan biri uning o‘z chegarasi doirasidagi yagona ma’muriy hududga ega bo‘lishidir. “O‘z-bekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qo-nunning 4 va 17-moddalarida ko‘rsatilishicha, Respublikamizning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir. O‘zbekistonning tarkibida bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududiy butunligi va musta-qilligi e’tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligining 1991 yil 21 dekabrda-gi Olmaotada imzolangan xalqaro shartnomasiga to‘la mos tushadi.

Har bir davlat hududi-davlat chegarasi doirasidagi yer kengliklari-dan iborat bo‘lishi xalqaro huquq me’yorlari talabidir. Yer kengliklari-

dagi tabiiy ob'yektlar shu davlatda yashovchi fuqarolarning moddiy boyligi hisoblanadi.

Davlat tuzilishi shakli – davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy tashkil etilishi, davlat bilan uni tashkil etuvchi qismlar o'rtasidagi, davlatning alohida qismlari va mahaliy organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteridir.[1]

Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi – har bir davlatni hududiy tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi bo'lib, u davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirish uchun tashkiliy jihatdan ajratilgan davlat hududining qismlaridir.

O'z maqsad va vazifalariga ko'ra davlatni hududiy jihatdan tashkillashtirish ma'muriy-hududiydan tashqari:

– iqtisodiy-hududiy (masalan, erkin savdo qiluvchi);

– harbiy-hududiy (masalan, O'zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, Markaziy, Shimoliy, Janubiy, G'arbiy, Sharqiy harbiy okruglar);

– siyosiy-hududiy (mas, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal etish uchun ajratiladigan mintaqalar);

– ekologik-hududiy (mass., Orol va Orolbo'yi ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofazaga muhtoj bo'lgan yer kengligining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) shaklida ham bo'lishi mumkin.

1996 yilning 30 avgustida Oliy Majlis "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy tuzilish, toponomik ob'yektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida" qonun qabul qildi. Ushbu qonunga ko'ra davlatning ma'muriy jihatdan ajratilgan hududiy tuzilishi davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni hamda ushbu qismlarning har birining huquqiy holatiga doir masalalarni qamrab oladi. Shu bois davlat tuzilishi qanday shaklda bo'lmasin yoki u rivojlanishning qanday bosqichida turmasin har bir suveren davlatning yer kengliklarining ma'muriy-hududiy jihatdan ma'lum bir qismlarga ajratib olish juda katta siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy ahamiyatga egadir.

Davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi davlat boshqaruvini osonlashtirish uchun, uning yer kengliklarini siyosiy nuqtai nazardan ma'lum bir qismlarga ajratib olish deb tushunish mumkin. Ma'muriy-hududiy tuzilish esa davlatning yer kengliklarini huquqiy davlat sub'yektlari, ya'ni mustaqil ijtimoiy-siyosiy yacheykalar (qismlar) tariqasida tashkillashtirilishidir.

---

[1] Davlat va huquqi nazariyasi. / H.B.Boboev va H.T.Odilqorievlarning umumiy tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000, 141-bet.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining to‘rtinchi bo‘lim, XVI bobi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi” deb nomlangan va (yuqorida aytib o‘tganimizdek, 68-modda) unda davlat tuzilishi yoki milliy davlat tuzilishining mohiyatidan kelib chiquvchi uning hududiy tuzilishi, davlat bilan uning tarkibiga kirgan bo‘laklari (qismlar), davlat munosabati shakllari va huquqiy holatlari tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi shaklan unitar respublikadir. Uni tuzilishining o‘ziga xos xususiyati tarkibida mustaqil Qoraqalpog‘iston Respublikasi mavjudligidir. Respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, o‘z tarkibida muxtor respublika bo‘lgan Qoraqalpog‘istonni ham mustaqil-suveren deb e’lon qildi. Bu mustaqillik to‘g‘risidagi deklaratsiyada va nihoyat mustaqillik asoslari to‘g‘risidagi qonunda, 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalari va Konstitutsiyaviy amaliyot O‘zbekistonning unitar davlat sifatidagi quyi-dagi belgilarini ko‘rsatadi:

– O‘zbekiston Respublikasi hududiy tuzilishi bo‘yicha yagona birlikni tashkil qiladi:

– davlat hokimiyati respublika hududida bir butunlikni tashkil etadi va ularning chiqargan hududiy hujjatlari butun O‘zbekiston hududiga taalluqlidir;

– qonunchilik tizimi ham butun O‘zbekiston hududiga taalluqli bo‘lib, O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi asosida amal qiladi;

– prokuratura organlari va sud hokimiyati tizimi butun O‘zbekiston hududida yagonadir;

– O‘zbekistonda tashqi siyosatni butun O‘zbekiston xalqining manfaatini ko‘zlab va uning nomidan faqat u saylab qo‘ygan Oliy Majlis va Respublika Prezidenti amalga oshirishi mumkin;

– O‘zbekistonda moliya, pul tizimi, soliq, bojxona tuzilishi va Respublika Qurolli Kuchlari, Milliy xavfsizlik va ichki ishlar organlari tizimi markazlashtirilgan;

– butun O‘zbekiston hududida yagona fuqarolik joriy qilingan.[1]

Bularning hammasi O‘zbekiston unitar respublikaligining dalolatidir.

Davlatning ma’muriy-hududiy bo‘linishi a) hududiy bo‘linish va b) ma’muriy-hududiy bo‘linish tarzida bo‘ladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Kostitutsiyasiga sharh. – T.: “O‘zbekiston”, 2001. 347-bet.

Siyosiy-hududiy bo‘linishda davlat hududida siyosiy jihatdan alohida mustaqil yoki muxtoriyat davlat bo‘lsa, bu davlatning hududiy bo‘linishi murakkab bo‘ladi.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishdagi davlat esa faqat ma’muriy-hududiy bo‘laklardan iborat bo‘ladi.

Ma’muriy-hududiy tuzilishni amalga oshirishda iqtisodiy, siyosiy, milliy-maishiy prinsiplarga asoslaniladi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi

O‘zbekiston Respublikasining 68-moddasiga asosan Respublikamizning ma’muriy-hududiy tuzilishi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat.

Respublika ma’muriy-hududiy birliklari tizimidagi eng yuqori va yirik bo‘g‘in viloyat deyiladi. Viloyat boshqa ma’muriy-hududiy bo‘laklarni o‘z tarkibiga oladi va joylarni markaz bilan bog‘laydi. Shuningdek, u o‘z tarkibidagi quyi hokimlik vakillik va ijroiya organlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, ularni umumdavlat va mahalliy manfaatlardan kelib chiqib, birlashtiradi. Yirik ma’muriy-hududiy bo‘linma sifatida viloyat barqaror bo‘lib, uning yiriklashishi yoki bo‘linishi iqtisodiy jihatdan asoslantirilishi zarur.

Hozir mamlakatimiz hududi Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahridan tashqari o‘n ikkita yirik viloyatlardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy bo‘linishidagi o‘rtancha bo‘g‘in tuman deb ataladi va u qishloq joylaridagi iqtisodiy, xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy hayotga rahbarlik qiladi. Hozir Respublikamizda 161 dan ortiq tuman bor.

Toshkent va Samarqand shaharlarida shahar tumanlari ham mavjud. Ularda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari saylab qo‘yish orqali boshqariladi.

Shaharlar ma’muriy-hududiy bo‘linishning bir bo‘g‘ini bo‘lib, ular madaniy va ilmiy markaz hisoblanadi. Ular aholi soni, iqtisodi, madaniy, ilmiy va o‘quv maskanlarining mavjudligi, sanoatining rivojlanganligiga qarab farqlanadi.

Respublikamizda respublika, viloyat va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar tizimi mavjud.

1996 yil 30 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi, toponomik ob’yektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi qonunda ushbu shaharlarning aholi soni, sanoati va ishlab chiqarishiga qarab toifalash tartibi ko‘rsatilgan.

Masalan, o‘ttiz mingdan kam bo‘lmagan aholiga ega, sanoat ahamiyati, iqtisodiy va ma’naviy markaz bo‘lgan shaharlar viloyat va Respublika (Qoraqalpog‘iston Respublikasi)ga bo‘ysunuvchi shaharlar turkumiga kiradi. Mamlakatimizda ayni kunlarda 51 ta ana shunday shahar bor.

Bundan tashqari, tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar ham mavjud bo‘lib sanoat korxonalari, kommunal xo‘jaligi, davlat uy-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muassasalari, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari mavjud bo‘lgan hamda aholisi 7 ming kishidan kam bo‘lmagan va uning uchdan ikki qismini ishchi, xizmatchi hamda ularning oilalari tashkil etgan shaharchalar va boshqa aholi yashash manzillari tumanga bo‘ysunuvchi shaharchalarga kiritiladi va ularning soni hozir 66 ta.

Respublikamizda ayni paytda 106 ta shaharchalar bo‘lib, ular temir yo‘l stantsiyalari, sanoat korxonalari, qurilishlar va boshqa muhim ob’yektlar yaqinida joylashgan, aholisi ikki mingdan kam bo‘lmagan aholi yashash punktlaridir.

Ma’muriy-hududiy bo‘linishning quyi bo‘g‘inlaridan biri qishloqlar, ulardan ham kichikroq yashash va turar joy puktlaridan iboratlari ovullardir. Ma’lum aholi soniga ega bo‘lgan va shahar hududiga kirmaydigan qishloq markazlari va ma’lum sanoat ob’yektlari atrofida istiqomat qiluvchi aholining yashash manzili ham qishloq bo‘lishi mumkin.

Ovullarda asosan ko‘chib yuruvchi chorvador cho‘pon oilalar istiqomat qiladi. Hozir Respublikamizda 1500 ga yaqin qishloq va ovullar bor.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘z hududida davlat, iqtisodiyot, xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy qurilish masalalarini mustaqil hal qiladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi va chegaralarini uning roziligisiz o‘zgartirish mumkin emas.

5.3. Ma’muriy-hududiy qismlarni o‘zgartirish, tashkil qilish va tugatish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasida belgilab qo‘yilganidek: “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o‘zgartirish, shuningdek, viloyatlar, shaharlar, tumanlar, tashkil qilish va ularni tugatish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi”.

1999 yil 20 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga ko‘ra davlat chegarasi uning hududi doirasidagi yer kengliklarini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal (ko‘ndalang) sathdan iborat. 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi, toponomik ob’yektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal qilish tartibi to‘g‘risida” gi qonunga asosan amalga oshiriladi. Unga ko‘ra:

1) viloyatlarni tuzish va tugatish Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;

2) tumanlarni tuzish va tugatish tegishli viloyat va Toshkent shahar hokimligi tavsiyasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan; Qoraqalpog‘iston esa ushbu hukumat taklifiga asosan, O‘zbekiston Oliy Majlisi roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan;

3) shaharlarni viloyatga bo‘ysunuvchi shahar turkumiga kiritish yoki qaytadan tuzish tegishli viloyat hokimlarining tavsiyasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan;

4) tumanga bo‘ysunuvchi shaharlarni tuzish yoki tugatish tegishli viloyat hokimlarining tavsiyasi bilan Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan;

5) qishloq, ovul, shaharchalarni tuzish yoki tugatish masalasi tuman hokimlarining tavsiyasiga ko‘ra xalq deputatlari viloyat kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Ma’muriy-hududiy bo‘laklarning chegaralari ham yuqoridagi qonunga asosan aytib o‘tilgan tartibda o‘zgartiriladi.

5.4. Qoraqalpog‘iston suveren Respublikasining huquqiy maqomi va uning qonun asoslari

Konstitutsiyamizning XVII bobi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi” deb ataladi. Undagi 70-75-moddalar ushbu Respublika haqida “Suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining suvereniteti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi” (70-modda) deya bu Respublikaning O‘zbekiston tarkibidagi suveren davlat sifatidagi maqomini mustahkamlanishi ta’kidlangan.

Qoraqalpoq xalqi boy tarixga, o‘ziga xos madaniyatga an’analarga, tiliga ega bo‘lib, ko‘p asrlardan buyon Orolbo‘yida zich yashab kelayotgan aholining tarixiy shakllangan millat guruhidir.

Konstitutsiyamizda “suveren Qoraqalpog‘iston Respublikasi,,,” deya aniq belgilab qo‘yilganidanoq u Respublikamiz o‘z tarkibiga olgan unitar davlat sifatida ta’riflanadi. Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston tarkibida o‘z hududi va aholisiga ega bo‘lgan alohida davlat-huquqiy tuzilma sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. Bu Respublikaning alohida me’yoriy hujjati – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi mavjud va u O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mushtarak.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining parlamenti, oliy sud organlari, hukumat kabilar faoliyat yuritishi, hududi va chegaralarining dahlsizligi, o‘z ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qilishi, o‘z byudjetini qabul qilishi, o‘z hududida soliqlar va yig‘imlar hajmini mustaqil ravishda o‘rganishi, uning O‘zbekiston tarkibidan chiqish huquqiga egaligi, O‘zbekiston bilan o‘zaro munosabatlari shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinishi, o‘z davlat ramzlari: bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga egaligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi suverenligining belgilaridir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasining tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Qoraqalpog‘istonning mustaqilligini kafolatlaydi va muhofaza qiladi. Bu Konstitutsiyamizda Qoraqalpog‘istonning suveren huquq va vakolatlari mustahkamlab qo‘yilganligi, O‘zbekistonning oliy davlat hokimiyati organlari-Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo‘jalik sudlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakillari borligida, hudud ustuvorligi prinsipiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi uning roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin emasligi, Qoraqalpog‘istonning Respublikamiz tarkibidan chiqish masalasi bo‘yicha referendum o‘tkazish huquqi borligi, qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomi berilgani va uning boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy, madaniy va boshqa aloqalar o‘rnatish huquqlarida o‘z aksini topgan.

Asosiy tayanch tushunchalar

Milliy-davlat, ma’muriy-hududiy, prezidentlik instituti, hokimlik, “o‘zbek modeli”, ichki va tashqi strategiya, Birlashgan Millatlar tashkiloti, iqtisodiy-hududiy, harbiy-hududiy, siyosiy-hududiy, ekologik-hu-

dudiy, Orolbo‘yi, ekologik inqiroz, suv akvatoriyasi, unitar respublika, sanoat ob’yektlari.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasining milliy davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishi nimalardan iborat?
2. O‘zbekiston milliy davlat sifatida nimalarga ega bo‘ladi?
3. “O‘zbek modeli” nima?
4. O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzilishi shaklini gapirib bering.
5. O‘z maqsad va vazifalariga ko‘ra davlatning hududiy jihatdan tashkillashtirish ma’muriy-hududiydan tashqari yana qanday shakllarga bog‘liqligini ayting.
6. O‘zbekiston Respublikasi shaklan qanday Respublika?
7. O‘zbekistonning unitar Respublikaligini bildiruvchi belgilarni bilasizmi?
8. Ma’muriy-hududiy qismlar nimaga asosan o‘zgaradi, tashkil qilinadi va tugatiladi?
9. Qoraqalpog‘iston suveren Respublikasining huquqiy maqomi va uning qonun asoslari nimalardan iborat?
10. Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘z davlat belgilari, Konstitusiyasi bormi?

VI bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY MAJLISI

6.1. Oliy majlisning davlat idoralari tizimidagi o‘rni va ijtimoiy vazifasi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining birinchi qo‘shma majlisida Prezidentimiz o‘zining “Bizning bosh maqsadimiz sifatida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etish” nomli ma’ruzasida davlatning keyingi strategik yo‘nalishlarini deputatlar va senatorlar e’tiboriga havola etdi. Ma’ruzada qonunchilik hokimiyati bo‘lmish mamlakat Parlamentining roli va tasvirini kuchaytirishi Qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifalari sifatida belgilandi.[1]

Parlament imkoniyat huquqiy tafakkurining mahsuli hamda jamiyatning umummilliy vakillik muassasasi bo‘lib, u uzoq tarixga ega. Uning ildizi XII-XIII asrlardagi ingliz parlamenti va ispan korteslariga borib taqaladi. “Parlament” so‘zi frantsuz tilidan olingan va “gapirmoq” ma’nosini anglatadi. Parlamentarizm katta taraqqiyot bosqichini bosib o‘tgan. Uning tarixi burjua inqiloblari davridan boshlanadi. Hozir yer yuzidagi 200 ga yaqin davlatlarning deyarli 180 tasida parlament bor va ular oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Hozirgi zamon parlamentlarining bir-biridan farqi tuzilishi, vakolatlarining hajmi, ijtimoiy tarkibi, o‘z mamlakatlari siyosiy tizimida tutgan o‘rni, saylanish tartibi mavqeidadir. Shuningdek, ularning nomlanishi, deputatlar soni bilan ham farqlanadi. Masalan, AQShda 535 deputatdan iborat Kongress, Xitoy Xalq Respublikasidagi Umumxitoy xalq vakilligi majlisida 2979 a’zo, Rossiyada 626 deputatdan iborat Federal Majlis, Misrda 454 deputatli Xalq Assambleyasi, Isroilda 120 a’zodan iborat Kiesset, Islandiyada 63 a’zodan iborat Altning faoliyat yuritadi. Jahon parlamentlarining ko‘pchiligi bir palatali tuzilishga ega. Yer yuzidagi 65ta davlatda ikki palatali oliy vakillik organlari mavjud.

Ikki palatali parlamentning palatalaridan biri ko‘pincha “quyi palata” deb yuritiladi va u xalqning yagona irodasini ifodalaydi (masalan, AQShda Vakillar palatasi, Frantsiyada Millat Majlisi), ikkinchisi, “yuqori palata” deb ataladi va u davlatning tarkibiy qismlari (hududlari)ning manfaatlarini ifodalaydi. Parlamentlarning bunday tuzilishi de-

[1] Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishdir. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2005, (lotinda) 37.

mokratik an'analar, federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarga xosdir. Bunday parlamentlar AQSh, GFR, Braziliya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi qator davlatlarda faoliyat yuritmoqda.

Parlamentlar jamiyat manfaatlarining ifodalovchi sifatida aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhining vakillaridan tashkil topadi. Ular dunyo bo'yicha turlicha nomlanish va ko'rinishda bo'lsa ham o'z mamlakatlarida muhim ijtimoiy vazifani – qonun chiqaruvchi hokimiyatlarni amalga oshiradi.

Konstitutsiyamizning 10-moddasida davlat hokimiyatining birdanbir manbai – xalq nomidan u saylagan Respublika Prezidenti va Oliy Majlis faoliyat yuritishi ko'rsatilgan. Uning 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funktsiyalari qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbariyati – O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanadi. Oliy Majlis esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Hokimiyatlar taqsimlanishi nazariyasiga ko'ra qonun chiqaruvchi hokimiyat – alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 76-moddasiga muvofiq mamlakatimizning Oliy Majlisi Oliy davlat – vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O'zbekistoe Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati besh yil.

2002 yilning 12 dekabrida bo'lib o'tgan Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X cessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlarning qobul qilinishi bilan ikki palatali parlamentni shakllantirishning asosiy huquqiy negizlarini yaratish jarayonini muhim ahamiyat kasb etdi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunga binoan Qonunchilik palatasi Oliy Majlisning quyi palatasidir. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz yigirma deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palataning barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi".[1]

[1] "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2002, 27 dekabr.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatlari Respublikamiz fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylash huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylangani bois qonun chiqaruvchi hokimiyatning vakolatlari katta. Chunki, xalq hokimiyati saylov asosida o‘z vakillariga topshiradi va vakolatli organlarni davlat hokimiyatini amalga oshirishga vakil qiladi. Bu vakolatli organlar davlat hokimiyati mexanizmida birlamchiligi, ularning ustuvorligi hamda ustunligini bildiradi.

6.2. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini shakllantirish tartibi

2003 yil 24 avgustda yangi tartibda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatini shakllantirishni tartibga soladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a’zolari (senator)dan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlisida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n olti nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan, alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Konstitutsiya parlament deputatlarining hududiy saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanishini muhim Konstitutsiyaviy tamoyil sifatida mustahkamlaydi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini o‘tkazuvchi saylov okruglari O‘zbekistonning butun hududida saylovchilar soniga qarab, teng holda tuziladi.

Konstitutsiyamizning 77-moddasida ko‘rsatilishicha, saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muhim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati hamda oliy Majlis Senatining a’zosi bo‘lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlikka qo‘yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi. Ayni bir shaxs bir paytning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda Senatining a’zosi bo‘lishi mumkin

emasligi ko‘rsatilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga saylov to‘g‘risida”gi qonunining 25-moddasida:

– Sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan fuqarolar;

– Saylov kuniga qadar so‘nggi besh yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasi hududida muhim yashamagan fuqarolar;

– O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo‘linmalarning xodimlari;

– Diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari deputatlikka nomzod etib ro‘yxatga olinmaydilar, deb belgilangan.

Amaldagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanish huquqi hayot tajribasiga ega, bilimli, aqlan etuk, el-yurt uchun qilgan mehnati bilan o‘zini tanita olgan, g‘ayrat-shijoatli, shu bilan birga mulohazali, 25 yoshga to‘lgan fuqarolarga beriladi.

AQSh Kongressi Vakillar palatasiga, Yaponiya parlamenti vakillar palatasiga ham 25 yoshga to‘lgan, maslahatchilar palatasiga esa 30 yoshga to‘lgan fuqarolar passiv saylov huquqidan foydalana olishlari mumkin. Jahon tajribasida passiv saylov huquqining bundan ham yuqori senzlari ma’lum.

2004 yilning 26 dekabrida mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining ikki palatali – parlamenti Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga birinchi marta saylovlar bo‘lib o‘tdi. Ushbu saylovlarda beshta siyosiy partiya va tashabbuskor guruhlarning deputatlikka nomzodlari qo‘yildi. 1-jadvalda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar hamda saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlari taqdim etgan nomzodlarni Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olinishining yakunlari berilgan.

1-jadval

Partiyaga mansub deputatlikka nomzodlar

№	Siyosiy partiyalar va saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlari	Ro‘yxatga olingan deputatlikka nomzodlar soni	Umumiy deputatlikka nomzodlar soniga foizlardagi nisbati
1	O‘zbekiston Xalq Demokratik partiyasi	118	22,8
2	O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi	74	14,3

3	O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi	61	11,8
4	O‘zbekiston “Fidokorlar” Milliy Demokratik partiyasi	89	17,2
5	O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasi	119	23
6	Saylovchilarning mustaqil tashabbuskor guruhlari	56	10,8
	Jami:	**517**	**100**

Jadval ko‘rsatkichlaridan ko‘rinadiki, siyosiy partiyalardan ko‘rsatilgan nomzodlar barcha deputatlikka nomzodlarning 89,2 foizini tashkil qilgan.

2004 yil 26 dekabr va 2005 yil 9 yanvarda takroriy ovoz berish bilan Respublikamiz Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 120nafar deputati saylanib, ro‘yxatga olindi. Saylovda siyosiy partiyalardan 435, saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan 56 nafar mustaqil nomzod ishtirok etdi. 2004 yil 26 dekabrdagi asosiy saylovda 12 197 159 (85,1%), 2005 yil 9 yanvarda esa takroriy ovoz berish huquqiga ega saylovchilarning 80%, ya’ni 5 400 000 nafardan ortiq fuqaro qatnashdi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning deyarli 18% ni xotin-qizlar tashkil qildi. Tashabbuskor guruhlar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlarning 11,6 foizi, ya’ni 14 nomzod deputatlikka saylandi. Saylangan deputatlar orasida huquqshunoslar, iqtisodchilar, sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasi, qishloq xo‘jaligi vakillari, tadbirkorlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ta’lim, fan, madaniyat, sog‘liqni saqlash tizimlari vakillari bor edi.

Bu palataga saylangan deputatlar professionallik nuqtai nazaridan qonun chiqaruvchilik, qonun yaratuvchilik va uni qilishdek mas’uliyatli ishda mukammallik, bilim, etarli tayyorgarlik talab etiladi.

Yuqori Senatorlar palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning har biridan – territorial sub’yektlardan olti nafardan, shuningdek, Prezident tomonidan tayinlanadigan o‘n olti nafar obro‘-e’tiborli kishilardan tarkib topadi.

“Senat quyi palata bilan birgalikda bevosita qonun yaratishishi bilan shug‘ullanmasligi”, unga saylangan har bir Senator Qonunchilik palatasi ishlab chiqqan va taqdim etgan qonunlarni ma’qullash yoki rad qilish orqali ham o‘z mintaqasi hamda mamlakatimiz taraqqiyotini hisobga olgan holda qonunlarni yaratish ishlarida ishtirok etadi. Mamlakatimiz Parlamentidagi Qonunchilik palatasi hamda Senat o‘rtasidagi adolatli muvozanat ana shunday Konstitutsiyaviy-huquqiy nazariyaga

hamda huquq amaliyoti asoslariga tayanadi. Bu esa mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishi, huquqiy demokratik fuqarolik jamiyati qurishining Konstitutsiyaviy-huquqiy asosi va kafolatidir.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining konstitutsiyaviy vakolatlari

Xalqaro tajribalardan ko‘rinadiki, parlament qonunchilik, moliya, tashqi siyosat, ijro, ma’muriy (ba’zi ijro organlari mansabdor shaxslarni tayinlash, ijro organlari ustidan nazorat v.b.), sud (ba’zi sudlarni saylash v.b.), Konstitutsiyani qabul qilish va unga o‘zgartirishlar kiritish vakolatlariga egaligi ma’lum.

Konstitutsiyamiz va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunga ko‘ra Qonunchilik palatasining vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi hamda Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlariga bo‘linadi.

2002 yilning 12 dekabrida bo‘lib o‘tgan Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning X sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi va ushbu qonunlarning qabul qilinishi bilan ikki palatali parlamentning shakllantirilishining huquqiy asoslariyaratildi. Davlatimiz Konstitutsiyasining **78-moddasida** Oliy Majlis Qonunchilik palatasiing Senat bilan birgalikdagi vakolatlari quyidagicha belgilangan:

1) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartirishlar kiritish;

2) O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

3) O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;

4) O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5) O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud hokimiyati organlarining tizimini va vakolatlarini belgilash;

6) O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7) boj, valyuta vakredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;

8) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

9) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;

10) O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo‘li bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;

11) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;

12) davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish;

13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

14) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

15) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

16) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash;

17) O‘zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko‘rib chiqish;

18) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;

19) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilinishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20) xarqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;

21) ushbu konstitutsiyada nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar, qoida tariqasida, avval O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatida ko‘rib chiqiladi.

Yuqorida aytilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlaridan tashqari ularning har biri alohida-alohida mutloq vakolatlarga ham egaki, bu ularning faoliyatidagi aniq yo‘nalishlarni belgilab beradi. Masalan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari quyidagilardan iborat (79-modda):

1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2) O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

3) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorldar qabul qilish;

4) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish.

Qonunchilik palatasining mutloq va Senat bilan birgalikdagi vakolatlarini amalga oshirish tartibi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to‘g‘risida”gi hamda “O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunlarning alohida me’yorlari bilan belgilab qo‘yilgan. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasida, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunning 14-moddasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartiblari belgilangan.

Qonunchilik palatasi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiya-siga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyiha-sini tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy ichida ko‘rib chiqishi mum-kin. Agar Qonunchilik palatasi “O‘zbekiston Respublikasining Konsti-tusiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini qabul qilmasa, uni ko‘rib chiqish bir yildan keyin qayta bosh-lanishi mumkin” deya boshlangan. Konstitutsiyaning 78-moddasidagi so‘nggi bandlarning amaldagi ifodasi OliyMajlis palatalarining Regla-menti to‘g‘risidagi qonunlarida mustahkamlab qo‘yilgan.

Qonunchilik palatasi majlisida mas’ul qo‘mita vakilining axboroti eshitiladi va u muhokama qilinib, natijalari bo‘yicha deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining qonuni qabul qilinadi.

Qonunchilik palatasining mustaqil hokimiyat organi sifatidagi faoliyatining kafolati uning Spiker va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini o‘zi saylashidir. Mamlakatimizda Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘ribosarlarini saylashning o‘ziga

xos tartibi ishlab chiqilgan. Markaziy saylov komissiyasi raisi boshchiligida saylangan deputatlardan tashkil qilinadigan oqsoqollar kengashi palata Spikeri va uning o‘rinbosarlari saylovi ob’yektiv o‘tkazilishini ta’minlaydi.

“Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunda yuqori pa-lataning asosiy vazifasi Senatning hududiy palatasi sifatida ta’riflanishi bilan ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 80-moddasida belgilanishicha, quyidagilar Oliy Majlis Senatining mutloq vakolatlariga kiradi:

1) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislarini va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respubilkasi Konstitutsiyaviy sudini saylash;

3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudini saylash;

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudini saylash;

5) O‘zbekiston Respublikasi prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisini saylash va uni lavozimidan ozod etish;

6) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

9) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi milliy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish;

10) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish;

11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarni hal etish;

12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13) o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

14) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlari ularni parlamentning qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiriuvchi yagona oliy davlat vakillik organi sifatidagi asosiy vazifalarini ifodalaydi. Bular ikkala palataning tegishli tartib-qoidalar asosida o‘zaro muvofiqlashtirilib, kelishilgan qarori talab qilinadigan masalalardir. Ushbu tartib-qoidalar palatalarni shakllantirishning turli usullari bilan bir qatorda ikki palatali tizimga nisbatan uyushtiriluvchi elementlar hisoblanadi va bu tizim ularsiz o‘z mazmunini yo‘qotadi. Ushbu tartib-qoidalar asosida quyidagi masalalar hal qilinadi. Ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) Qonunchilikka doir;

2) Vakillikka doir;

3) Nazoratga doir;

4) Ma’muriy-hududiy tuzilishga doir.

Bunda vakolatlarning:

1 guruhiga:

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

– O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

– xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish kiradi.

2 guruhiga:

– vakillik vazifalari bilan bog‘liq va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan vakolatlar;

– O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati organlarining tizimi va vakolatlarini belgilash;

– boj, valyuta, kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish;

– soliqlar va boshqa majburiyto‘lovlarni joriy etish;

– davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish;

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish kiradi.

3 guruhi parlamentning vakillik vazifalari jumlasiga kiritilishi va Prezidentning siyosiy qarorlari qabul qilinishida ishtirokchi sifatida ta'riflanishimumkin. Ushbu vakolatlarga:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarlarini saylash;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

– O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi hisobotini ko'rib chiqish;

– Mamlakatimiz Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonini tasdiqlash;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilinishini uzaytirish yokitugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlashni kiritish lozim.

4 guruhiga:

– O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularni Respublikamiz tarkibidan chiqarish to'g'risidagi qarorlarni tasdiqlash;

– O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi haqidagi masalalarni qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarini o'zgartirish;

– tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomlarini va chegaralarini o'zgartirishlar kiradi.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar avval oliy Majlis Qonunchilik palatasida, keyin Senatida ko'rib chiqilmog'i lozim. Chunki, Yuqori palataning faoliyati muvofiq ravishda qonunchilik hokimiyatining rolini kuchaytirish hamda aholining siyosiy faoliyatini oshirishga ko'maklashishi kerak. Prezidentimiz I.Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda hokimiyat tuzilmalarini tashkil etish va

muvozanatni saqlashning yangi, yanada mukammal demokratik tizimini shakllantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar, Konstitutsiyamizga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar jamiyat siyosiy hayotini faollashtirish, fuqarolarimizda ijtimoiy va siyosiy jihatdan o‘zligini anglash tuyg‘usining kuchayishi uchun jiddiy omil bo‘lmog‘i kerak”.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining majlislari alohida o‘tkaziladi. Ularning qo‘shma majlislari O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti qasamyod qilganda, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda o‘tkaziladi. Shuningdek, bunday majlislar palatalarning o‘zaro kelishuvi bilan boshqa masalalarda ham o‘tkazilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati o‘z vakolatlaridagi masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qila oladi. Bunday qarorlar Qonunchilik palatasi yoki Senat a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi (Konstitutsiyada nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Palatalarning vakolatlari, shakllantirilishi va faoliyatining eng muhim tamoyillari, me’yorlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida va konstitutsiyaviy qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan.

6.4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatining tashkiliy huquqiy masalalari

Qonunchilik palatasi ishini to‘g‘ri tashkil etish masalalari demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bilan bog‘laymiz. Shuning uchun Qonunchilik palatasi vakolatlarining to‘g‘ri bajarilishi ularning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etilishini talab qiladi.

Qonunchilik palatasi ishini tashkil qilishning muhim jihatlaridan biri deputatlar o‘rtasida vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash hisoblanadi. Bunday taqsimlash bilan har bir deputat o‘ziga tegishli vazifani yaxshi bilishiga erishiladi. Vazifalarni bunday taqsimlash xorij davlatlarida ham mavjud bo‘lib, bunda vazifalar quyi palata tarkibidagi rahbarlar va devon xodimlarini ham nazarda tutib, taqsimlanadi. Ishni bunday tashkil etishda Qonunchilik palatasi raisi muhim o‘rin tutadi.

[1] Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan taraqqiyot yo‘li. T.II.-T.: “O‘zbekiston”, 2003, 224-bet.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 85-moddasida belgilanishicha:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o‘z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rinbosarlarini saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o‘rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri:

1) Qonunchilik palatasining majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;

2) Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi;

3) Qonunchilik palatasi qo‘mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;

5) parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog‘liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va o‘zga tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda qonunchilik palatasi nomidan ish ko‘radi;

7) Qonunchilik palatasi qarorlarini imzolaydi;

8) ushbu Konstitutsiya va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi.

Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi Spikeri o‘zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqli.

Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosarlari Spikerning topshirig‘i bilan uning ayrim topshiriqlarini bajaradi. Shuningdek, Qonunchi-

lik palatasining Spikeri yo‘qligida yo uning o‘zi vazifalarini bajarish imkoni bo‘lmaganda uning vazifalarini o‘rinbosarlari bajarib turishi qonunda belgilangan.

Qonunchilik palatasi faoliyatini tashkil etishda uning devonining o‘rni katta. Devonning vazifasiga Qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlar faoliyatining tashkiliy, axborot, moddiy-texnika ta’minoti kabilar kiradi. Ushbu devon Qonunchilik palatasi rahbariyati huzuridagi kotibiyatni, qo‘mitalar bilan ishlash, yuridik, nazorat-axborot, xalqaro aloqalar, matbuot va tarjimalar, umumiy bo‘lim va buxgalteriyani qamrab oladi.[1]

Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy shakli uning majlislari bo‘lib, bu majlislarni o‘tkazishning o‘zi Qonunchilik palatasining faoliyati masalalarini birgalikda muhokama qilish, to‘g‘ri o‘tkazish esa erkin muhokama, oshkoralik va jamoatchilik fikrini hisobga olish tamoyillarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har ikkala palatasi vakolat muddati tugagach, yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati o‘z ishini boshlagunga qadar faoliyatini davom ettirib turadi va shu yo‘l bilan qonun chiqaruvchi organ faoliyatidagi uzluksiz ta’minlanadi. Bu masala O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunning 5-moddasida belgilangan.

Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari Qonunchilik palatasi uchun bo‘lib o‘tgan saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o‘tkaziladi. Sessiyalar qoidaga ko‘ra sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yil iyun oyining ish kuniga qadar o‘tkaziladi. Oliy Majlis Senatiningmajlislari zaruratga qarab, bir yilda kamida uch marta o‘tkaziladi. Senat yig‘ilishlarida muayyan muddat davomida Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlar muhokama qilinib, kun tartibidagi boshqa masalalar ham ko‘rib chiqiladi.

---

[1] Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining devoni to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2005 yil 7-apreldagi 73-sonli farmoyishi.

Oliy Majlis palatalarining majlislarida deputatlar va senatorlarning umumiy sonining hech bo‘lmaganda, yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa, majlis vakolatli hisoblanadi. Ya’ni palatalar majlislari vakolatli bo‘lishi uchun Qonunchilik palatasidan kamida 60 nafar, Senatdan kamida 50 nafar deputatlar va senatorlar qatnashishi shart. Ma’lumki, konstitutsiyaviy qonunlar qonunchilik tizimida o‘z yuridik kuchi jihatidan joriy qonunlarga nisbatan yuqori mavqega ega. Shuning uchun bunday qonunlarning qabul qilish uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining kamida 80 nafari, Senatning kamida 66 nafar a’zosi ishtirok etishi zarur.

Oliy Majlis o‘z majlislarini oshkoralik tamoyili asosida olib boradi. Shu bois har ikkala palataning, shuningdek, ularning organlari majlislarida mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutadigan quyidagi davlat organlarining vakillari va mansabdor shaxslar ishtirok etishi mumkin:

– O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;

– Respublika Bosh vaziri;

– Vazirlar Mahkamasining a’zolari;

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, xo‘jalik sudi raislari;

– O‘zbekiston Respublikasining Bosh Prokurori;

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi.

Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat raisi, Senat va uning organlari majlislarida esa Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

Qonunchilik palatasi va Senat majlislarida, shuningdek, ularning organlari majlislarida qo‘yilgan masalalarning tegishligiga qarab turli davlat organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlar, diplomatik vakolatlar vakillari, davlatlararo tashkilotlar va xorijiy davlatlar ommaviy axborot vositalarinng vakillari va mustaqil ekspertlar taklif etiladilar.

Qonunchilik palatasi va Senat o‘z majlislarini alohida-alohida o‘tkazib, o‘z vakolatlari doirasidagi masalalarni hal qilishi, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti qasamyod qabul qilganda, Prezident mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda ikki palataning qo‘shma majlisi o‘tkazilishi mumkinligini yuqorida aytib o‘tdik.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno (O‘zbekiston Konstitutsiyasining 82-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o‘z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qonun qabul qilish talab etilmaydigan maslalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi 2003 yil 29 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasida belgilab qo‘yilgan.

Senat tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi yuqoridagi qonunning 15-moddasida ko‘rsatilgan.

Konstitutsiyamizning 82-moddasidagi “...ushbu Konstitutsiyada na-zarda tutilgan hollar bundan mustasno” degan jumlaning javobi Konsti-tusiyaning 85-86-moddalarida aks etgan. 85-moddada Qonunchilik pala-tasi Spikerini muddatidan oldin chaqirib olish, 86-moddada esa Senat raisini muddatidan avval chaqirib olish tartibi belgilangan. Ushbu mod-dalarga ko‘ra Qonunchilik palatasi Spikerini ham, Senat Raisini ham mud-datidan ilgari chaqirib olish uchun har ikki palata a’zolari umumiy soni-ning kamida uchdan ikki qismining ovozi bilan qaror qabul qilinishi lozim.

Asosiy tayanch tushunchalar

Oliy Majlis Qonun chiqaruvchi hokimiyat, jahon parlamentarizmi, vakillik organi, vakolat, ijtimoiy vazifa, davlat qurilishi, parlament, Qonunchilik palatasi, senat, Spiker, konstitutsiyaviy tamoyil, saylov, saylanish huquqi, sessiya, referendum, Bosh vazir, xalqaro shartnomalar, ratifikatsiya, safarbarlik, mutlaq vakolat, konstitutsiyaviy qonun, qonun, ijro etuvchi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uni tashkil etish tartibi haqida gapirib bering.

2. Oliy Majlisning davlat idoralaridagi o‘rni va ijtimoiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Hozirgi zamon parlamentining bir-biridan farqi nimalardan iborat?
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qachondan ikki palatadan iborat bo‘ldi?
5. Qonunchilik palatasining vazifasi nimalardan iborat?
6. Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi majlisi qanday hollarda o‘tkazilishini ayting.
7. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kimlar, qay tarzda saylanadi?
8. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning shakllantirish tartibi haqida nimalarni bilasiz?
9. Parlament deputatlarining hududiy saylov okruglari bo‘yicha qay tartibda saylanishini gapirib bering.
10. Kimlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining a’zosi bo‘lishi mumkin emas?
11. Siyosiy partiyalar va mustaqil tashabbuskor guruhlarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylanish huquqi haqida gapirib bering.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining vakolatlari nimalardan iborat?
13. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish qay tarzda amalga oshiriladi?
14. Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatining tashkiliy-huquqiy masalalari haqida nimalarni bilasiz?
15. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi qachon qa-bul qilindi va u qanday tarkibiy tuzilishga ega?

VII bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PREZIDENTLIK INSTITUTI VA UNING AHAMIYATI

7.1. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimining joriy etilishi. Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanishi

“O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi” (O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, 89-modda).

“Prezident” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, imloviy ma’nosi “oldindan o‘tiruvchi”dir.

Davlat boshlig‘i – muayyan mamlakatda davlat hokimiyatining yagonaligini belgilovchi omil, millat birligining timsoli va davlat ramzi bo‘lib, mamlakatning ichki va tashqi siyosatida uning vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Insoniyat tarixida ijtimoiy boshqaruvning dastlabki ko‘rinishlari paydo bo‘lgan davrdan to shu kungacha ham mamlakatni davlat boshlig‘i boshqaradi. Davlat boshqaruv shakli ikki xil bo‘lib, monarxiya shaklida davlat boshlig‘i monarx, ya’ni qirol, podsho, imperator, amir deb nomlanadi. Monarx davlat boshlig‘i lavozimini meros huquqi asosida, avloddan-avlodga o‘tish orqali egallaydi.

Davlat boshqaruvining ikkinchi shakli respublika bo‘lib, bunda davlat boshlig‘i – Prezident saylab qo‘yiladigan organ hisoblanadi. Ba’zi respublikalarda davlat boshlig‘i vakolatlarini kollegial organ yoki boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshirish belgilab qo‘yilgan.

Arab mamlakatlari hamda G‘arbiy Evropaning ayrim davlatlarida monarxiya davlat boshqaruvi saqlanib qolgan bo‘lib, ularda ham davlat boshlig‘i bo‘lmish monarxning huquqiy holati turlicha.

Dunyo hamjamiyatining katta qismini tashkil etuvchi davlatlar (respublika) davlat boshlig‘i shakliga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, davlat boshlig‘ining davlat hokimiyati tizimida tutgan o‘rni, vakolatlarining ko‘lami uning hokimiyatga saylanish usuliga bog‘li. Agar Prezident parlament tomonidan saylansa, uning davlat boshqaruvidagi o‘rnining ahamiyati uncha katta bo‘lmaydi. Bunday hollarda hukumat boshlig‘i davlat tizimida asosiy rol o‘ynaydi. Prezident xalq tomonidan saylanadigan davlatlarda davlat boshlig‘i xalqdan vakolat olgan organ sifatida davlat boshqaruvida keng vakolatlarga ega bo‘lib, amalda davlat hokimiyati organlari tizimida birlamchi organ, mamlakatning siyosiy namo-

yandasi hisoblanadi. Davlat hokimiyati markaziy organlarining so‘nggi qarori davlat boshlig‘ining ruxsati, roziligi yoki uning nomi bilan ommaga e’lon qilinadi. Davlat boshlig‘ining birlamchi vakolati davlat va xalq nomidan ish yuritishdir. Mamlakat ijtimoiy hayotining biror sohasi daqlat boshlig‘ining e’tiboridan chetda qolishi mumkin emas.

Mamlakatimizda Prezident lavozimi Oliy Kengash tomonidan 1990 yilning 24 martida “O‘zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta’sis etish va O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni)ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan joriy etildi.

O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimining joriy etilishi mamlakatimiz xalqlari hayotida ro‘y bergan buyuk tarixiy voqea bo‘ldi.

O‘zbekistonda prezidentlik lavozimining ta’sis etilishini tasodifiy hodisa deb bo‘lmaydi. Buni ob’yektiv zaruriyatga aylantirgan, kun tartibiga keltirib qo‘ygan bir qancha sabablar mavjud edi. Ana shu sabablar, zaruriyatlar haqida batafsilroq to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimini joriy etishning sabablari quyidagilardan iborat:

“Birinchidan, davlat mustaqilligiga intilish, respublikada boshqaruv jarayonlarini demokratlashtirish aynan prezidentlik institutini taqozo etar edi. Chunki parlament uzoq bahs va munozaralarga berilib ketib, operativ qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirish imkoniyatiga ega emas edi. Shuning uchun ham mamlakatni bir kishi tomonidan boshqarish ehtiyoji paydo bo‘ldi.

Ikkinchidan, prezidentlik lavozimini joriy etish sabablaridan yana biri hokimiyatlarning bo‘linish prinsipini rivojlantirishdan kelib chiqadi. Prezidentlik davlat hokimiyati organlarining tizimini tashkil etishda demokratik prinsiplarni amalga oshirishga yordam berishga qaratilgan edi. Qonunchilikda ijro va sud hokimiyati faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish ehtiyoji paydo bo‘ldi.

Uchinchidan, Prezident o‘z zimmasiga hukumatni shakllantirish va uning ishiga rahbarlik qilishdek ulkan mas’uliyatni olishi uchun ob’yektiv zaruriyat tug‘ildi.

To‘rtinchidan, vaziyatni barqarorlashtirish, tinchlikni ta’minlash va murakkab muammolarni tezlikda hal etish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Mavjud davlat strukturasi bu masalalarni hal etishga qodir emas edi”.[1]

Prezidentlik lavozimining joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasi uchun tamomila yangilikdir. Prezidentlik lavozimi respublikada ijroiya

[1] U.Tadjixonov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O‘zbekiston Respublikasining Kostitutsiyaviy huquqi. – T.: “Sharq”, 2001, 561-562-betlar.

hokimiyatni mustahkamlash maqsadida vujudga keltirilganligini alohida qayd etishga to‘g‘ri keladi. Bu haqda Islom Karimov shunday degan edi: «Tarixning muayyan davrlarida, haqiqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda, ayniqsa bir tizimdan ikkinchisiga o‘tish davrida, har holda kuchli ijroiya hokimiyati zarur. Qon to‘kilishiga va qarama-qarshilikka yo‘l qo‘ymaslik, mintaqada millatlararo va fuqarolar totuvligi, tinchligi va barqarorlikni saqlash uchun shunday bo‘lish zarur, bu yo‘lda men jonimni fido qilishga tayyorman. Ta’bir joiz bo‘lsa, demokratiya sari harakat qilish uchun ham shunday bo‘lishi zarur».[1]

Respublika Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida xalq deputatlari O‘zbekistonning birinchi Prezidentini yashirin ovoz berish yo‘li bilan sayladilar. O‘zbekiston xalqi tarixida ilk bor Prezident bo‘lib Islom Abdug‘anievich Karimov saylandi. Ana shu Oliy Kengash sessiyasida Islom Karimov nutq so‘zlab, O‘zbekistonning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, respublika iqtisodiy mustaqilligini, o‘zini o‘zi idora qilishga va o‘zini o‘zi pul bilan ta’minlashga o‘tishni e’tirof etdi. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta’sis etilishi mustaqillik sari qo‘yilgan eng muhim qadam edi.

O‘zining halolligi, chuqur bilimdonligi, o‘ta mehnatsevarligi, uzoqni ko‘zlab ish qilishi, yuksak talabchanligi bilan el-yurt nazariga tushgan, xalq dardi, millat qayg‘usi yo‘lida kuyib -yonib yashaydigan, Vatani istiqboli uchun jon kuydiradigan Islom Karimovdek benazir inson va ulug‘ zotning respublika oliy rahbari, O‘zbekiston Prezidenti bo‘lib saylanishi mamlakatimiz xalqlarini behad quvontirdi. Chunki xalq dardi, g‘am-tashvishi, orzu-niyati yo‘lida tinim bilmay harakat qiladigan bu insonni o‘zbek xalqi o‘ziga tog‘dek tayanch deb bilar, najotkor deb hisoblardi. Iqtisodiyoti inqirozga yuz tutgan, qanchadan-qancha fidoyi farzandlari nohaqdan-nohaq qamalib ketgan, milliy, ma’naviy qadriyatlari, tili, dini, urf-odatlari oyoqosti qilingan o‘zbek xalqi bu ajoyib farzandi sharofati bilan qaddini tiklab olishni orziqib kutardi. Ana shu ezgu ishlarga boshchilik qilishni o‘zi uchun oliy maqsad deb bilgan Islom Karimov yuksak martabaga ko‘tarildi.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, tarixning eng qiyin, o‘ta og‘ir, o‘ta murakkab, burilish davrlarida tarixiy shaxslar, siyosiy yo‘lboshchilar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xalqning ko‘p yillik taqdiri siyosiy yo‘lboshlovchining, davlat boshlig‘ining ezgu maqsadlar yo‘lida qabul qiladigan qarorlariga, ilmiy-amaliy faoliyatiga, millati, xalqiga azaliy xos bo‘lgan barcha noyob xislat va fazilatlariga ham ma’lum darajada

[1] I.A.Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: 1-jild, 146- bet.

bog‘liq. Ulug‘ zotlarning dono siyosati va qat’iyati mamlakatni chuqur tanglikdan, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy inqirozlardan eson-omon olib chiqqan, uni dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga ko‘targan hollar tarixda ko‘p bo‘lgan. Butun bir davlatni qayta tiklab, istiqlol va taraqqiyot yo‘lini belgilab bergan, uni ilg‘or mamlakatlar darajasiga ko‘targan, ilm-fani, madaniyati-ma’naviyati, texnika va texnologiyasini o‘stirgan siyosiy etakchilarning hayoti va ijtimoiy faoliyati nafaqat ular mansub bo‘lgan millat va xalq vakillarida, balki jahon jamoatchiligida ham katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy, albatta.

Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, millat qayg‘usi, xalq dardi dunyoga keltiradi, deydilar. Bu – ayni haqiqatdir. “Zotan, muayyan millat, yohud bani bashar tarixan taqdirilomon tub o‘zgarishlar pallasiga kirganda buyuk shaxslarga tabiiy muhtojlik sezishi-qonuniyat. Milliy kamolotning yangi sifat bosqichi, tarixiy qismat aynan shunday.

1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi chaqirildi. Unda tarixiy ahamiyatga molik hujjatlar qabul qilindi. Bular “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida Oliy Kengash Bayonoti» va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonunidan iborat edi.

O‘zbekiston Oliy Kengashining “Bayonoti”da shunday deyilgan: “O‘tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni e’tiborga olib,

– xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga asoslanib,

– O‘zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas’uliyatni anglab,

– shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o‘rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to‘g‘risidagi Xelsenki shartnomalariga qat’iy sadoqatini bayon etib,

– millati, diniy e’tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat’i nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib,

– mustaqillik deklaratsiyasini amalga oshira borib, O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O‘zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e’lon qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga, hududi bo‘linmas va daxlsizdir.

O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da’volari bo‘lmay, u o‘z hududi va uning tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir.

Davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi O‘zbekiston Respublikasining ozod mustaqil xalqidir.

O‘zbekiston Respublikasi to‘la davlat hokimiyatiga ega, o‘zining milliy – davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralarining tizimini mustaqil belgilaydi...

O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini hamda hududiy butunligini himoya qilish maqsadlarida Mudofaa ishlari vazirligi va milliy gvardiya tuziladi. Respublika hududida joylashtirilgan SSSR Ichki ishlar vazirligining, SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasining idoralari shuningdek, ichki qo‘shinlar O‘zbekiston Respublikasining huquqiy tobeligiga olinadi...

Bundan buyon O‘zbekiston Respublikasi hududida Respublika Konstitutsiyasi va qonunlari shak-shubhasiz ustun deb e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi oldindan hech qanday shart qo‘ymagan holda barcha sheriklar bilan bevosita teng huquqli, o‘zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o‘zini ochiq deb e’lon qiladi”.

Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi 1991 yil 31 avgustda qabul qilgan hujjatlar orasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun ham favqulodda ahamiyatlidir.

Qonun favqulodda ahamiyatga ega ekanligining ma’no-mohiyati shundaki, o‘sha davrda amalda bo‘lgan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasida respublikaning mustaqilligi umuman nazarda tutilmagan edi.

Ushbu qonun Oliy Kengash tomonidan O‘zbekiston SSR ning mustaqillik Deklaratsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonotiga asoslanib qabul qilingan va 17 moddadan iborat.

Mazkur qonun O‘zbekistonning Davlat mustaqilligiga erishganligini uzil-kesil mustahkamladi. 1-moddada, O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan birga, mustaqil demokratik davlatdir, deyiladi. 2-4-moddalarda O‘zbekiston xalqining suverenligi va u respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibiligi, davlat hokimiyati uning xohish-irodasiga muvofiq vakillik organlari tizimi orqali amalga oshirilishi, hududi va chegaralari daxlsiz va bo‘linmasligi,

u O‘zbekiston xalqining roziligisiz o‘zgartirilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. 5-moddada O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustun ekanligi va davlat idoralarining tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qurilishi qonunlashtirildi. 6-moddada O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat qilish huquqiga ega, deb belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, 7-moddada O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir, respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi tabiiy va boshqa resurslar, uning ma’naviy boyliklari O‘zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi, deb mustahkamlandi. 10-moddada belgilab qo‘yilganidek, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi hamda nazorat qiladi, o‘z oltin zaxirasini yaratadi.

Oliy Kengashning “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonuni yuqorida qayd etilganlar bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishda inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq inson qadr-qimmati ulug‘lanishini, o‘z taraqqiyot yo‘lini, o‘z davlat ramzlari va davlat tilini o‘zi belgilaydi, deb e’lon qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan bu tarixiy hujjatlar xalqimizning mustaqillik haqidagi asriy orzu-umidlari ro‘yobga chiqqanligi va amalga oshganligining konstitutsiyaviy-huquqiy asosi bo‘-lib xizmat qildi.

1991 yil 31 avgustda e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi mamlakatimiz xalqlari tarixida tengi va qiyosi yo‘q buyuk voqea bo‘ldi. O‘zbekiston suveren, mustaqil davlat deb e’lon qilindi. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining nomi o‘zgartirilib, O‘zbekiston Respublikasi deb atala boshlandi. O‘zbek xalqi ham dunyodagi juda ko‘plab hur va erkin xalqlar qatoridan joy oldi, o‘z taqdirini o‘zi hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi, millatlar hamdo‘stligining haqiqiy a’zosi bo‘ldi. O‘zbekiston xalqi jonajon o‘lkadagi beqiyos boylikning abadul-abad haqiqiy egasi bo‘lib qoldi. Mustaqillik-xalqimizning ko‘p asrlik tarixida buyuk voqeadir.

O‘zbekiston Oliy Kengashining Qarori bilan 1991 yil 1 sentyabr – O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi kuni deb e’lon qilindi. Bu

kunni O‘zbekiston mehnatkashlari eng ulug‘ va eng buyuk bayram sifatida har yili nishonlaydilar.

7.2. O‘zbekistonda Prezident saylovlarini o‘tkazish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o‘ttiz besh yoshdan kichik bo‘lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo‘li bilan etti yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 90-moddasi.

Mamlakatimizda 2002 yil 27 yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendumi natijalariga ko‘ra hamda uning asosida qabul qilingan 2003 yil 24 apreldagi qonunga muvofiq mamlakatimiz Konstitutsiyasining qator boblariga tuzatish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan XIX bobning 89-moddasiga kiritilgan tuzatish va qo‘shimchalarga binoan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Vazirlar Mahkamasining Raisi” deyilgan qoida olib tashlandi. Va Vazirlar Mahkamasi faoliyatiga rahbarlik qilish, u tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, ularning ijrosini ta’minlash Bosh vazir zimmasiga yuklandi: mamlakatimiz siyosiy tizimidagi islohotlar iqtisodiy islohotlar bilan bog‘liq holda kechdi.

O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 apreldagi “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun hamda “O‘zbekiston Respublikasi Konsti-tusiyasining ayrim moddalariga (89-modda, 93-moddaning 15-bandiga, 102-moddaning ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to‘g‘risida”gi qo-nunning qabul qilinishi munosabati bilan “davlat boshlig‘i – ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i” degan norma olib tashlandi.

Respublika Konstitutsiyasining 91-moddasida O‘zbekiston Respub-likasi Prezidentining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi belgilangan. Un-ga ko‘ra, “Prezident o‘z vazifasini bajarib turgan davrda boshqa haq to‘-lanadigan lavozimni egallashi, vakillik organining

deputati bo‘lishi, tad-birkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas.

Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan muhofaza etiladi”.

Prezident O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yig‘ilishida qasamyod qilgan paytdan boshlab o‘z lavozimiga kirishgan hisoblanadi. Prezident qasamyodining matni Konstitutsiyaning 92-moddasida berilgan: “...O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman”.

Konstitutsiyaning 93-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga uning davlat hokimiyati organlari tizimidagi o‘rniga mos ravishda ko‘plab vakolatlar beradi. Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari dav-lat va jamiyat hayoti faoliyatining eng muhim sohalarini qamrab oladi.

Asosiy qonunda belgilab qo‘yilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti:

1) fuqarolarning huquqlari va O‘zbekiston Respublikasi erkinliklariga, Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;

2) O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;

3) mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

4) muzokaralar olib boradi hamda O‘zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, Respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta’minlaydi;

5) o‘z huzurida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi;

6) O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

7) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma’ruzalar taqdim etadi;

8) ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishla-

shini ta’minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi;

9) Senat raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;

10) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi va tasdiqlashi uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini taqdim etadi va lavozimidan ozod qiladi;

11) O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;

12) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimlaridan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Senati tasdig‘iga kiritadi;

13) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitusiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo‘jalik sudi raisi va sudyalari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;

14) viloyat, tumanlararo, tuman, shahar, harbiy va xo‘jalik sudlarining sudyalarini tayinlaydi va lavozimlaridan ozod etadi;

15) viloyatlar hokimlarini Xamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi. Konstitutsiyani, qonunlarni buzgan yoki o‘z sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini Prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli;

16) respublika davlat boshqaruv organlarining, shuningdek, hokimlarning qabul qilgan hujjatlarini to‘xtatadi, bekor qiladi;

17) O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritadi;

18) favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavfi ommaviy tartibsizliklar, yirik Xalokat, tabiiy ofat, epidemiyalar yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi;

19) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Oliy Bosh qo‘-mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayin-laydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;

20) O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi. O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;

21) O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;

22) amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni avf etadi;

23) O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatini tuzadi. Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;

24) ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Prezident o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.

Asosiy Qonunning 94-moddasida belgilab qo‘yilganidek, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va Qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

95-moddada Qonunchilik palatasi yoki Senat tarkibida ularning normal faoliyatiga tahdid soluvchi, hal qilib bo‘lmaydigan ixtiloflar yuz berganda yohud ular bir necha marta O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda, shuningdek, Qonun-chilik palatasi bilan Senat o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Maj-lisining normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo‘lmaydigan ixti-loflar yuz berganda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekis-ton Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan bamaslahat qabul qilgan qa-rori asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik pa-latasi, Senati tarqatib yuborilishi mumkin, deb belgilab qo‘yilgan.

Mazkur moddaning ikkinchi bandida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Senati tarqatib yuborilgan taqdir-

da yangi saylov uch oy mobaynida o‘tkaziladi, deyilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati favqulodda holat joriy etilgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emasligi qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Agar O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti betobligi sababli o‘z vazifasini bajara olmasligi O‘zbekiton Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qo‘shma qaroriga ko‘ra tuzilgan davlat tibbiy komissiyasi xulosasi bilan tasdiqlangan taqdirda o‘n kun muddat ichida palatalarning qo‘shma favqulodda yig‘ilishida deputatlar, senatorlar orasidan uch oygacha bo‘lgan muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini vaqtincha bajaruvchi saylanadi. Bu holda uch oy muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining umumxalq saylovi o‘tkazilishi shart (96-modda).

97-moddaga muvofiq, vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod Senat a’zosi lavozimini egallaydi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Prezident, Prezidentlik instituti, davlat boshlig‘i, monraxiya, respublika, dunyo hamjamiyati, ob’yektiv zaruriyat, davlat strukturasi, siyosiy yo‘lboshchi, bayonot, davlat mustaqilligi, deklaratsiya, Pezident saylovi, daxlsizlik, akkreditatsiya, nomzod, xalqaro munosabatlar.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. “Prezident” so‘zining imloviy ma’nosi nima?
2. O‘zbekiston Respublikasida Prezidentliku instituti qachon tashkil topgan?
3. Davlat boshlig‘i kim va uning vazifalari nimalardan iboratligini gapirib bering.
4. Monarxiya davlat boshqaruvida davlat boshlig‘i lavozimiga qanday huquq asosida o‘tiladi?
5. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimining joriy etish sabablarini gapirib bering.
6. O‘zbekistonda Prezident saylovlarini o‘tkazish tartibi haqida gapirib bering.

VIII bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING VAZIRLAR MAHKAMASI. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ASOSLARI

8.1. Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasining hukumati

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XX bob 98-moddasi Vazirlar Mahkamasi va uning vazifasi, vakolatlari, tarkibi, missiyasi kabilar, XXI bob 99-moddada esa “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari”ga doir tushunchalar berilgan.

Qonunda belgilanganiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Ijro etuvchi hokimiyat esa davlat hokimiyati tizimida hokimiyatlar taqsimlanishi tamoyiliga ko‘ra, davlat hokimiyatining o‘ziga xos va maxsus vakolatga ega bo‘lgan ijroiya organlarining bir-biriga bo‘ysunadigan ierarxik tizimi shaklidagi mustaqil tarmoq hisoblanadi. Ijro etuvchi hokimiyat davlat hokimiyati tizimining alohida mustaqil bo‘g‘ini bo‘lib, u Konstitutsiya va qonunlar, davlat boshlig‘ining farmonlari, farmoyishlari va qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy rivojlantirish masalalarini hal qilishda aniq yo‘nal-tirilgan tashkilotchi, farmoyish beruvchi va tezkor-ijrochilik faoliyatini amalga oshiradi. Shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’-minlash, aholi turmush sharoitini yaxshilash bo‘yicha o‘z vakolati doira-sida mamlakat hududida yoki uning ma’lum ma’muriy-hududiy birligida bajarilishi majburiy bo‘lgan huquqiy hujjatlar qabul qiluvchi davlat boshqaruvi idoralarining yagona tizimidir.

Hukumat – ijro etuvchi hokimiyatning markaziy organi. U Konstitusiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatlarini amalga oshiradi. Hukumat, shuningdek, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni tayminlaydi, davlat boshqaruvining boshqa organlari hamda qurolli kuchlarga umumiy rahbarlik qiladi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nomlar bilan atalishi mumkin. Masalan, Vazirlar Kengashi, Kabinet, Ministrlar Kabineti, Davlat Kengashi, Ma’muriy Kengash, Federal Hukumat, hukumat va b.

Respublikamizda hukumat “Vazirlar Mahkamasi” deb nomlanadi. 1993 yil 6 mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra u “O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rah-

barlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari ijrosini ta’minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir”.[1]

Vazirlik (lotincha ministro – xizmat qilaman, boshqaraman degan ma’nolarni anglatadi) – davlat boshqaruvining markaziy organi sifatida o‘ziga yuklatilgan iqtisodiy, ma’muriy-siyosiy ijtimoiy-madaniy sohalarga rahbarlik qiladi. Vazirliklar hukumat tomonidan tasdiqlangan vazirliklar to‘g‘risidagi nizomlar va boshqa hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida belgilanishicha: “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislaridan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘iga binoan xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi nomidan ish ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 yil, № 9-10, 138-modda.

qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti ushbu Konstitutsiyaning 98-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi”.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiruvchi davlat boshqaruvi markaziy organlaridan yana biri davlat qo‘mitalari bo‘lib, ular tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiradi va ularga topshirilgan sohalarning holati va rivojlanishi uchun javob beradi. Qo‘mitalarga u yoki bu soha boshqaruvi doirasidagi tegishli tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish, ish olib borishda ularga uslubiy yordamlashish huquqi berilgan. Davlat qo‘mitasiga hukumat tarkibiga kiradigan qo‘mita raisi boshchilik qiladi.

Qo‘mita raisining o‘rinbosarlarini Respublikamiz Prezidenti lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi. O‘rinbosarlar orasidjagi vazifalar taqsimotini raisning o‘zi amalga oshiradi. Hukumat davlat qo‘mitalari a’zolari tarkibini belgilaydi. Ayrim davlat qo‘mitalarida hay’atlar tuzilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga muvo-fiq O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri nomzodi Respublika Prezidentining taqdimiga binoan Oliy Majlisning palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Bosh vazir nomzodi satslovlar o‘tgan-dan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining mansab-dor shaxslari saylanganidan va organlari shakllantirilganidan keyin bir oy ichida Respublika Prezidenti tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalarining har biri bilan hamda say-lovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan masla-hatlashuvlar o‘tkazilgandan keyin Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati ko‘rib chiqishi hamda tasdiqlashi uchun taqdim etiladi.

Bosh vazir lavozimiga nomzod Oliy Majlis palatalari a'zolari bilan tegishli tartibda o'tkazilgan savol-javob va muhokamalardan keyin ovozga qo'yiladi. Qonunchilik palatasi va Senati a'zolarining umumiy sonidan ko'pchilik ovoz olgan Bosh vazir nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi. Bosh vazir nomzodi ko'pchilik ovoz ololmasa Respublika Prezidenti siyosiy partiyalar fraktsiyalari va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputat bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan keyin Bosh vazir lavozimiga nomxodlarni yana ikki marta taqdim etishga egaligi haqida qoida bor.

Qonunchilik palatasi va Senati taqdim etilgan Bosh vazir nomzodini uch marta rad etgan taqdirda mamlakat Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini yoki uning palatalaridan birini tarqatib yuboradi va Bosh vazir vazifasini bajaruvchi shaxsni lavozimga tayinlaydi.

2007 yil 28 fevralda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 29 martda Senat tomonidan ma'qullangan "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq quyidagi hollarda Bosh vazir Respublika Prezidenti tomonidan o'z lavozimidan ozod etilishi belgilangan:

– Bosh vazirning iste'foga chiqish to'g'risidagi arizasiga binoan;

– Bosh vazir o'z vakolatlarini bajarishi mumkin bo'lmay qolgan taqdirda;

– Vazirlar Mahkamasi tarkibida uning normal faoliyatiga tahdid soluvchi hal qilib bo'lmaydigan ixtiloflar yuz berganda, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi bir necha marta O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga zid qarorlar qabul qilgan taqdirda;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ko'rib chiqishi uchun taqdim etgan tashabbusiga binoan. Agar zarur tashabbuslarga ega bunday tashabbusni Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar etakchi fraktsiyalari qo'llab-quvvatlasa hamda mazkur tashabbus mamlakat Prezidenti tomonidan Qonunchilik palatasi va Senatda ovozga qo'yilganda Qonunchilik palatasi va Senat a'zolari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozini olsa, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Bosh vazirni lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Aytib o‘tilgan qonunda Bosh vazirning lavozimidan ozod etilishi bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi hukumatining iste’foga chiqishiga sabab bo‘lishi to‘g‘risidagi qoida belgilangan.

8.2. Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risda”gi qonunning 5-moddasida Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish sohasidagi quyidagi asosiy vakolatlari beliglab qo‘yilgan:

– iqtitsodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkchilikning barcha shakllarini uyg‘unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ishga solish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi;

– xo‘jalik yuritishning yangi shakllari – konsernlar, konsortsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa shunga o‘xshash tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga yordamlashadi, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi talab-ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo‘naltiradi va muvofiqlashtiradi;

– O‘zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amlaga oshirishga ko‘maklashadi, yagona narx siyosatini o‘tkazish, mehnatga haq to‘lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta’minot darajasini ta’minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

– O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko‘rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

– boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idorlar hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqadi;

– fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

– fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga, ijtimoiy va huquqiy himoyalanishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko‘radi, ijtimoiy ta’minot tizimini takomillashtiradi;

– sog‘liqni saqlash, xalq ta’limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko‘maklashadi;

– O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, davlat chegaralari qo‘riqlanishini ta’minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

– davlat boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o‘tkazish hamda respublika hamda xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariyalar va falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko‘radi;

– O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta’minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko‘radi;

– tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi”.[1]

Vazirlar Mahkamasi vakolatlarining amalga oshirilishi Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislari, davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, Vazirlar Mahkamasining Rayosati, Vazirlar Mahkamasining doimiy muvaqqat komissiyalari va boshqa ishchi organlari faoliyati, Vazirlar Mahkamasi Apparati ishi bilan ta’minlanadi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatini mamlakatimiz Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi majlislaridagi va boshqa muhim tadbirlardagi nutqlarida belgilangan, shuningdek, ko‘rsatmalar va topshiriqlar sifatida ifodalangan siyosatni amalga oshirishga yo‘naltiradi. U o‘z ishini rejalardan kelib chiqan holda shakllantirilgan choraklik rejalarga muvofiq olib boradi.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatining muhim tashkiliy shakli uning majlislaridir. Bu majlislar yilning har choragida kamida bir marta o‘tkaziladi va ularda davlat boshqaruvining, xo‘jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning eng muhim masalalari hal etiladi. Bu majlislarni Bosh vazir, zarur hollarda Respublika Prezidenti unda raislik qilib, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishi yoki Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda farmoyishlarini, Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Bosh vazir raisligida o‘tkazilgan majlislar “Vazirlar kengashi” deb ataladi. Bosh vazir Vazirlar Mahkamasining ishi to‘g‘risida O‘zbekiston

[1] Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T. “O‘zbekiston”, 2008, 373-375-betlar.

Respublikasi Prezidentiga muntazam ravishda axborot beradi. Muhim davlat, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni hal etishda Bosh vazir o‘rinbosarlari Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan uning kompleks yoki maqsadli dastur va tadbirlarini ishlab chiqadilar. Vazirlar Mahkamasida ko‘riladigan masalalar kiritish huquqiga uning a’zolari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, istisno tariqasida ularning birinchi o‘rinbosarlari ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida Vazir-lar Mahkamasi yangi saylangan Oliy Majlis oldida o‘z vakolatlarini zim-masidan soqit qilish tartibi belgilab qo‘yilgan, ya’ni O‘zbekiston Res-publikasi Oliy Majlisi umumxalq ovoz berishi orqali yangi shaklda shakllantirilgandan keyin mamlakat hukumati ham yangicha asosda faoliyat ko‘rsatishi uchun o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi va Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan Oliy Majlis palatalari tasdig‘i uchun taqdim etilishi kerak. Bosh vazir palatalar tasdig‘idan o‘tgach, o‘z faoliyatini boshlaydi. Yangi Bosh vazir hukumat tarkibini Prezidentga tasdiqlashtish uchun kiritadi. Prezident tomonidan yangi hukumat tarkibi tasdiqlangach, hukumat yangicha asosda faoliyatini boshlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi, uning deputati, Oliy Majlis Senati, Senat a’zosi O‘zbekiston Respublikasining Hukumati va uning a’zosi faoliyatiga doir parlament so‘rovi yuborishi mumkin. Bunday holatlarda Vazirlar Mahkamasi yoki uning a’zosi belgilangan muddatlarda Oliy Majlisning tegishli palatalari majlislarida og‘zaki yoki yozma javob berishi shartligi belgilab qo‘yilgan.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish tartibi va uning vakolatlari doirasi 2007 yil 12 aprelda e’lon qilingan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunida, 2003 yil 29 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi (yangi tahrir) va Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadigan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti” bilan belgilanadi.

Xulosa shuki, Konstitutsiyamizga muvofiq Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatning asosi bo‘lgani uchun o‘z zimmasidagi iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni samarali hal etishi uchun huquqiy maqomi va mavqei etarli bo‘lgan muhim organdir.

8.3. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari

“Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan aharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar” (99-modda).

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadidan kelib chiqib, 1992 yil 4 yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi qonuni asosida mahalliy davlat hokimiyatining ikki mustaqil vakillik va ijroiya organlari hamda joylarda yakkaboshchilik asosida ish olib boruvchi hokimlik lavozimi joriy qilindi”.[1] Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimida boshqaruvning hokim qo‘lida mujassamlanishi islohotlarni amalga oshirishda demokratik davlat qurish tamoyillarini tatbiq etish imkoniyatlarini yaratish bilan birga mamlakatimizning tarixiy davlatchilik tajribalaridan kelib chiqib, ushbu tizim joriy etildi. 1993 yilning 2 sentyabrida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi mahalliy hokimlik va ijroiya hokimiyati organlarining tizimi, tuzilishi, vakolatlari, vazifalari, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy faoliyat shakllari, joylarda qonun ustuvorligini ta’minlashda ularning o‘zaro huquqlarini belgilab berdi.

Yuqoridagi qonunning 1-moddasida: “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanalardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir”, – deya belgilab qo‘yilgan.[2]

Xalq deputatlari Kengashi faoliyati hokim rahbarligida:

– hudud uchun umumiy bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Maj-lis Senati va Qonunchilik palatasi qarorlarini;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishini;

– davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari o‘rtasidagi aloqa va hakorlikni;

---

[1] O‘zbekistonning yangi qonunlari, 5-son. – T.: “Adolat”, 1992.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi. 1993, № 9. // O‘zbekiston Respublikasi, 30.08.1997. 485-1-son qonuni. 25.12.1998. 729-1-son qonuni, 03.12.2004. 714-II-son qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan.

– aholini hududiy boshqarish ishlariga jalb etish kabilarni ta’minlaydi.

Hokim rahbarligidagi xalq deputatlari Kengashlari tegishli hudud aholisining iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma’naviy va huquqiy munosabatlarida kelib chiqadigan muammolarni hal etish maqsadida jamoat birlashmalari, korxona, muassasa, tashkilot va davlat faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi idoradir. Bundan tashqari u mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini tegishli qonunlar talablari asosida bajarilishini tashkillashtiradi. Shuningdek, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari qarorlar qabul qilishi, farmoyishlar chiqarishi aytib o‘tilgan qonunning 6-moddasida belgilangan. Ushbu qonunning 18-moddasida esa xalq deputatlari Kengashining o‘z sessiyalarini chaqirish va o‘tkazish, qarorlar qabul qilish vakolatlarini ish tartibiga ko‘ra amalga oshirishlari belgilangan. Unga asosan davlat hokimiyatining vakillik organlari quyidagi huquqiy hujjatlarni qabul qiladi:

– xalq deputatlari Kengashining va hokimlik apparatining ish tartibi (reglamenti);

– xalq deputatlari Kengashlarining yordamchi va ijro etuvchi organlari to‘g‘risidagi huquqiy hujjatlar (deputatlik guruhlari va doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi, hokimlik apparatining bo‘limlari, boshqarmalari to‘g‘risidagi nizomlar);

– hokimlik mahkamasining tuzilmaviy qismlari to‘g‘risidagi, mansabdor shaxslar huquqiy holatini belgilab beruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar, mansab yo‘riqnomalari, bo‘lima va boshqarmalarning komissiyalari to‘g‘risidagi, qabulxonalar to‘g‘risidagi nizomlar va b. Aytib o‘tilganlar ko‘magida mazkur idoralarning vakolatlari amalga oshiriladi.

8.4. Xalq deputatlari Kengashlarining sessiyasi va uni o‘tkazish tartibi

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq xalq deputatlari Kengashlarining asosiy ish shakli sessiya bo‘lib, sessiyalar tegishli hudud hokimi, u yo‘qligida esa uning o‘rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, lekin bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Bundag tashqari, sessiya xalq deputatlari tegishli Kengashi deputatlarining kamida uchdan ikki qismining tashabbusi bilan ham chaqirilishi mumkin. Sessiyaning kun tartibi hokim, deputat, deputatlarguruhi va doimiy komissiyalar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, tayyorlanadi. Bunda sessiyada ko‘rib chiqiladigan muhim va dolzarb masalalarni tayyorlash bo‘yicha tegishli hokim tomonidan soha yoki tar-

moq mutaxassislari va olimlarni jalb qilib, ishchi guruh tashkil etilishi, ishchi guruh hududdagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari faollari, hokimlikning boshqarma va bo‘linmalari hamda boshqa tuzilmalari, korxona, tashkilot, muassasa va boshqa nodavlat tashkilotlarning fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda kun tartibini tayyorlaydi. Sessiya kun tartibi bo‘yicha muhokamaga kiritilayotgan masalalar va qaror loyihalari dastlab tegishli doimiy komissiyalar tomonidan ko‘rib chiqiladi va hujjatlar tayyor bo‘lgach, tasdiqlash uchun hokimga taqdim etiladi.

Deputatlarga sessiya o‘tkazish kun iva joyi, kun tartibi etti kun oldin ma’lum qilinib, tanishish uchun tegishli hujjatlar yuboriladi.

Sessiyalarda Oliy Majlis Senati a’zosi, Qonunchilik palatasi deputati ishtirok etishi, unga tegishli hududdagi davlat organlari va nodavlat tashkilotlar, korxona, muassasa, ommaviy axborot vakillari va boshqa shaxslar taklif etilganlar muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas.

Har bir sessiyani o‘tkazish davri uchun deputatlar orasidan sessiya kotibi yoki kotibiyati saylanadi. Ularni saylash haqida deputatlar ko‘pchilik ovoz bilan qaror qabul qiladilar. Kotib yoki kotibiyat esa sessiyada muhokama qilingan masalalar yuzasidan hujjatlarni bayonnoma yoki stenogrammada aks ettiradilar.

Xalq deputatlari Kengashi sessiyasining ishi kun tartibini tasdiqlashdan boshlanadi. Raislik qiluvchi kun tartibidagi masalalarni birma-bir yoki umumiy ravishda ovozga qo‘yishi mumkin. Deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar inobatga olingan holda ko‘pchilik ovoz bilan kun tartibi qabul qilinadi. Kun tartibi asosiy, tashkiliy, axborot va boshqa masalalar tarzida, quyidagi tartibda tuziladi:

Asosiy masalalar:

– xalq deputatlari Kengashining vakolatiga kiritilgan normativ xususiyatga ega bo‘lgan masalalar.

Tashkiliy masalalar:

– xalq deputatlari organlarini tashkil etish va mansabdor shaxslarini saylash, ular tarkibini o‘zgartirish, deputatlar vakolatini muddatidan oldin tugatishga doir masalalar.

Axborot va boshqa turli masalalar:

– alohida qaror qabul qilish talab etilmaydigan, tartibotga oid va ma’lumot tarzidagi masalalar.

Masalalarni ko‘rib chiqish tartibi:

– ma’ruzalar uchun belgilangan muddat – 30 daqiqagacha;

– qo‘shimcha ma’ruzalar uchun – 20 daqiqagacha;

– muzokara uchun – 10 daqiqagacha;

– yakunlovchi so‘z uchun – 5 daqiqagacha vaqt ajratiladi. Muzokaralarda takroriy so‘zga chiqish, bayonot, savol, xabar, taklif ma’lumotlar uchun 3 daqiqaga qadar vaqt beriladi.

Sessiya kun tartibi yuzasidan qaror qabul qilish ochiq, zarurat tug‘ilganda esa yashirin ovoz berish bilan amalga oshiriladi. Har bir deputat bir ovozga ega bo‘lib, muhokama etilayotgan masala yuzasidan “yoqlab”, “qarshi” yoki “betaraf” tarzda ovoz beradi.

Sessiyada yashirin ovoz berish yo‘li bilan qaror qabul qilinganda deputatlar orasidan sanoq komissiyasi saylanadi. Sanoq komissiyasi o‘z tarkibidan rais va kotib saylaydi. Sanoq komissiyasining qarorlari komissiya a’zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, zarur hollarda sessiyada ko‘rib chiqilayotgan masalaning dolzarb yoki muhimligi bois raislik qiluvchi yoki deputatlar taklifi bilan ishchi guruh tuziladi va u qaror loyihasini tayyorlab, uzil-kesil ishlab chiqadi. Sessiyada qabul qilingan qaror, agar hujjatda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, rais imzo chekkach, kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Kengashi o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar hududda joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Xalq deputatlari Kengashining qarorlari doimiy komissiyalarga, hokimlik bo‘limlari, bosh boshqarma, boshqarma hamda ularga tenglashtirilgan boshqaruv idoralariga, tegishli korxona, muassasa, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va quyi hokimliklarga tarqatilib, eng muhimlari ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunga qonunga asosan Xalq deputatlari Kengashi o‘z vakolati muddatiga sessiyada jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatuvchi doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzishi, ular tarkibiga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Ushbu komissiyalarning raisi va tarkibiga nomzodlar hokim tomonidan, ko‘rsatilib, deputatlar orasidan saylanishi mumkin. Doimiy komissiyalarning faoliyati “Xalq deputatlari Kengashi doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi Nizom” bilan tartibga solinadi. Doimiy komissiya o‘z faoliyatini Kengash qarori bilan tasdiqlangan yillik ish rejasi asosida bajaradi. Ushbu doimiy va muvaqqat komissiyalarning qarori tavsiya xususiyatiga ega va u hududdagi tegishli davlat organlari, korxona, tashkilot va mansabdor shaxslar tomonidan ko‘rib chiqilishi va natijasi haqida ma’lumot yuborilishi shart. Deputatlar guruhi doimiy komissiyalar bilan o‘zaro hamkorlikda

ish olib boradi. Deputat faqat bitta deputatlar guruhi va doimiy komissiyaning a'zosi bo'lishi mumkin.

8.5. Xalq deputatlari Kengashi deputatining maqomi

Mamlakatimizda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida" 2004 yil 2 dekabrda qabul qilingan qonunda[1] deputatning huquqiy holati berilgan.

Xalq deputatlari Kengashining deputati sessiyada ko'rib chiqiladigan hamma masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi. U qonunda belgilangan huquqlariga ko'ra:

– sessiyada ko'rib chiqish uchun masalalarni taklif etish;

– sessiya kun tartibi, muhokama etiladigan masalalarni ko'rib chiqish tartibi yuzasidan takliflar kiritish;

– tuziladigan idoralarning shaxsiy tarkibi, saylanadigan, tayinlanadigan, tasdiqlanadigan mansabdor shaxslar nomzodi yuzasidan takliflar kiritish;

– so'rovlar bilan murojaat qilish;

– muzokaralarda qatnashish, savollar berish;

– qaror loyihasi va ularga tuzatishlar kiritish;

– o'z takliflarini asoslash uchun so'zga chiqish;

– ovoz berish sabablari yuzasidan ma'lumotlar berish kabilarni amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari deputat tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asosli tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan deputat so'rovini beradi. Va mansabdor shaxslar mazkur so'rov olingan kundan o'n kun muddatdan kechiktirmay, unga javob yuboradi. Biroq sudlarning raislariga, prokurorlarga, surishtiruv va tergov idoralarining rahbarlariga yuborilgan deputat so'rovlari ularning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo'lishi mumkin emas.

Deputat so'rovlari bo'yicha axborot tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida muhokama qilinishi mumkin. Deputat axloq-odob qoidalariga qat'iy rioya qilishi shart. Uning o'z maqomidan fuqarolar, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi. Deputatlik odobi buzilsa, bu masala tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2004, № 12.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasida belgilanishicha: “Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

qonuniylikni, huquqiy tartiboti va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish;

mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish;

atrof muhitni muhofaza qilish;

fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta’minlash;

normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydi-gan boshqa vakolatlarni amalga oshirish”.

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tayotgan mamlakatimizning davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining asosiy tamoyillaridan biri qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashdir. Shu boisdan ham mahalliy davlat hokimiyatining vakillik va ijroiya organlari o‘z faoliyatlarini Respublikamiz Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlar va “Ish tartibi”ga asosan amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari huquq-tartibotni ta’minlashda, ya’ni qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan normativ aktlarga rioya etilishini, ularning ijrosi va qo‘llanishini ta’minlashda sud hokimiyati idoralari, prokuratura, ichki ishlar va adliya idoralari bilan hamkorlikda ish olib boradi va ularning ishlarini muvofiqlashtiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining eng muhim vazifasi qonuniylik, huquq-tartibot, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashdir.

“O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi 1992 yil 31 oktyabrda qabul qilingan va 2002 yil 13 dekabrda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan qonun, shuningdek, tadbirkorlikning mulkchilik asoslari to‘g‘risidagi boshqa qator qonunlarga asosan mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish sohasidagi vazifasi – xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari va viloyat, shahar, tuman hokimlarining ma’muriy-hududiy tuzilmalardagi mavjud mulklarni boshqarish, Respublikamiz tasarrufida bo‘lgan davlat mulki ob’yektlariga nisbatan ishlab chiqarish

va ijtimoiy ob'yektlarni samarali joylashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashdagi vakolatlaridan kelib chiqadi.

Mahalliy hokimiyat organlari hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, turmush sharoitini yaxshilash, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyatni rivojlantirish, shuningdek, moddiy bazani shakllantirish maqsadida mahalliy byudjetni shakllantiradi, uni ijro etadi, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilab, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qiladi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari Prezident farmonlari, qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlarni amalda bajarish davomida:

– hududda kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha davlat siyosatini va hukumat tomonidan qabul qilingan tadbirlarni amalga oshirishga;

– kommunal xizmat ko'rsatish tizimini isloh qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirishga;

– hudud aholisini va iqtisodiyot tarmoqlarini tabiiy va suyultirilgan gaz bilan uzluksiz ta'minlanishiga;

– kanalizatsiya, suv ta'minoti, isitish, elektr energiyasi bilan ta'minlashga;

– xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarning kiritilishi, qo'shma korxonalar faoliyat yuritishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni 10-moddasida "Davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining tabiatni muhofaza qilishi sohasidagi vakolatlari" belgilangan va ular bu sohada:

– o'z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, mintaqa (hudud)ning ekologiya dasturini tayyorlash;

– tabiiy resurslarni hisobga olish va ularning ahvoliga baho berish, ekologiya jihatidan zararli bo'lgan ob'yektlarni ro'yxatga olish;

– tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlash;

– tabiiy resurslardan foydalanish huquqini beruvchi sanoat chiqindilarini yoki ro'zg'or chiqindilarini to'plash yohud ko'mib tashlashga ruxsatnomalarni belgilangan tartibda berish yoki ularni bekor qilish;

– tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar undirish;

– tabiatning muhofaza qilinishi ustidan nazorat o'rnatish, atrof muhitga zarar etkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik ob'yektlar faoliyatini vaqincha yoki butunlay to'xtatish va qayta ixtisoslashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish hamda Respublikamiz qonunlarida ko'zda tutil-

gan boshqa masalalarni tartibga solish vakolatiga ega. Bundan tashqari mahalliy hokimiyat organlari o‘z hududlarida fuqarolik holatlari dalolatnomalarini, ya’ni tug‘ilish, o‘lim, nikohga kirish, nikohni bekor qilish, homiylik, vasiylik, voyaga etmagan bolalarni farzandlikka olish, bolalarni tarbiyalash uchun oilasiga olish (patronaj) kabilarning so‘nggisini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi Nizom”, “Voyaga etmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronaj) to‘g‘risida”gi Nizomga asosan qayd etilishini ta’minlaydi.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining 16 yoshga to‘lmagan fuqarosi guvohnomasini rasmiylashtirish va berish tartibi to‘g‘risida”gi 2000 yil 30 dekabrdagi qaroriga[2] asosan mamlakatimizning 16 yoshga to‘lmagan fuqarolari chet elga vaqtincha chiqishlarida ularning ota-onalari, vasiylari (homiylari), tashkilot va muassasa vakillari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyat hokimliklari huzuridagi maxsus komissiyalarga yozilgan arizalari bilan ichki ishlar idoralarining xorijga chiqish kelish va fuqarolik xizmatlariga murojaat qiladilar.

Fuqarolik holati dalolatnomalari tuman va shaharlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlarida, shaharcha, qishloq, ovullarda esa bunday holatlar fuqarolik yig‘ini raislari (oqsoqollari) tomonidan qayd etilishi mumkin. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolik holati dalolatnomalarini ro‘yxatga olish borasidagi faoliyatlari ular joylashgan hududlardagi tegishli hokimlikning bo‘limi nazoratida bo‘ladi. Chet elda doimiy yoki vaqtincha yashaydigan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosining fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan mamlakatimiz qonun hujjatlari asosida qayd etiladi.

“Mahalliy hokimiyat organlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Yuqori organlarning o‘zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari quyi organlar ijro etishi uchun majburiydir.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati – besh yil” (101-modda).

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. – T.: 1999, № 4.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. – T.: 2000, № 12.

Hokimlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda birinchi o‘rinbosarga ega bo‘ladi. Shuningdek, hokim apparati kotibiyatdan, boshqarmalar, bo‘limlar va boshqa bo‘linmalardan iborat bo‘lib, ularning tashkil etilish tartibi va faoliyat yuritishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tegishli Nizomlar asosida belgilanadi. ...Hokimlarning va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini saylash tartibi qonun bilan belgilanadi (103-modda).

O‘zbekiston Respublikasida hokimlik institutining joriy etilishi tarixiy-milliy davlatchilik boshqaruvining qayta tiklanishiga asoslangan. 1992 yil 4 yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi qonun asosida hokimlik lavozimi ta’sis etildi. 1993 yil 2 sentyabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonun hokim faoliyatini belgilab berdi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini 1996 yil 30 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy, toponomik ob’yektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi qonunda “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy bo‘laklari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, tuman, shahar, shahardagi tuman, qishloq, ovul va shahar qo‘rg‘onidan iboratdir,” – deyilgan. Bu erda Qoraqalpog‘iston Respublikasi milliy respublikadir. Uning o‘zining Konstitutsiyasi, Oliy davlat hokimiyati boshqa idoralari mavjud. Mahalliy hokimiyat organlari esa uning ma’muriy bo‘linmalaridan tashkil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari faoliyatining tashkil etilishi O‘zbekiston fuqarolari tomonidan umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali oshkoralik yo‘li bilan amalga oshiriladi. Xalq deputatlar saylovi, 1994 yil 5 mayda qabul qilingan “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to‘g‘risida”gi qonun[1] bilan belgilanadi. Xalq deputatlari Kengashlariga saylov Oliy Majlisga saylov o‘tkazish prinsiplariga o‘xshasa ham, uning ayrim o‘ziga xos hususiyatlari mavjud.

Xalq deputatlari Kengashlari deputatlarini saylash huquqi 18 yosh qilib, saylanish huquqiga esa 21 yoshdan belgilangan. Saylovlar O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan ularning vakolat muddatining tugashiga kamida 3 oy qolganda tayinlanadi. Saylovlar okruglar bo‘yicha o‘tkazilib, turli hududdagi Kengashlar uchun saylov okruglarining soni turlicha

[1] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – T.: 2003, № 9-10.

bo‘ladi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 60 tadan ko‘p bo‘lmagan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 30 tadan ko‘p bo‘lmagan hududiy saylov okruglari tuziladi.

Har bir saylov okrugidan tegishli xalq deputatlari Kengashiga bittadan deputat saylanadi.

Saylov okruglari tegishli viloyat, shahar, tuman saylov komissiyalari tomonidan, qoidaga ko‘ra, saylovchilar soniga mutanosib ravishda tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari esa viloyatlar, tumanlar va shaharlarning ma’muriy-hududiy tuzilishini inobatga olib, belgilanadi.

Aytib o‘tilgan qonunning 9-moddasiga ko‘ra saylovni tashkil etish va o‘tkazish uchun:

– xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi;

– xalq deputatlari tuman Kengashiga saylov o‘tkazuvchi tuman saylov komissiyasi;

– xalq deputatlari shahar Kengashiga saylov o‘tkazuvchi shahar saylov komissiyasi;

– okrug saylov komissiyalari;

– uchastka saylov komissiyalari tuziladi.

Ushbu qonunning 20-moddasiga ko‘ra, Xalq deputatlari viloyat Kengashlari, deputatligiga nomzodlar ko‘rsatish huquqiga siyosiy partiyalar, bevosita fuqarolar egadir. Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzod ko‘rsatish huquqiga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, siyosiy partiyalar, bevosita fuqarolar egadirlar.

Qonunning 23-moddasiga ko‘ra quyidagilar deputatlikka nomzod etib ro‘yxatga olinmaydilar:

– sodir etilgan janoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagn shaxslar;

– saylov kuniga qadar so‘nggi besh yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashamagan shaxslar;

– O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari, Milliy xavfsizlik xizmatining Ichki ishlar vazirligining, boshqa harbiylashtirilgan bo‘linmalarning xodimlari;

– diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari.

Saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar tegishli hudud saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan kundan boshlanadi. Tegishli saylov komissiyalari saylovchilar ro‘yxatini tuzadilar, fuqarolarni

ro‘yxat bilan tanishtirib, ovoz berishni tashkil etadilar va saylov natijalarini aniqlaydilar.

Aytib o‘tilgan qonunning 48-moddasida belgilanishicha, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlarida saylovni tayyorlash va o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar davlat mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

“Hokim o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi” (104-modda).

Tegishli hududda yuqori lavozimli shaxs hokimdir. U o‘zi hokim bo‘lgan hududdagi barcha sohalarni boshqarish vakolatiga ega.

Respublikamiz miqyosidagi har qanday hujjat hokimlar orqali hayotga tatbiq etiladi. Konstitutsiyaga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga amal qilishni ta’minlash, Oliy Majlis qarorlari talablarini amalga oshirish, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi, yuqori organlar va tegishli hudud xalq deputatlari Kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil qilish kabilar hokimning asosiy vazifalaridir. Hokim bu vazifalarni o‘z ijrochi apparati va sohaviy boshqaruv organlari yordamida bajaradi. Hokim tomonidan yuqori davlat organlari hujjatlarini amalga oshirishga qaratilgan va o‘z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan qabul qilingan qaror tegishli hududdagi barcha organlar, korxona, tashkilot, muassasa, jamoatchilik tashkilotlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiydir.

Hokim o‘zi qabul qilgan qaror va boshqa hujjatlar mansabdor shaxslar tomonidan bajarilmagan taqdirda ularga nisbatan intizomiy javobgarlika tortish uchun belgilangan tartibda taqdimnomalar kiritadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati asoslari, ijro etuvchi hokimiyat, ierarxik tizim, vazirlik, qo‘mita, Bosh vazir, hukumat tarkibi, modernizatsiya, iste’fo, vakolat, qaror, kafolat, konsern, konsorsium, tarmoqlararo birlashmalar, uyushmalar, kredit, narx siyosati, Davlat byudjeti, istiqbol, xorijiy davlat, davlat boshqaruvi, Davlat xavfsizligi, xalqaro tashkilotlar, Vazirlar Kengashi, reglament, huquqiy maqom, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, muzokara, sessiya, tabiatni muhofaza qilish.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Vazirlar Mahkamasi qanday hokimiyatni amalga oshiradi?
2. Vazirlar Mahkamasining vazifalari nimalardan iborat?
3. Davlat boshqaruvining markaziy organi nima?
4. Vazirliklarning faoliyatlari qanday amalga oshiriladi?
5. Qo‘mitalar va vazirliklar faoliyatlaridagi farqni gapirib bering.
6. O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri lavozimiga tayinlanish tartibi qanday?
7. Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida kimlar oldida javobgar?
8. Davlat boshqaruvini yangilash, demokratlashtirish va modernizatsiyalashda siyosiy partiyalarning roli qanday?
9. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti qanday hollarda Bosh vazirni o‘z lavozimidan ozod etadi?
10. Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari nimalardan iborat?
11. Bosh vazirning lavozimidan ozod etilishi O‘zbekiston Hukumatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
12. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining muhim tashkiliy shakli nima? Va u qanday masalalarni hal etadi?
13. “Vazirlar Kengashi” nima?
14. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti” haqida gapirib bering.
15. Mahalliy davlat hokimiyati asoslari nimalardan iborat?
16. Xalq deputatlari Kengashlarining asosiy ish shakli nimadan iborat?
17. Xalq deputatlari Kengashi deputatining maqomi haqida gapirib bering.
18. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga nimalar kiradi?
19. Xalq deputatlari Kengashiga saylov o‘tkazish tartibini gapirib bering.
20. Kimlar deputatlikka ro‘yxatga olinmaydi?

IX bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

9.1. O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar ijtimoiy-siyosiy, davlat, huquqiy hayotning barcha sohalarini qamrab oldi. Pirovard maqsadi huquqiy demokratik davlatchilikni barpo etish bo‘lgan ushbu islohotlar Respublikaning sudlov tizimini ham qamrab olmoqda. Sud islohoti huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati umumiy shakllanishi jarayonining ajralmas va zarur tarkibiy qismidir. Sud-huquqiy islohoti mamlakatda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari bilan teng, mustaqil kuchli sud hokimiyatini vujudga keltirishning muhim omilidir. Sud hokimiyati nafaqat uch hokimiyatning biri, balki uning yuksak nufuzli huquqiy holati, jamiyat va davlat hayotida inson huquqlari, demokratiya va qonuniylik barqaror bo‘lishining asosiy shartidir. Zero, sud hokimiyatining vazifasi – fuqarolarning huquq va erkinlarini, mamlakat Konstitutsiyaviy tizimini himoya qilish, qo-nun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati hujjatlarining Konstitutsiyaga mu-vofiqligini ta’minlash, qonunlarning va boshqa normativ hujjatlarni ijro qilish va qo‘llashda qonuniylik hamda adolat uchun kurashdan iborat. O‘zbekistonda mustaqil adolatli sud hokimiyatini qaror toptirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, u mamlakat prezidentining doi-miy diqqat markazidagi masaladir.

9.2. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati va uning tuzilishi

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida mustaqil shahobchalaridan biri bo‘lib, jamiyat hayotida odil sudlovni amalga oshirishga safarbar etilgan. Odil sudlov o‘z mohiyatiga ko‘ra, davlat faoliyati hisoblanadi. Unda vakolatli sud muassasasi huquq normalari talablarini buzish oqibatida kelib chiquvchi nizo holatlarini muhokama etib, hal qiladi. Demokratik huquqiy davlatda huquq (qonun) davlat idoralari fuqarolarning turli-tuman uyushmalari va alohida shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning mezonidir. Mazkur munosabatlar huquq (qonun) doirasida kechishini va hal etilishini ta’minlash sud hokimiyatining zimmasiga yuklatilgan. Odil sudlovning oliy maqsadi kuch va zo‘ravonlik g‘oyasini huquq va adolat g‘oyalari bilan almashtirishdan iborat. Sud hokimiyatiga quyidagi xususiyatlar xos:

Birinchidan sudlov faoliyati davlat nomidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, sudlov maxsus tartibda tashkil etilgan, (saylangan va tayinlangan) muassasalar tomonidan amalga oshiriladi.

Uchinchidan, sudlar o‘z faoliyatida faqat qonunga bo‘ysunadilar hamda fuqarolik, ma’muriy, jinoiy va boshqa ishlarni qonunda belgilangan protsessual tartibda hal etadilar.

To‘rtinchidan, sudlar boshqa hokimiyat shahobchalaridan mustaqil faoliyat yuritadilar.

Beshinchidan, sud tanholik bilan ta’riflanadi, ya’ni davlatning boshqa hech qaysi idorasi sudlov funktsiyalarini o‘z zimmasiga ololmaydi; faqat sud davlat nomidan majburlov vakolatlarini amalga oshiradi.

Oltinchidan, sud hokimiyati to‘laqonli va qat’iydir, ya’ni sudning qonuniy qarori barcha uchun majburiydir.

Sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan farqi shundaki, mamlakatda amal qiluvchi butun tizimi har bir sudga tegishlidir.

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati ijtimoiy adolat, huquqiy tartib, qonun ustuvorligini ta’minlashga, Konstitutsiyaning inson huquqlari, erkinliklarini va qonun manfaatlarini muhofaza etishga qaratilgan.

Mamlakatimiz fuqarolari sud hokimiyatning konstitutsiyaviy-huqu-qiy maqomi, tuzilishi va haq-huquqlari hamda manfaatlarini himoya qi-ladigan organ, o‘zlarining himoyachisi, adolat posboni deb bilishi kerak. Buning uchun juda katta ishlar qilinishi lozim. Sudlar qonundan og‘ish-may ish tutib, fuqarolarni manfaatlarini muhofaza etib, ularning buzilgan huquqlarini tiklab, bu yo‘ldan sobitqadamlik bilan qat’iy borib, mashaq-qatli mehnat qilib, xalqning ishonchini qozonishlari zarur bo‘ladi. 1997 yil senyabr oyida O‘zbekiston Sudyalari Assotsiatsiyasi tashkil topdi. Ta’sis majlisi Assotsiatsiyaning Ustavini qabul qildi. Uyushma Ustavi 1997 yil 4 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomoni-dan ro‘yxatga olindi. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, davlatimizda sud hokimiyati oliy organ hisoblanib, u davlat hokimiyatining uchinchi – mustaqil tarmog‘i sifatida e’tirof etilgan.

9.3. O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovning konstitutsiyaviy prinsiplari

O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovni amalga oshirish huquqiy davlatning mohiyati va vazifalarini ifodalovchi demokratik prinsiplarga ta-

yanadi. Quyidagi prinsiplar Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan.

1. Ustuvor Konstitutsiyaviy prinsiplardan biri mamlakatimizda odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishidir. Buning ma'nosi shuki, suddan boshqa hech qaysi davlat organi fuqarolik, jinoiy va boshqa ishlarni ko'rish va hal qilish huquqiga ega emas.

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipi fuqarolarning hamda tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim kafolatidir. Bu prinsip sud hokimiyati faoliyati chegaralarining Konstitutsiyada belgilanganligida, ya'ni konstitusiyaviy, fuqarolik, ma'muriy va jinoiy sudlov ishlarini amalga oshirish orqali ro'yobga chiqarilishida, shuningdek, sud tizimi normalarining qonuniy mustahkamlanganligida o'z ifodasini topadi. Konstitutsiyaning 107-moddasida favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi, deb alohida ta'kidlanishida ham yuqoridagi prinsipning amal qilishga qat'iy kafolat yaratilganligini ko'rish mumkin.

2. Odil sudlovni amalga oshirishning yana bir muhim prinsipi sud hokimiyatining va sudyalarning mustaqilligidir. Konstitutsiyaning 112-moddasi va "Sudlar to'g'risidagi" qonunning 4-moddasiga binoan, sudyalar mustaqildirlar, ular faqat qonunga bo'ysunadilar.

Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasida faoliyatiga biron bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq, javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Sudyalarning mustaqilligi, shuningdek, ularning biron-bir partiyaga mansub bo'lmasligi bilan ham ta'minlanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, sudyalar, shu jumladan, tuman sudyalari siyosiy partiyalar va xarakatlarning a'zolari bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Sudyalarning mustaqilligi-sud hokimiyatini to'siqsiz erkin ro'yobga chiqarish va obro' bilan harakatlanishning muhim shartidir. U qanchalik mustaqil bo'lsa, qonun asosida faoliyat yuritsa, odil sudlovni xolis amalga oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish shunchalik samarali bo'ladi. "Sudlar to'g'risida"gi qonun sudyalar mustaqilligini ta'minlashning muhim kafolatlarini belgilaydi.

Sudyalarning mustaqilligi quyidagilar orqali ta'minlanadi:

– ularni qonunda belgilangan tartibda sudyalikka saylash, tayinlash va sudyalikdan ozod qilish;

– ularning daxlsizligi;

– odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy taomil;

– qaror chiqarish chog'ida sudyalar maslahatining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi;

– sudga hurmatsizlik yoki muayyan ishlarni hal qilishga aralashganlik, sudyalar daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik;

– sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish.

Davlat organlari va boshqa organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar sudyalarni hurmat qilishi va ularning mustaqilligiga rioya etilishi shart.

Sudyaga nisbatan hurmatsizlik qilish, shuningdek, uni ochiqdan-ochiq mensimaslikdan dalolat beruvchi xatti-harakatlar qilish qonunga binoan, javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Muayyan ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rishga to'sqinlik qilish yoki g'ayriqonuniy sud qarori chiqarilishiga erishish maqsadida sudyalarga qanday bo'lmasin, biron-bir tarzda ta'sir etish qonunga muvofiq, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyadan ko'rilgan yoki ish yurituvdagi ishlar mohiyati bo'yicha biron-bir tushuntirishlar berishni, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibdan tashqari,kimga bo'lmasin, tanishib chiqish uchun ishlarni taqdim etishni talab qilish taqiqlanadi. Ommaviy axborot vositalari o'z xabarlarida muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan o'zicha hal qilib qo'yishga yoki sudga boshqacha tarzda ta'sir etishga haqli emas.

Konstitutsiyaning 112-moddasida sudyalarning faqat qonunga bo'ysunishi ko'rsatilganligini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Buning ma'nosi shuki, sudyalar o'zlariga qonun bilan berilgan vakolat doirasida ish yuritadilar va har xil masalani qonunga muvofiq hal etadilar. Basharti, sud ish ko'rayotgan vaqtda davlat organlari yoki boshqa idora hujjatining qonunga nomuvofiqligini aniqlasa, o'z qarorini faqat qonunga asoslanib chiqaradi. Ushbu konstitutsiyaviy qoida davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning har qanday hujjatlariga nisbatan tatbiq qilinadi.

3. Odil sudlovning navbatdagi konstitutsiyaviy prinsipi sud ishlarini yuritishning oshkoraligidir. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi. Demak, aksariyat hollarda sud jarayonlari ochiq o'tkazi-ladi. Ularda tomonlarning vakillari, sudlanuvchilarning

qarindosh-urug‘-lari, yaqinlari, istagan fuqorolar, jamoatchilik vakillari, ommaviy axbo-rot vositalarining vakillari, ya’ni muxbirlar, jurnalistlar ishtirok etishlari mumkin. Qonunda nazarda tutilgan hollarda, masalan, davlat siri yoki harbiy sirlar bilan bog‘liq ishlarda, jabrlanuvchining sha’ni va oriyatini muhofazalash manfaatlaridan kelib chiqib, sud ishni keng jamoatchilik ishtirokidan holi ko‘rishni lozim topishi mumkin. Jinoyat ishi jinsiy jino-yat bilan bog‘liq hollarda ham ish yopiq ko‘riladi. Yopiq sud majlisiga, sud ajrimiga binoan, 18 yoshga etmagan shaxslar taklif qilinmaydi.

Konstitutsiyaning 114-moddasida, “Sud hokimiyati chiqargan hujjat-lar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqorolar uchun majburiydir”.

5. Odil sudlovni amalga oshirishda til to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy prinsip katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 115-moddasida belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiali bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi.

6. O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovning asosiy prinsiplari-dan yana biri aybsizlik prezumptsiyasidir.

Aybsizlik prezumptsiyasi – shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda va tegishli organlar tomonidan tasdiqlanmaguncha, uning aybsiz hisoblanishidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida ko‘rsatilishicha, “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta’minlab beriladi”. Ushbu prinsipga amal qilish sud organlarining jazo to‘g‘risida hukm chiqarishlaridan oldin aynan shu shaxsning aybi bor yoki yo‘qligini aniqlashga yordam beradi. Dastlabga tekshirish organi jinoyat sodir et-gan shaxsga ayb e’lon qilishda, uning ushbu jinoyatni sodir qilishdagi aybdorligini (aybsizligini) albatta isbot qilib berishga majbur, chunki ayblanuvchi aybsizlik prezumptsiyasiga ko‘ra, sudning chiqargan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirmagunga qadar aybdor deb hisoblanmaydi. Ayblanuvchi o‘zining aybsizligini isbot qilib berishga majbur emas. Jinoyat sodir etgan shaxsning aybdorligini isbotlash majburiyati tergovchi, prokuror va sudga yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir kishining himoya huquqi kafolatlanadi. Qoidaga ko‘ra, shaxsning ushbu huquqi advokatlar orqali amalga oshiriladi. Advokat har bir huquqiy masala yuzasidan malakali yordam berib, jinoiy va fuqoroviy sud ishlarida ishtirok etadi va ularga murojaat qilgan shaxslarning manfaatini himoya qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-modda 2-bo‘lim va “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunda hech qanday shaxs qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka,shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi ta’kidlangan.

7. Har kimning sud himoyasida bo‘lish huquqi muhim konstitusiyaviy prinsip hisoblanadi. Bu haqda “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasida shunday deyiladi:

O‘zbekiston Respublikasi fuqorolari, chet el fuqarolari va fuqoroligi bo‘lmagan shaxslar davlat organlari va boshqa organlarning, mansabdor shaxslarning har qanday g‘ayriqonuniy xatti-harakatlardan, shuningdek, hayoti va sog‘ligi, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mol-mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo‘lish huquqiga ega.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham sud himoyasida bo‘lish huquqiga ega.

Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo‘li bilan samarali himoya qilinishini ta’minlash maqsadida sud muhokamasining barcha bosqichlarida va qonuniy hujjatlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risidagi masalalar sudlar tomonidan ko‘rilayotganida prokuror ishtirok etadi.

8. Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsipi xam konstitusiyaviy prinsiplar qatoriga kiradi. Fuqarolarning qonun oldida tengligi Asosiy qonunning 18-moddasida belgilangan. Ana shu qoidaning sudga tatbiqan talqini “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga bayon etilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdir...

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdir.

Odil sudlovning xolisligi va mustaqilligini ta’minlashda sudlar faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 11-moddasi ushbu masalani huquqiy jihatdan tartibga soladi. O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, viloyatlar Toshkent shahar sudlari, tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari faoliyatini tashkiliy ta’minlash sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi pritsiplariga qat’iy rioya qilingan holda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Komissiya to‘g‘risidagi nizom belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Komissiya sudyalar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, sudyalar malaka hay’atlarining, jamoat birlashmalarining vakillaridan hamda huquq sohasidagi yuqori malakali mutaxassislardan tarkib topadi. Komissiyaning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasi zimmasiga sudyalarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishning demokratik asoslarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqarish va amalga oshirish, sud kadrlarini tanlash va O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tasdig‘iga tavsiya etishda qonuniylikni ta’minlash, ularning mustaqilligini mustahkamlash va ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklatiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Nizomi belgilangan tartibda tasdiqlanadigan maxsus vakolatli organ:

1. Sudlarni tashkil etish masalalari yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muhokamasiga kiritadi.

2. Sudlarning kadrlar malakasini oshirishini tashkil qiladi.

3. Sudlarning moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta’minlash hamda ularning faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratish ishlarini tashkil qiladi.

4. Xalq maslahatchilari saylovini o‘tkazish ishini tashkil qiladi.

5. Sud qarorlarini ijro etish ishlarini tashkil qiladi.

6. Sud statistikasi va sud amaliyotinining tizimli tahlilini amalga oshiradi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi sudyalarning tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasiga taqdim etish uchun sudyalarni tanlash mexanizmini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashda ishtirok etadi. Xo‘jalik sudlari faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta’minlash O‘zbekiston Respubli-

kasi Oliy xo‘jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi.

9.4. O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sudning tutgan o‘rni

1995 yil 30 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonunga binoan Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konsti-tusiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radigan sud hokimiyati organi hisoblanadi. Bu O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi davri-dagi Konstitutsiyaviy sud haqidagi ikkinchi qonundir.

Konstitutsiyaviy sudning vazifalariga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va Oliy Majlis qabul qilgan boshqa hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Hukumat va davlat hokimiyati hamda mahalliy organlarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo shartnomalar bilan olgan boshqa majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosli-gini aniqlaydi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qo-nunlari O‘zbekiston Respublikaning qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida hulosa beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining norma-lariga sharh beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan o‘zi-ning vakolatlari doirasiga kiritilgan boshqa ishlarni ko‘rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sud ishlarni faqat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qilgan holda hal etadi va xulosalar beradi, chunki Konstitutsiyada mazkur sudga nisbatan tegishli e’tibor mavjuddir.

Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taq-dimiga binoan Oliy Majlis tomonida sud raisi, rais o‘rinbosari va Qora-qalpog‘iston Respublikasidan saylanadigan sudyalarni qo‘shgan holda Konstitutsiyaviy sudning besh a’zosidan iborat tarkibda saylanadi. Konstitutsiyaviy sudning har bir sudyasi yakka tartibda saylanadi. Oliy Majlis deputatlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozini olgan shaxs sudya etib saylangan hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud tarkibiga kamida to‘rt kishi saylangan taqdirda sud o‘z faoliyatini boshlashga haqlidir. Sudya Konstitutsiyaviy sud tarki-bidan chiqib ketgan taqdirda Oliy Majlis ushbu moddada belgilangan tartibda boshqa shaxsni saylaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 97-moddasiga binoan vakolati tugashi munosabati bilan iste’foga chiqqan Prezident umrbod Konstitutsiyaviy sud a’zosi lavozimini egallaydi deb yuritilar edi, ammo hozirgi kunda iste’foga chiqqan Prezident umrbod Senat a’zosi lavozi-mini egallaydi. Konstitutsiyaviy sud besh yillik muddatga saylanadi va doimiy ishlaydigan organdir. Majlislari zaruratga qarab o‘tkaziladi. Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy prinsiplari O‘zbekiston Respub-likasi Konstitutsiyasiga sodiqlik, mustaqillik, kollegialik, oshkoralik va sudyalar huquqlarining tengligidan iborat.

Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qaror qabul qilar ekanlar, amaliy maqsadga muvofiqlik, mulohazalik, siyosiy moyilligidan va boshqa tashqi ta’sirlaridan holi bo‘lgan o‘z huquqiy nuqtai nazarlarini ifodalaydilar. Konstitutsiyaviy sudning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashish qonunga binoan javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi. Konstitutsiyaviy sudda ishlarni ko‘rib chiqish va qarorlar qabul qilish kamida to‘rt sudyadan iborat tarkibda kollegial tarzda amalga oshiriladi. Sudning majlislari qoida tarzda ochiq o‘tkaziladi. Masalalarni ko‘rib chiqishda va qarab chiqilayotgan masalalar bo‘yicha ovoz berishda rais, rais o‘rinbosari va Konstitutsiyaviy sudning a’zolari sudyalar sifatida teng huquqlarga egadir. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Konstitutsiyaviy sudning normativ va boshqa hujjatlarni, ularning nusxalarini taqdim etish to‘g‘risidagi, qarab chiqilayotgan masalalar yuzasidan tushuntirish va maslahatlar berish xususidagi talablari ular yuborilgan organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Konstitutsiyaviy sudning faoliyat tartibi uning Reglamenti bilan belgilanadi. Mazkur Reglament 1996 yilning iyul oyida qabul qilingan. Konstitutsiyaviy sud o‘zining tashabbusiga ko‘ra har qanday davlat organi va jamoat birlashmasining chiqargan normativ hujjatlari Konstitusiyaga mosligini ko‘rib chiqish huquqiga ega.

Konstitutsiyaviy sudning Reglamentida normativ hujjatlarning konstitutsiyaviyligini tekshirish prinsipi ko‘rsatilgan. Masalalarni ko‘rib chiqish paytida sud O‘zbekistonning chiqargan qonunlari, bitilgan shartnomalari, Respublika Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarining chiqargan normativ hujjatlari va boshqa majburiyatlariga konstitutsiyaviylik prinsipi bilan yondashadi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar-

ning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘rganda Konstitutsiyaviy sudning faoliyat yuritilishining qonuniy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi 2000 yil 14 dekabrdagi qonuni bilan belgilanadi. Konstitutsiyada mustahkamlanishicha, ”O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosii partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi”.

Konstitutsiyaning 107-moddasi va “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining sud muassasalari besh yil muddatga saylanadi yoki tayinlanadi. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimi quyidagi sudlardan tashkil topgan:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi.

O‘zbekiston Respublikasining Oliy xo‘jalik sudi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqorolik va jinoyat ishlari bo‘yicha, viloyat va Toshkent shahar sudlari:

Fuqorolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman sudlari,jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudlari:

Harbiy sudlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining xo‘jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari.

O‘zbekiston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirilishi mumkin.

Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi. Qonun sudlarni tashkil etish, ularni saylash va tayinlash tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tarkibi Oliy Majlisga saylov o‘tganda so‘ng, Prezidentning taklifiga muvofiq, Oliy Majlis sessiyasida saylanadi. O‘zbekiston Respublikasining faoliyati uzviy ravishda Konstitutsiya, normalariga sharh berish bilan bog‘liqdir. Konstitutsiyaviy normalarning mazmuni va ma’nosiga doir masalalar bo‘yicha ularni bir ma’noda e’tirof etish va ularni to‘g‘ri tushunish Konstitutsiya normalariga sharh berish asosida amalga oshiriladi, chunki ular huquqiy davlatning asoslari bo‘ladi va bevosita qo‘llanishini taqozo etadi:

Konstitutsiyaviy sud o‘zining muhokamasida qonunda belgilangan shaxslarning takliflarini qabul qiladi. Oliy Majlis, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Oliy Majlis deputatlari umumiy tarkibining kamida

to‘rtdan bir qismidan iborat deputatlar guruhi, O‘zbekiston Respublikasi oliy sudining Raisi, O‘zbekiston Respublikasining Oliy xo‘jalik sudining Raisi va Bosh prokuror Konstitutsiyaviy sudda ko‘rib chiqish uchun masalalar kiritish xuquqiga egadirlar. Alohida fuqorolarga Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish xuquqi berilmagan. Zarurat bo‘lsa, ular Konstitusiyaviy sudga qonunda bunday huquqqa ega bulgan organlar va shaxslar orqali murojaat qilishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining yurisdiktsiyasi qonuniy kuchga kirgan normativ hujjatlarga taalluqli.

Mazkur sud qonun loyihalarini muhokama qilishda maslahatchi sifatida ishtirok etishi mumkin.

Konstitutsiya talabiga zid bo‘lgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlar ularni chop etish paytidan boshlab huquqiy kuchga ega bo‘lmagan deb hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari qat’iy va uning ustidan shikoyatga o‘rin bo‘lmaydi. Shuningdek, agar to‘xtam qabul qilingan paytda Konstitutsiyaviy sudga noma’lum bo‘lgan yangi muhim holatlar ochilsa, to‘xtam qabul qilinishiga asos bo‘lgan Konstitusiyaviy norma o‘zgargan bo‘lsa, Konstitutsiyaviy sudning to‘xtami uning tashabbusi bilan qaytadan ko‘rib chiqilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudning saylanishi va uning amaliy jihatdan ish boshlashi bilan mamlakatimizda yangi siyosiy tizimning asosiy qismlari shakllanishi to‘la ravishda yakunlandi. Hokimiyat bo‘g‘inlari, to‘laqonli va layoqatli bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va qat’iy ravishda huquqiy asoslarga tayanib harakat qiladi. Qonunchilikning nufuzli zaxirasiga ega, Konstitutsiyaviy sudning faoliyati esa jamiyatimizni demokratik huquqiy davlatga tadrijiy ravishda o‘tishini aks ettirmoqda.

9.5. O‘zbekiston Respublikasida Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudining ahamiyati

a) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110- moddasida Oliy sud to‘g‘risida shunday deyilgan. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi – fuqorolik, jinoiy va ma’muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi.

U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat’iy va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy

sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish xuquqiga ega”.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instantsiya sudi sifatida, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘radi.

Birinchi instantsiyasi sifatida ishlarni ko‘rish Oliy sudning tarkibida bo‘lgan uchta sudyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Sud hokimiyatining oliy organi tarkibi uning raisi, uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari, sudlov hay’atlari raislari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalaridan iborat bo‘lib, quyidagi tartibda ish olib boradi:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati;

Fuqorolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati;

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati;

Harbiy hay’at.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishi ustidan nazorat olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi eng yuqori sudlov instantsiyasi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudlarining raislaridan iborat tarkibda ish olib boradi. Plenum majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Adliya vaziri qatnashadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining taklifiga binoan Plenum majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisi, sudyalar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a’zolari, vazirliklar, idoralar, boshqa davlat organlari, ilmiy muassasalar va jamoat birlashmalari vakillari ishtirok etishlari mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi to‘rt oyda kamida bir marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumii masalalarga doir hujjatlar loyihalari Plenum a’zolariga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga, Adliya vaziriga majlisdan yigirma kun ilgari yuboriladi.

b) O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 111-moddasiga muvofiq Oliy xo‘jalik sudi:

“Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o‘rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o‘rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo‘jalik nizolarini hal etish Oliy ho‘jalik sudi va xo‘jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi”. Xo‘jalik sudlari tizimi-

ga O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyatlar xo‘jalik sudlari va Toshkent shahar xo‘jalik sudi kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi ho‘jalik sudlov sohasida sud hokimiyatining oliy organidir. U tomonidan qabul qilingan aktlar qat’iy bo‘lib, mamlakatimizning barcha hududlarida bajarilishi majburiydir. Ushbu sud Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudining, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. U shuningdek, Plenumning rahbariy tushuntirishlari xo‘jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo‘jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo‘jalik sudlarining ishini tashkil etishdagi ijobiy tajribani o‘rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi.

Oliy xo‘jalik sudi rais, uning birinchi o‘rinbosari, o‘rinbosarlari, sudlov hay’atlarining raislari, sudyalardan iborat.

Unda Plenum, Rayosat, Nizolarni hal etish bo‘yicha sudlov hay’ati, Ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo‘yicha sudlov hay’ati amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi sudyalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi raisidan iborat tarkibda ish olib boradi. Uning majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi raisining taklifiga binoan Plenum majlislarida O‘zbekiston Konstitutsiyaviy sudi raisi, Oliy sud raisi, Adliya vaziri, sudyalar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi huzuridagi ilmiy maslahat kengashi a’zolari, vazirliklar, idoralar, davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari, ilmiy muassasalar hamda nodavlat, notijorat tashkilotlarning vakillari ishtirok etishi mumkin. Oliy xo‘jalik sudi Plenumi bir yilda kamida ikki marta chaqiriladi. Muhokama qilinadigan umumiy masalalarga doir hujjatlar loyihasi Plenum a’zolariga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuroriga majlisdan 20 kun ilgari yuboriladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lgan taqdirda Plenum vakolatli hisoblanadi.

Asosiy tayanch tushunchalar

Sudlov hay’ati, plenum, rayosat, adliya, ma’muriy-huquqiy, sudya, sud, ilmiy maslahat kengashi, nodavlat, notijorat.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Konstitutsiyaviy sudning faoliyatiga aralashishning oqibati nima bo‘ladi?
2. Konstitutsiyaviy sudning faoliyat tartibi nima bilan belgilanadi?
3. Konstitutsiyaviy sud qanday huquqlarga ega?
4. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qanday ish yuritadi?
5. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimining tuzilishi haqida gapirib bering.
6. Sudlarni tashkil etish, saylash va tayinlash tartibi qanday amalga oshiriladi?
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining tarkibi qanday shakllanadi?
8. Alohida fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga qanday murojaat qiladilar?
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudining ahamiyati qandayligini gapirib bering.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi birinchi instantsiya sifatida qanday ish ko‘radi?
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qanday tartibda ish olib boradi?
12. Eng yuqori sudlov instantsiyasi nima va uning tarkibi qandayligini gapirib bering.
13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudining faoliyati nimalardan iborat? Tarkibi-chi?
14. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi qachon vakolatli hisoblanadi?

X bob. O‘ZBEKISTONDA SAYLOV HUQUQI VA SAYLOV TIZIMI

10.1. Saylov huquqi tushunchasi va uning konstitutsiyaviy kafolatlanishi

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng muhim siyosiy huquqlaridan biri davlat vakillik organlariga saylash va saylanish huquqidir. Fuqarolar ushbu huquq orqali davlatni idora etishda, uning muhim siyosiy masalalarini muhokama qilish va hal etishda faol ishtirok etadilar.

Saylov tushunchasi vakillik davlat organining ovoz berish yo‘li bilan tashkil topish tartibidir. Davlat vakillik organlarini saylash jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar O‘zbekiston davlat huquqining muhim instituti bo‘lib, saylov huquqi deb ataladi.

Saylov huquqi tushunchasining yana bir ma’nosi fuqaroning saylovdagi ishtiroki, davlat vakillik organlariga saylash va saylanish sub’yektiv huquqini ta’riflab berishdir. Bu borada aktiv saylov huquqi bilan passiv saylov huquqi farqlanadi. Aktiv saylov huquqi fuqaroning saylash, vakillik organlarini saylashda qatnashish huquqini bildiradi. Passiv saylov huquqi – deputat bo‘lib saylanish huquqidir. Professor A.Saidov “saylov huquqi” tushunchasi va iborasi ikki ma’noda ishlatiladi, deb izohlaydi. “*Birinchisi,* bu saylov huquqi saylab qo‘yiladigan davlat organlarini shakllantirishni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar tizimidir. Saylov huquqining manbalari – Konstitutsiya, davlatning oliy va ma-halliy vakillik organlariga saylovlar haqidagi qonunlardir. *Ikkinchisi,* bu saylov huquqi fuqarolarning saylab qo‘yiladigan organlarini tuzishda qatnashish, ya’ni unga o‘zlarining saylanish (passiv saylov huquqi) va ularning tarkibini saylash (faol saylov huquqi) huquqlaridir”.[1]

Davlat organlari o‘zining tuzilish tartibi jihatidan turli xususiyatlarga ega. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlatning ba’zi organlari saylanadi, boshqalari tuziladi. Davlat hokimiyati organlariga saylovlar demokratik asosda o‘tkaziladi. O‘zbekistondagi umumxalq demokratiyasi eng izchil demokratiyadir, bu demokratiya hech qanday milliy, irqiy va boshqa cheklashlarni bilmaydi. Shu bilan birga, davlat organlarini saylash va tuzish tartibi ularning har qaysisining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

[1] A.X.Saidov. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik. – T.: “O‘zbekiston”1993, 52-b.

O‘zbekiston Respublikasi davlat vakillik organlariga saylovlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi, “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi qonunlar asosida tashkil qilinadi va o‘tkaziladi. Davlatdagi eng muhim masalalarning fuqarolar xohish-irodasi bilan hal etilishi demokratiyaning bir ko‘rinishidir. Davlat hokimiyatini shakllantirishda saylovlar va demokratik tamoyillar muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda eng muhim masalalarning asosan referendum yo‘li bilan hal etilishi chinakam demokratiya namunasidir. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, O‘zbekistonda barcha davlat organlari demokratik asoslarda tuzilish tartibi va chinakam xalqchilligi bilan ham ajralib turadi. Xalqchillik shu narsada o‘z ifodasini topadiki, butun davlat apparatining negizini tashkil etgan davlat organlari, uning xalq deputatlari bevosita saylovchilar tomonidan umumiy saylov yo‘li bilan saylanadilar.

O‘zbekistonda saylovlarning ochiq-oshkoraligi saylov tizimining eng muhim tamoyillaridan bo‘lib hisoblanadi.

Vakillik organlarining umumiy saylov yo‘li bilan tashkil etilishi alohida va ko‘p qirrali ahamiyatga ega. Umumxalq saylovi avvalo, davlat hokimiyatini amalga oshirishda fuqarolar ishtirokining eng muhim shakllaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida fuqa-rolarning saylov huquqi kafolatlanishi alohida mustahkamlangan. Unga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakil-lik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylov-chi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiya-viy vakolat muddati tugaydigan yilda – dekabr oyi uchinchi o‘n kunligi-ning birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli

qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so‘ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o‘zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Saylov o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi”.

10.2. Saylov tizimi tushunchasi va prinsiplari

Saylovlar fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb qilishning eng muhim shakllaridan biridir. O‘zbekistonda saylov tizimi va saylov huquqi chinakam demokratik prinsiplarga asoslangan bo‘lib, bu prinsiplar O‘zbekiston fuqarolarining davlat suverenitetini to‘liq amalga oshirishni ta’minlaydi.

Davlatda vakillik organlarini tuzish yuzasidan mavjud bo‘lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan o‘zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibi saylov tizimi deyiladi.

Saylov tizimi va saylov huquqi tushunchasi davlatning demokratik yoki demokratik emasligini ko‘rsatuvchi asosiy omildir. Professor A.Saidovning fikricha, “Saylov tizimi tushunchasi” bu fuqarolik jamiyatida davlatning vakillik organlarini saylash yo‘li bilan yuzaga keluvchi davlat jamoat munosabatlari tizimidir.[1]

Saylov tiziminipg asosiy prinsiplari: 1) **Umumiy saylov huquqi prinsipi.** Bu prinsip shundan iboratki, O‘zbekistonning 18 yoshga to‘lgan barcha fuqarolari saylash huquqiga egadirlar, aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan fuqarolar bundan mustasnodir.

O‘zbekistonning 25 yoshga to‘lgan fuqarosi Oliy Majlis deputatligiga saylanishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylovi umumiydir. Saylov kunigacha 21 yoshga to‘lgan O‘zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar.

Saylovda qatnashish uchun yosh tsenzidan boshqa cheklovchi senzlarning yo‘qligi saylov huquqining chinakam va real umumiyligini

[1]. A.X.Saidov. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik. 52.-b.

ko‘rsatadi. Bu huquq demokratiyaning eng muhim prinsiplariga – xalq suverenitetiga, O‘zbekiston fuqarolarining huquqiy jihatdan tengligiga asoslanadi. O‘zbekistonda saylovda qatnashish uchun yosh darajasi oqilona kamaytirilib, 18 yosh qilib belgilangan. Shaxs aynan shu yoshda siyosiy va fuqarolik etukligiga erishadi. aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan shaxslarning mustasno qilinganligi tamomila tabiiy va qonuniyatli bir holdir. Buning boisi shuki, bunday shaxslar o‘z xatti-harakatlari to‘g‘risida hisob berolmaydilar va saylovda qatnashish huquqidan ongli ravishda foydalana olmaydilar.

Saylovda qatnashish uchun boshqa tsenzlar yo‘qligi bois O‘zbekistonda keng xalq ommasi saylovlarda faol qatnashish imkoniyatiga egadir. Masalan, 1999 yil 5 dekabrda Oliy Majlisga o‘tkazilgan saylov vaqtida saylovchilarning 95,03 foizi ovoz berishda ishtirok etdi.

Umumiy saylov huquqi O‘zbekistonning barcha fuqarolariga nisbatan joriy etiladi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va O‘zbekiston hududida yashovchi ajnabiylar saylovda qatnashish va vakillik organlariga saylanish huquqiga zga emas. Umumiy saylov huquqi O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida, kasalxonalarda, sanatoriylarda va boshqa shifoxonalarda, kemalarda, yirik temir yo‘l stantsiyalarida, aeroportlarda va shu singarilarda saylov uchastkalarini tashkil etish yo‘li bilan ham ta’minlanadi. Tegishli organlar saylov uchastkalarini tuzish va ovoz beriladigan joylarni belgilash vaqtida saylovchilar uchun eng ko‘p qulaylik vujudga keltirish zarurligini ko‘zda tutadi.

Saylov dam olish kuni o‘tkaziladi. Xalq deputatlariga saylov bilan bog‘liq xarajatlar davlat hisobidan bo‘lib, bu qoida saylov to‘g‘risidagi qonunlarda mustahkamlab berilgan. Saylov o‘tkazish uchun eng yaxshi jamoat binosi ajratib beriladi. Fuqarolarning o‘z saylov huquqini amalga oshirishiga hech narsa xalaqit bera olmaydi.

Qonunda fuqarolarning saylov huquqlarini buzganlikda aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan. Umumiy saylov huquqining keng kafolatlanganligi fuqarolarning ovoz berishda deyarli yoppasiga ishtirok etishlarini ta’minlaydi.

2) Teng saylov prinsipi. Saylov tizimining demokratik mohiyati saylovning umumiy bo‘lishida, ya’ni barcha fuqarolarning saylovda ishtirok etishidagina emas, shuningdek, saylovning teng bo‘lishida hamdir. Umumiy va teng saylov prinsiplari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi. Umumiy saylov bo‘lmasa, teng saylov ham bo‘lishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 117-moddasida hamda Oliy Majlisga saylov to‘g‘risidagi qonunning 3-

moddasida “Har bir fuqaro-saylovchi bir ovozga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqi va milliy mansubligi, jinsi, ma’lumoti, tili, dinga munosabati, mashg‘ulotining turi va xususiyatidan qat’i nazar, teng saylov huquqiga egadirlar” deb belgilangan.

Saylov huquqining tengligi saylovchi faqat bitta saylovchilar ro‘yxatiga kiritilishi va ovoz berishi bilan ta’minlanadi.

3) To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov prinsipi. O‘zbekiston Respublikasida saylov umumiy va teng bo‘libgina qolmay, shu bilan birga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamdir, ya’ni davlat vakillik organlariga deputatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylanadi, xalq deputatlarni barcha davlat vakillik organlariga bevosita saylaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov shu bilan farq qiladiki, birinchi holda deputat saylovchilar tomonidan bevosita xohish-irodalarini erkin ifoda etishlari yo‘li bilan saylanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylovlarning joriy etilishi saylovchilarning deputat bilan bevosita aloqasini kuchaytiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov ko‘p bosqichli saylovdan shu bilan farq qiladiki, bunda saylovchilar o‘z deputatini yaqin biladilar, undan hisob berib turishini talab qila oladilar.

4) Yashirin ovoz berish prinsipi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkazilishi belgilangan.

Saylovchilarning saylovlarda yashirin ovoz berishlari demokratiyani amalga oshirish shakllaridan biridir. Zero, bunday ovoz berishda saylovchilar huquqlari, o‘z xohish-istaklarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Konstitutsiyada saylov huquqining yuqoridagi muhim tamoyillarining mustahkamlanishi O‘zbekiston Respublikasida saylovchilar uchun barcha imkoniyatlarning yaratilganligi, ularning saylovlarda qatnashish huquqlari hech qanday tsenzlar bilan cheklanmaganligi va fuqarolarning davlatni idora etishda faolligi oshganligining yaqqol namunasidir.

10.3. Saylovlar va ularni o‘tkazish tartibi

Deputatlar saylovi oldingi chaqiriq davlat vakillik organlari deputatlarining vakolat muddati tugashiga kechi bilan uch oy qolganda Oliy Majlis tomonidan tayinlanadi. Oliy Majlis vakillik organlariga saylov tayinlaganidan keyin uch kun ichida saylov kuni to‘g‘risida matbuotda

ma’lum qilinadi. Oliy Majlisga deputatlar saylovini o‘tkazuvchi saylov okruglari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ma’muriy hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi. Saylov okruglari, qoida bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi. Har bir saylov uchun saylov okrugiga to‘g‘ri keladigan saylovchilar normasi Oliy Majlis tomonidan belgilanadi.

Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida saylov okruglarining ro‘yxati, ularning chegaralari va saylovchilar sonini ko‘rsatgan holda, saylov tayinlanganidan keyin kechi bilan o‘n besh kun ichida e’lon qilinadi. Saylov okrugi – saylov o‘tkazish uchun Konstitutsiya va saylov to‘g‘risidagi qonunlar asosida belgilab qo‘yilgan hududiy saylov birligidir.

Deputat qaysi okrugdan saylangan bo‘lsa, u shu okrug aholisining vakili deb hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi qonunga asosan, Oliy Majlisga saylov o‘tkazish uchun ikki yuz ellikta saylov okrugi tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi mahalliy Xalq deputatlari Kengashlariga saylov to‘g‘risidagi qonunga asosan xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 60 tadan saylov okruglari tuziladi. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda 30 tadan saylov okruglari tuziladi.

Har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi. O‘zbekiston Respublikasida saylovlarni tashkil qilish hududiy prinsipga asoslanadi, shuning uchun saylovlar saylov okruglari orqali amalga oshiriladi.

Saylov to‘g‘risidagi qonunlarga asosan saylov uchastkalari shahar, tuman hokimlarining taqdimnomasiga asosan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. Harbiy qismlarda saylov uchastkalari qismlar yoki harbiy qo‘shilmalar komandirlarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladi. O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida saylov uchastkalari Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi.

Saylov uchastkalari saylov tayinlangandan keyin o‘ttiz kundan kechikmay tuziladi. Saylov uchastkalari kamida 20 nafar va ko‘pi bilan 3000 nafar saylovchilardan iborat qilib, tuziladi. 1999 yil 5 dekabrda bo‘lib o‘tgan saylovda 7723 ta uchastka saylov komissiyasi tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasida saylovni tashkiliy ravishda o‘tkazish uchun quyidagicha saylov komissiyalari tuziladi:

Markaziy saylov komissiyasi.

Okrug saylov komissiyasi.

Uchastka saylov komissiyasi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis deputatlari saylovlarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun tuziladi hamda u o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi.

Markaziy saylov komissiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, saylov to‘g‘risidagi qonunlarga, referendum to‘g‘risidagi qonunga va boshqa qonunlarga amal qilgan holda ish olib boradi. Markaziy saylov komissiyasi Oliy Majlis tomonidan o‘n besh nafar a’zodan iborat tarkibda tuziladi. Markaziy saylov komissiyasining a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining tavsiyasi bo‘yicha Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadilar. Markaziy saylov komissiyasining raisi komissiya a’zolari orasidan Prezidentning taqdimnomasi bilan komissiya majlisida saylanadi. Raisning o‘rinbosari va komissiya kotibi komissiya a’zolari orasidan komissiya majlisida saylanadilar. Markaziy saylov komissiyasi respublika hududida saylov to‘g‘risidagi qonunning ijro etilishini nazorat qiladi va uning hamma joyida bir xilda qo‘llanishini ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi qonunning 11-moddasida to‘liq ko‘rsatilgan.

Okrug saylov komissiyasi saylov e’lon qilingandan keyin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan yigirma kundan kechikmay rais, rais o‘rinbosari, kotib va yana kamida 6 nafar a’zodan iborat tarkibda tuziladi. Okrug saylov komissiyalarining vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risidagi qonunda to‘liq ko‘rsatilgan. Saylov okrugi saylov to‘g‘risidagi qonunning ijrosini nazorat qiladi, saylov uchastkalarini tuzadi va ularga rahbarlik qiladi, deputatlikka nomzodlarga saylov kampaniyasida ishtirok etishlari uchun teng sharoit yaratilishini ta’minlaydi, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan deputatlikka nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qiladi va bu nomzodlarga tegishli guvohnomalar beradi, saylov okrugi bo‘yicha saylov natijalarini aniqlaydi va Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etadi va qonunda ko‘rsatilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Uchastka saylov komissiyasini okrug saylov komissiyasi tuzadi. Uchastka saylov komissiyasi saylov tayinlangandan keyin ellik kundan kechikmay 5-19 nafar a'zodan, shu jumladan rais, rais o'rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari hududida uchastka saylov komissiyasi raisining vazifalarini idora rahbari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi vakillik organlariga saylovlarga tayyorgarlik ko'rish, ovoz berishni tashkil qilish va berilgan ovozlarni sanab chiqish uchun saylov uchastkalariga bo'linadi. Uchastka saylov komissiyasi aholini saylov kuni va ovoz berish joyi to'g'risida xabardor qiladi. Ovoz berish binolari va saylov qutilari hamda boshqa saylov ashyolari tayyorlab qo'yilishini ta'minlaydi. Oliy Majlisga saylov to'g'risidagi qonunda uchastka saylov komissiyasining vakolatlari to'liq ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida saylovga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar orasida deputatlikka nomzodlar ko'rsatish eng muhim va mas'uliyatli tadbirlar hisoblanadi.

Oliy Majlis deputatligiga nomzodlar ko'rsatish saylov kuni tayinlanganidan keyin yigirma beshinchi kundan e'tiboran boshlanadi va saylovga qirq besh kun qolganida to'xtatiladi. Oliy Majlis deputatligiga nomzodlar siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari sessiyalarida hamda fuqarolar guruhi Oliy Majlis deputatligiga nomzod ko'rsatish uchun tegishli saylov okrugining kamida yuz nafar saylovchisidan iborat tashabbuskor guruh tuzishi mumkin va deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiya saylov e'lon qilgan kundan kamida olti oy oldin O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan bo'lsa, deputatlikka nomzod ko'rsatish huquqiga ega.

Siyosiy partiyalar, vakillik organlari va saylovchilar tashabbuskor guruhlari Oliy Majlisga 250 ta nomzod ko'rsatish huquqiga egadirlar. Deputatlikka ko'rsatilgan nomzod faqat bitta okrugdan o'tishi mumkin. Deputatlikka nomzod tanlashni siyosiy partiyalar, hokimiyatning vakillik organlari va saylovchilar tashabbuskor guruhlarining o'zlari hal etadilar.

Asosiy tayanch tushunchalar

Saylov, saylovchi, saylov tizimi, saylov huquqi, davlat vakillik organlari, aktiv saylov huquqi, passiv saylov huquqi, okrug saylov komissiyasi, jarayon, qo'shma majlis.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Saylov huquqi tushunchasi va uni konstitutsiyaviy kafolatlanishi deganda nimalar tushuniladi?
2. Saylov tizimi tushunchasi va prinsiplari haqida nimalarni bilasiz?
3. Kimlar saylovda qatnashish huquqiga ega emas?
4. Saylovda qatnashuvchilar qanday huqularga ega?
5. Yashirin ovoz berish prinsipida nimalar ko‘zda tutiladi?
6. Saylov komissiyalari haqida gapirib bering.

XULOSA

Respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan tarixan qisqa vaqt ichida sovet davridagi eski ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning puxta huquqiy asoslari yaratildi, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o‘tkazish jarayoni amalga oshirildi. Eng muhimi, aholining ongu tafakkurida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ularning uzoq yillar mobaynida kommunistik va sovet mafkurasi tamoyillari asosida shakllantirilgan fikrlash tarzi va dunyoqarashi-odamlarning o‘zi o‘zgardi. Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlarni ortga qaytarib bo‘lmasligi, islohotlar maqarrarligining ishonchli kafolatidir.

Vatanimiz, xalqimiz tarixida muhim o‘rin tutgan ushbu davrda tom ma’noda tub o‘zgarishlar amalga oshirildi, xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’yektiga aylangan, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib, mustahkam o‘rniga ega bo‘lgan, O‘zbekiston deb atalgan yangi demokratik davlat barpo etildi. Bugun ana shu mustahkam poydevor asosida mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etmoqda. Ushbu bosqichning muqim dasturiy vazifalari siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarining yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdan iborat.

Respublikamizning bosib o‘tgan mustaqil taraqqiyot yo‘li va oldimizda turgan vazifalarning ma’no-mohiyati va ahamiyati haqida so‘z yuritilganda bu yo‘lni alohida ikki davrga ajratish to‘g‘ri bo‘ladi. O‘tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shaklantirish bilan bog‘liq birinchi galdagi islohot va o‘zgarishlarni o‘z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000 yillar mamlakatimiz va xalqimiz hayotida ulkan iz qoldirgan o‘tish davri sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. 2001 yildan 2007 yilgacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqich – faol demokratik yangilanishlar; mamlakatni modernizatsiya qilish davri esa iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni

ta’minlashda g‘oyat muhim rol o‘ynagan davr bo‘ldi.

Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, bugun yangicha fikrlaydigan, o‘z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimizning kelajagini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq holda ko‘radigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish” o‘quv qo‘llanmasini yozishdan maqsad, xuddi o‘sha yangi avlod vakillariga-huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishdagi asosiy kuch, ertangi kunimizning egalari bo‘lgan talaba-yoshlarga Asosiy qomusimiz – Konstitutsiyamizning mazmun-maqsadi, mohiyati, ayni paytda, mustaqil O‘zbekistonimizning huquqiy ustuni ekanligini anglatish, ularning ongida, tafakkurida qonunlarimizga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg‘ularini uyg‘otish hamda qonun ustuvorligiga amal qilish ruhida tarbiyalashdir. Zero qonunlarga amal qilmay turib huquqiy demokratik davlat qurib bo‘lmaganidek, Konstitutsiyamizni bilmay, uni mukammal o‘rganmay turib, insonning o‘z haq-huquqini bilishi ham qiyindir. Shunday ekan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish-davr talabi, har bir talaba-yoshlarning burchidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura. – T.: “O‘zbekiston” 1996.
2. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: “O‘zbekiston” 2005.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: “O‘zbekiston” 2000.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T.: “O‘zbekiston” 1996.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.: “O‘zbekiston” 1996.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. – T.: “O‘zbekiston” 4-tom. 1996.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.: “O‘zbekiston” 5-tom. 1997.
8. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. – T.: “O‘zbekiston” 2005.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston” 1999.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. – T.: “O‘zbekiston” 1994.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. – T.: “O‘zbekiston” 1994.
12. Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. “Xalq so‘zi” 30.08.2002.
13. Karimov I.A. Yangilanish va o‘zgarishlar jarayoni orqaga qaytmaydi. “Xalq so‘zi” 05.04.2002.
14. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li (Prezident I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi), “Xalq so‘zi” 31.08.2007.
15. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi 1991 yil 31 avgust konstitutsiyaviy qonuni (Axborotnoma. 1991. 11-son).
16. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: 1996.
17. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Axborotnoma. 1998. 5-6-sonlar.

18. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi 11 may 1999 yil qonuni.
19. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asoslari. – T.: “Adolat” 2000.
20. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga sharh. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.
21. Saidov A.X. Qiyosiy konstitutsiyashunoslik. – T.: “O‘zbekiston”, 1993.
22. Saidov A.X. Xalqaro huquq. – T.: “Sharq”, 2001.
23. Islomov Z. Davlat va huquq: Umumnazariy masalalar. – T.: “Adolat” 2000.
24. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriev X. Davlat va huquq asoslari (Darslik) – T.: “Sharq” 2002.
25. Karimova O., G‘afforov Z. Davlat va huquq asoslari. – T.: “O‘qituvchi”. 1995.
26. O‘zbekiston Respublikasi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga sharh. – T.: “O‘zbekiston”. 2005.
27. Inoyatov A. O‘zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” 2002.
28. Abdumajidov G‘., Ahmedov D. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. – T.: 2002.
29. Boboev H.B. va boshqalar. Inson huquqlari. – T.: “O‘zbekiston” 1997.
30. Jalolov Sh. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari. T.: “O‘zbekiston” 2001.
31. Sharifxo‘jaev M., Shodiev N.T. O‘zbekiston – Konstitutsiyaviy davlat. – T.: “O‘zbekiston” 2003.
32. Zokirov I. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. T.: “Adolat” 1996.
33. Sharifxo‘jaev M., Shodiev N.T., Hasanov S.H. va boshqalar. O‘zbekiston demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: 2004. (O‘quv qo‘llanma).
34. Saidov A., Tadjixonov U. Islom Karimov Konstitutsiyasi to‘g‘-risida. – T.: “Akademiya” 2001.

MUNDARIJA

KIRISH

I-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O‘RGANISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishning zaruriyatligi……..……...

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati……..

1.3. O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi……

1.4. Konstitutsiya – davlatning asosiy Qonuni…….

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. Davlat suvereniteti……

II-bob. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 1992 YILGI KONSTITUTSIYASINING VUJUDGA KELISHI, UNING DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining e’lon qilinishi...

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining vujudga kelishi, davlat va jamyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati……

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning tuzilishi……...

2.4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish tartibi……..……...

III-bob. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 1992 YILGI KONSTITUTSIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI

3.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda jamiyat va shaxs……..……...

3.2. Jamoat birlashmalari va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni…….

3.3. Oila, uning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati…….

3.4 Ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi……..……

IV bob. O‘ZBEKISTONDA INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

4.1. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat……..……...

4.2. Fuqarolik va uning konstitutsiyaviy asoslari…….

4.3. Inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklari…….

4.4. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, fuqarolarning

burchlari……..……..
V bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY-DAVLAT VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI
5.1. Milliy davlat va ma’muriy-hududiy tuzilish asoslari……...
5.2. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi…….
5.3. Ma’muriy-hududiy qismlarni o‘zgartirish, tashkil qilish va tugatish tartibi……..……
5.4. Qoraqalpog‘iston suveren Respublikasining huquqiy maqomi va uning qonun asoslari…….
VI bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY MAJLISI
6.1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tushunchasi va uni tashkil etish tartibi……..……...
6.2. Oliy Majlisning davlat idoralari tizimidagi o‘rni va ijtimoiy vazifasi……..……
6.3. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining shakllantirish tartibi……..……...
6.4. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisii Qonunchilik palatasi va Senatining konstitutsiyaviy vakolatlari…….
6.5. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisii Qonunchilik palatasi va Senati faoliyatining tashkiliy huquqlari……...
VII bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI – DAVLAT VA IJRO ETUVCHI HOKIMIYAT BOSHLIG‘I
7.1. O‘zbekistonda Prezidentlik lavozimining joriy etilishi. Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanishi……..
7.2. O‘zbekistonda Prezident saylovlarini o‘tkazish tartibi…….
VIII bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI
8.1. Vazirlar Mahkamasi – O‘zbekiston Respublikasining hukumati….
8.2. Vazirlar Mahkamasi qarorlarini rasmiylashtirish, tarqatish, e’lon qilish va kuchga kiritish……
8.3. Vazirlar Mahkamasida boshqa masalalarning ko‘rib chiqilishi…...
8.4. Mahaliy davlat hokimiyati organlari……
8.5. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining konstitutsiyaviy vazifalari...
IX bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI
9.1. O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari……..
9.2. O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyati va uning tuzilishi……...
9.3. O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovning konstitutsiyaviy prinsiplari……..
9.4. O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy sudning tutgan o‘rni…
9.5. O‘zbekiston Respublikasida Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudining,

ahamiyati……..……
X bob. O‘ZBEKISTONDA SAYLOV HUQUQI VA SAYLOV TIZIMI
10.1. Saylov huquqi tushunchasi va uning konstitutsiyaviy kafolatlanishi…
10.2. Saylov tizimi tushunchasi va prinsiplari……...
10.3. Saylovlar va ularni o‘tkazish tartibi…….
XULOSA……..……
ADABIYOTLAR RO‘YXATI…….

A.QURBONOV

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINI O‘RGANISH

O‘quv qo‘llanma

Muharrir Sh.Xudoyberdiyeva
Kompyuterda sahifalovchi N.Axmetova

Bosishga ruxsat etildi “__”_____2009 y. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Hisob-nashr tabog‘i 10,6 b.t. Adadi____. Buyurtma №____

“IQTISOD–MOLIYA” nashriyoti,
100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy

Toshkent Moliya instituti bosmaxonasida rizografiya usulida chop etildi.

100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy